# INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

# INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

2-son, 2025

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal




ORIENTAL UNIVERSITETI

# INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Ikkinchi son)

Toshkent – 2025

**"Innovatsion pedagogika va psixologiya"**
**ilmiy jurnalining tahrir hay'ati:**

**Bosh muharrir:**
*Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,*
*Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
*Egamberdiyeva F.O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor*

**Mas'ul muharrir:**
*Umarov B.M. – psixologiya fanlari doktori, professor*

**Musahhih:**
*Yunusov K. A.*

**Tahrir hay'ati a'zolari:**

| | |
|---|---|
| *Kozlov V.V.* | *Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);* |
| *Lekerova G.J.* | *Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog'iston);* |
| *Sibel Sönmaz* | *Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);* |
| *Shafiyeva I.I.* | *Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);* |
| *Palatkina G.V.* | *Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);* |
| *Xazova S.A.* | *Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);* |
| *Ibragimov X.I.* | *Pedagogika fanlari doktori, akademik;* |
| *Mirqosimova M.* | *Pedagogika fanlari doktori, akademik;* |
| *Quchqorova N.M.* | *Pedagogika fanlari doktori, professor;* |
| *Niyozmetova R. X.* | *Pedagogika fanlari doktori, professor;* |
| *Muslimov N.A.* | *Pedagogika fanlari doktori, professor;* |
| *Xalilova Sh.T.* | *Pedagogika fanlari doktori, professor;* |
| *Xodjayev B.X.* | *Pedagogika fanlari doktori, professor;* |
| *Kadirova M.R.* | *Pedagogika fanlari doktori, professor;* |
| *Nazarova D.A.* | *Pedagogika fanlari nomzodi, professor;* |
| *Shoumarov G'. B.* | *Psixologiya fanlari doktori, akademik;* |
| *Karimova V.M.* | *Psixologiya fanlari doktori, professor;* |
| *Atabaeva N.B.* | *Psixologiya fanlari doktori, professor;* |
| *Abdullaeva D.U.* | *Psixologiya fanlari doktori, professor;* |
| *Baykunusova G.Y.* | *Psixologiya fanlari doktori, professor;* |
| *Qarshieva D.S.* | *Psixologiya fanlari doktori, professor;* |
| *Alimbayeva Sh.T.* | *Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;* |
| *Nishanov S.Y.* | *Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)* |

MUNDARIJA

**Nishanova Zamira Taskarayevna, Nishanova Zulfizar Yashin qizi**
M. G. Davletshinning shaxsiy xususiyatlari va ilmiy-pedagogik qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan omillar .......... 4

**Djurakulova Dilfuza Farxodovna**
Turli yosh davrlarida aybdorlik va uyat kechinmalarining tutgan o‘rni .......... 15

**Alimbayeva Shaxlo Tursunovna**
Shaxsda milliy mansublik hissining psixologik jihatlari .......... 29

**Djumayeva Sanobar Absaatovna**
Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish .......... 38

**Nishanova Dildora Komiljanovna**
Nodavlat ta’lim muassasalarida dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi .......... 47

**Kushakova Nargiza Islambayevna**
Oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi holati .......... 55

**Salomov Shamsiddin Saboxiddin o‘g‘li**
O‘spirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari .......... 65

**Yunusov Komiljon Alimdjanovich**
Muzey pedagogikasining shakllanishida konsepsiyaviy yondashuvlar .......... 74

**Шакиров Абитхан Сабитханович**
Темперамент и психология характера как единая основа деятельности человека .......... 86

**Aliyev Dilshod Maxmatrabiyevich**
Axborot-kommunikatsion kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .......... 99

**Исраилов Джахонгирхон Джамшидхонович**
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов .......... 110

**Ganiyeva Muborak Adilovna**
Amir Temur va temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalalari .......... 120

**Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li**
Oilaviy krizislar va uning inson ruhiyatiga ta’siri .......... 131

# M. G. DAVLETSHINNING SHAXSIY XUSUSIYATLARI VA ILMIY-PEDAGOGIK QARASHLARI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETGAN OMILLAR

# FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF THE PERSONAL CHARACTERISTICS AND SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL VIEWS OF M. G. DAVLETSHIN

# ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК И НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ М. Г. ДАВЛЕТШИНА

**Nishanova Zamira Taskarayevna**
*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professori,*
*psixologiya fanlari doktori*
*Tel.: +998 90 997-33-61*
*E-mail: nishanovaz23x@gmail.com*

***Nishanova Zulfizar Yashin qizi***
*Toshkent amaliy fanlar universiteti,*
*Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi, PhD*
*Tel.: +998 94 679-66-06*

**Annotatsiya**: Maqolada O'zbekiston psixologiya fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, psixologlar ilmiy jamoatchiligida o'zining alohida salobatli o'rniga ega olim Muhammad Gabdulgalimovich Davletshinning shaxs xususiyatlari hamda ilmiy-pedagogik qarashlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar bayon etilgan. Xotira fikr, mulohaza, mushohada yolg'iz shu tuyg'ular o'tmishni ortga qaytara oladi. Shunda biz xotira orqali anglay boshlaymiz. Xotirlashga arzigulik voqealar, jozibali tafsilotlarga boy odamlar ruhan va qalban komil insonlar bo'ladi. Professor M.G.Davletshin ana shunday ruhiy olam quvvatiga ega bo'lgan, uzoq kelajakni ko'ra bilgan, o'tmishni xotirlab, yaxshi niyatlar aytishga arzigulik zabardast olim edi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin Vatanimizdagi psixologiya fani rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olimdir.

**Kalit so'zlar**: *psixolog, shaxs, olim, psixologiya tarixi, kontent analiz.*

**Abstract**: The article describes the factors influencing the formation of the personality traits and scientific and pedagogical views of the scientist Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin, who made a significant contribution to the development of the science of psychology in Uzbekistan and occupies a special place in the scientific

community of psychologists. Memory, reflection, and observation are the only ways in which these relatives can return to the past. Then we begin to understand through memory. People who are fond of memorable events and fascinating details are perfect in spirit and heart. Professor M.G. Davletshin was a brilliant scientist who possessed such spiritual and worldly power, who could see the distant future, remember the past, and make beautiful memories. M.G. Davletshin, a scientist who served in the Republic of Uzbekistan, Doctor of Psychological Sciences, professor, is a scientist who has made a great contribution to the development of the science of psychology in our country.

**Keywords**: *psychologist, personality, scientist, history of psychology, content analysis.*

**Аннотация**: В статье описываются факторы, влияющие на формирование черт личности и научно-педагогических взглядов ученого Мухаммада Габдулгалимовича Давлетшина, внесшего значительный вклад в развитие науки психологии в Ўзбекистане и занимающего особое место в научном сообществе психологов. Память, размышление и наблюдение – единственные способы, с помощью которых эти близкие могут вернуться в прошлое. Тогда мы начинаем понимать через память. Люди, увлекающиеся памятными событиями и увлекательными подробностями, совершенны духом и сердцем. Профессор М.Г. Давлетшин был блестящим ученым, обладавшим такой духовной и мирской силой, который мог видеть далекое будущее, помнить прошлое и создавать прекрасные воспоминания. М.Г. Давлетшин, ученый, служивший в Республике Ўзбекистан, доктор психологических наук, профессор, – ученый, внесший большой вклад в развитие науки психологии в нашей стране.

**Ключевые слова**: *психолог, личность, ученый, история психологии, контент-анализ.*

## KIRISH

M.G.Davletshin 1923-yil 11-noyabrda Rossiya Federatsiyasining Orenburg shahrida tavallud topgan. Uning otasi oʻz davrining mashhur ziyolilaridan biri boʻlib, madrasa rahbari va mudarrisi sifatida faoliyat koʻrsatgan. M.G.Davletshin 1957-yil «5-7-sinf oʻquvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini, 1971-yil «Oʻquvchilarda texnik qobiliyatlarning psixologiyasi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlagan.

Professor M.G.Davletshin mehnat ta’limi va kasbga yoʻllash muammolariga, texnik qiziqish va texnik qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlariga, Respublikamizdagi pedagogika oliy oʻquv yurtlari va universitetlarida oʻqituvchi kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish muammolariga koʻp e’tibor beradi. M.G.Davletshinning ilmiy qiziqishlari asosan oliy maktablarda psixologiyani oʻqitish

samaradorligini oshirish muammolariga qaratilgan edi. Olim tomonidan O‘zbekiston maktablarida psixologik xizmatni tashkil qilish, boshqarishning shakl va tizimi ishlab chiqildi. Professor M.G.Davletshin hozirgi zamon talablarini nazarda tutib, mustaqillik yillarida asosiy e’tiborni Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini o‘rganish masalalari bilan oliy maktabda psixologiyani o‘qitishda va Respublika psixologlarining ilmiy tadqiqot ishlarida bu boy merosdan foydalanish masalasiga qaratgan. Biz tadqiqotda M.G.Davletshinning shaxs xususiyatlari va ilmiy-psixologik qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan omillarni aniqlash maqsadida kontent analiz metodidan foydalandik. «M.G.Davletshin zamondoshlar va shogirdlar xotirasida» nomli uslubiy qo‘llanma matnidagi 29811 ta so‘z tahlil qilindi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

«Ilmiy rahbarim professor, fan arbobi bo‘lsa ham kichik ko‘ngil, mehribon, samimiy, shogirdlarini o‘z farzandiday ko‘ruvchi Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin va uning oqila turmush o‘rtog‘i – Maftuxa ayajonimdan juda minnatdorman. Ustoz yonlariga ilmiy ishimni tahlil qildirgani borganimda darhol «Qachon ketasiz?»-deb so‘rab olardi. Men «Bugun, chunki 8 oylik farzandimni tashlab kelganman»- desam, boshqa ishlarini bir chetga surib qo‘yib, ko‘rsatgani olib borgan ilmiy ishimni ko‘rib, maslahatlarini yozib berardi» (Maxsudova M., 2018: 108).

Ba’zi sinaluvchilar ustozni «mas’uliyatli» shaxs sifatida baholashgan, bu fikrning takrorlanish chastotasi 0,36 ga teng. Bu fikrga misol sifatida P.S.Ergashevning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli:

«Ustozning o‘ta mas’uliyatli inson ekanini qanday misollar tasdiqlaydi. Muhammad Davletshin hech qayerga kechikib bormaganligi, kechikkandan ko‘ra bormaslikni afzal bilgani, punktual bo‘lmagan odamlar ular ko‘z o‘ngida nihoyatda salbiy aks etgani haqida ko‘pchilik biladi. Men Ustozning har ishda qanday mas’uliyat bilan yondashganini ko‘rsatuvchi yana bir misolni eslayman. Yodimda, 85 yillik tavallud ayyomi katta to‘y qilib nishonlanganda anjumanning tantanali qismi so‘ngida bularga so‘z berilganda, to‘rt qator she’r qo‘shib minnatdorchilik bildirgandi. Hali esimda, keksalik sababmi yoki hayajon, she’rni biroz to‘xtab, lekin oxirigacha aytib bergandi. O‘shanda ichimdan «qoyil, bayramga ataylab she’r ham yodlabdi» degan xayol o‘tgandi» (Ergashev P., 2013:10).

Fikrimizcha, yuqoridagi hayotiy misollar ustoz M.G.Davletshinning o‘ta mas’uliyatli shaxs, olim bo‘lganligidan nishonadir.

Respondentlar «Doim kelajakni ko‘zlash» M.G.Davletshinga xos xislatlardan biri ekanligini ta’kidlashgan, bu fikrning takrorlanish chastotasi 0,32 ga teng. Ustozning erishilganlar bilan to‘xtab qolmasdan, doim kelajakni ko‘zlaganlariga misol sifatida P.S.Ergashevning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: «Shu ma’noda ustoz

bilan bog‘liq bu xotiralardan qanday saboqlar olganimni quyida dona-dona sanab o‘tsam, sanaganda ham aniq faktlar bilan keltirib o‘tsam:

Fakt №1 (29.10.2008). Nomzodlik dissertatsiyasi muddatdan avval himoya qilindi, himoya hujjatlari Oliy attestatsiya komissiyasiga topshirildi, aspirantura rasman tugallanishiga ikki oy bor, bu yog‘iga maza qilib o‘zimga o‘zim ta’til e’lon qilaman desam, ustoz keyingi faoliyat, ish joyini hal qilmaguncha hech qanday ta’tilga ruxsat yo‘q, dedilar.

Saboq: doim kelajakni ko‘zlash, bajarib bo‘lingan ishdan qoniqish bilan cheklanib, shunda to‘xtab qolmaslik, ertani o‘ylab yashash».

Bu fikrlardan ustoz M.G.Davletshin uzoqni ko‘zlab ish tutishlari, doimo erishilgan muvaffaqiyatlar bilan cheklanib, qolmasdan doim harakatda, izlanishda bo‘lish zarurligini shogirdlariga uqtirganlariga guvoh bo‘ldik.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini psixologiyaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lmish – determinizm tamoyili, tizimlilik tamoyili, tarixiy psixologik tadqiqotlarning obyektivligi tamoyili, o‘tmish, bugun va kelajak birligi tamoyili tashkil etadi.

Ilmiy ishimizda determinizm tamoyilidan metodologik asos sifatida foydalanganimiz sababi tadqiqotimiz obyekti bo‘lmish professor M.G.Davletshin ilmiy ijodi u faoliyat yuritgan ishlab chiqarish va ta’lim tizimi bilan bevosita bog‘liq. Chunki M.G.Davletshin dastlab mehnat faoliyatini aviatsiya zavodida slesar sifatida boshlagan, shuning uchun nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi texnik qiziqishlarga, doktorlik dissertatsiyasi mavzusi texnik qobiliyatlarga bag‘ishlangan . U pedagogika oliy o‘quv yurtida rahbarlik lavozimlarida hamda o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritib, psixologiya fanlarini o‘qitishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqqan, zamonaviy o‘qituvchining psixologik xususiyatlarini batafsil yoritgan. Shu bilan birga shogirdlari ilmiy ishlarida o‘z g‘oyalarini davom ettirgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sinaluvchilar M.G.Davletshinni «komil inson» deya baholashgan bu fikrning takrorlanish chastotasi 0,31 ga teng. Bu fikrga misol sifatida E.N.Sattarovning maqolasidan parcha keltiramiz: «Muhammyed Galimovich esa psixologiya fanida yangi muammolarga bag‘ishlangan yangi kitoblarni kafedra majlisida muhokama qilishni xodimlar uchun kasbiy zaruratga aylantira olgan edi. Murakkab ilmiy masalalar bo‘yicha axborot berishni tajribali, ilmiy darajaga ega xodimlarga, dolzarb, yangi, lekin juda murakkab bo‘lmagan masalalar bo‘yicha tahliliy axborot berishni yoshlar zimmasiga yuklar edi. Bu esa doimiy ravishda kafedrada ilmiy muhit hukm surishini ta’minlab berar edi. Albatta, bunday ilmiy muhokamalarga domlaning o‘zi bosh bo‘lib, muhokama oxirida mavzu bo‘yicha yakunlovchi fikrini bildirar edi.

Menimcha, biz yoshlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlab borgan yetakchi omillardan yana biri domla tomonidan ishning shunday tashkil etilganligi bo‘lsa ajab emas.

Ushbu maqolada men keltirgan fikrlar domlaning boy insoniy hayotidan olingan zarra, xolos. O‘ylaymanki, aynan domlaga o‘xshab vijdonan yashab o‘tilgan hayot shu tarzda umr kechirgan odamlarni katta harflar bilan BUYUK INSON deb atash uchun yetarli asos bo‘lishga va yoshlar uchun esa o‘z hayotini qurishda haqiqiy andoza bo‘lib xizmat qilishga arziydi» (Nishanova Z., 2023: 41).

Fikrimizcha, nafaqat bu misolda boshqa shogirdlar va zamondoshlar tomonidan ham ustoz M.G.Davletshin har tomonlama yetuk, komil inson sifatida yuksak baholangan.

Sinaluvchilar M.G.Davletshinni «mehnatsevar» shaxs sifatida baholashgan, bu fikrning takrorlanish chastotasi 0,31 ga teng. Bu xislatga misol sifatida Z.T.Nishanovaning maqolasidagi quyidagi fikrlarni keltirishni joiz deb bildik:

«Professor M.G.Davletshinga komil insonga xos barcha ijobiy xislatlar xos. Ular orasida yuksak ma’naviyat, gumanizm, altruizm, maqsadga intiluvchanlik, mehnatsevarlik, kuchli iroda, sabr-toqatlilik kabi xislatlar ustozda yaqqol namoyon bo‘lgan» (Nishanova Z., 2018: 36).

Yuqoridagi fikrlardan, ustoz M.G.Davletshin komil insonlarga xos barcha ijobiy xislatlar egasi bo‘lganliklarini anglab etdik.

Respondentlar M.G.Davletshinga «Bilimlarni egallashga, aqliy, axloqiy, kasbiy va ilmiy o‘sishga intilish» xos ekanligini ta’kidlashgan, bu indikatorning takrorlanish chastotasi 0,27 ga teng. Shogirdlar respondentlar M.G.Davletshinni «motivator» sifatida baholashgan, bu indikatorning takrorlanish chastotasi 0,26 ga teng. Bu fikrlarga misol sifatida M.Maqsudovaning maqolasidan bir shingil keltirishni lozim topdik:

«Ustozimning bir gaplari qulog‘imga qo‘rg‘oshindek quyulib qolgan: «qizim chumolining harakatlarini kuzatganmisiz, bilasizmi, ular hech qachon harakatdan to‘xtamaydilar, siz ham shu chumolilardek yashang, ilm yo‘lida to‘xtab qolmang», degandilar. Men hozir shogirdlarimga ustozimning shu gaplarini tez-tez eslataman. Chunki inson o‘z maqsadiga erishishi uchun chumolidek harakat qilishi lozim ekan. Men ilmiy ish qilayotgan yillarim turmush o‘rtog‘im talaba edi, 2 ta farzandimizni qiynalib boqib katta qilayotgandik. Rosa qiynalgan vaqtlarimda ustozimning chumoli haqidagi gaplari menga motivatsiya bo‘lgan. Men judayam baxtliman, chunki menga shunday oliyjanob, shogirdlari uchun qayg‘uradigan inson rahbar bo‘lgan. Men ustozimning 29-shogirdlari edim» (Maxsudova M., 2018: 108).

Bizningcha, M.G.Davletshin na faqat bu shogirdlariga, barcha hamkasblar va shogirdlariga ilmiy ish bo‘yicha so‘ralgan bir og‘iz suhbat ham ular uchun yuksak motivatsiya bo‘lgan deya to‘liq ishonch bilan ayta olamiz.

Quyidagi 1-jadvalda ko‘rinib turganidek, ko‘pchilik respondentlar M.G.Davletshinni yosh olimlar va rahbarlar uchun ibrat, namuna deb baholaganlar, bu fikrning takrorlanish chastotasi 0,4 ga teng.

**1-jadval. M.G.Davletshin haqida yozilgan maqolalarning kontent tahlil natijalari (n =29811)**

| № | Kontent analiz indikatorlari | Ch |
|---|---|---|
| 1 | Namuna, ibrat | 0,4 |
| 2 | Shogirdlariga mehribon | 0,37 |
| 3 | Mas’uliyatli | 0,36 |
| 4 | Doim kelajakni ko‘zlash | 0,32 |
| 5 | Komil inson | 0,31 |
| 6 | Mehnatsevar | 0,31 |
| 7 | Bilimlarni egallashga, aqliy, axloqiy, kasbiy va ilmiy o‘sishga intilish | 0,27 |
| 8 | Motivator | 0,26 |
| 9 | Samimiylik | 0,21 |
| 10 | Punktual | 0,21 |
| 11 | Talabchan | 0,21 |
| 12 | Yuksak ma’naviyat | 0,21 |
| 13 | Yumor hissiga boy | 0,15 |
| 14 | Mehmondo‘st | 0,15 |
| 15 | Beg‘araz yordam beruvchi, altruist | 0,15 |
| 16 | Osiyoda yagona | 0,15 |
| 17. | Maqsadga intiluvchanlik | 0,15 |
| 18 | Boshqalarni muhokama qilmaslik, g‘iybatdan uzoq | 0,15 |
| 19 | Muhimini ajratish, bosh maqsaddan chalg‘imaslik | 0,1 |
| 20 | Sabrlilik | 0,1 |
| 21 | Yuksak empatiya | 0,1 |
| 22 | Havas obyekti | 0,1 |
| 23 | Jussasi kichik, salobati yuksak | 0,1 |
| 24 | Gumanizm | 0,1 |
| 25 | Kuchli iroda | 0,1 |
| 26 | Erishilgan muvaffaqiyatda to‘xtab qolmaslik | 0,5 |
| 27 | Ish joyidagi munosabatlarni qadrlash | 0,5 |
| 28 | Ruhiy ko‘tarinkilik, ortiqcha asabiylashmaslik | 0,5 |
| 29 | Fidoiy | 0,5 |
| 30 | Xolislik | 0,5 |
| 31 | Oilaparvar | 0,5 |
| 32 | Vazmin va bosiqlik | 0,5 |
| 33 | Sabr-toqatlilik | 0,5 |
| 34 | Bag‘rikeng | 0,5 |
| 35 | Prinsipial | 0,5 |
| 36 | Halollik | 0,5 |

Respondentlar M.G.Davletshinni «samimiy», «punktual», «talabchan», «yuksak ma’naviyatli» olim sifatida baholashgan, bu indikatorning takrorlanish chastotasi 0,21 ga teng.

Shogirdlar M.G.Davletshinni «yumor hissiga boy» shaxs sifatida ta’riflashgan, bu indikatorning takrorlanish chastotasi 0,15 ga teng. Bu fikrlarga misol sifatida K.B.Qodirovning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik:

«Ustozimiz M.G.Davletshin hamkasblari va shogirdlariga shaxsiy ishlari bo‘yicha maslahatlar berishda hazil-mutoyiba, hikmatnamo mulohazalardan foydalanish qobiliyati bilan alohida ajralib turardi. Hattoki, darsga tayyorgarlik ko‘rib kelmagan, uyga vazifani bajarmasdan darsda qatnashayotgan talabalarni ham juda ta’sirchan hazil-mutoyiba orqali koyib turardi. Masalan: «Talabaga shunchaki shimini auditoriyadagi stulga ishqalab ketgani uchun baho qo‘yilmaydi-ku!..» - deya yarim hazil, yarim chin kinoya bilan, bir tomondan, talabani kuldirib, ikkinchi tomondan, uni o‘ylashga, mas’uliyatni his etib, jiddiyroq yondashishga undar edi.

Yana bir vaziyat: Muhammad Gabdulgalimovich ma’ruza mashg‘uloti jarayonida darsga xalaqit beradigan talabalarga ham o‘ziga xos uslubni qo‘llardi. Shunday vaziyatlardan birida Muhammad Gabdulgalimovich talabalarga 2-3 marta tanbeh berganidan so‘ng bu holat yana takrorlangach, ularga istehzo bilan quyidagicha murojaat qilgan: «Bilasizmi, psixiatrlar ayrim bemorlarga enurez, ya’ni «peshobni ushlab tura olmaslik» tashxisini qo‘yishadi. Siz-chi? Mabodo, «nutqni ushlab tura olmaslik» kasalligiga chalinmaganmisiz?..»

Albatta, shunga o‘xshash ko‘plab muammoli kasbiy vaziyatlarda, nizoli pedagogik vaziyatlarda M.G.Davletshin tomonidan yuksak darajadagi hozirjavoblik, topqirlik, kreativlik, diplomatik muomala madaniyati namoyon qilinishi chuqur ma’noli hazil-mutoyiba va kesatishlar orqali yoshlarning xulq-atvorini to‘g‘ri yo‘naltirish, shuningdek, xodimlari va shogirdlarining ishga, o‘qishga bo‘lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qilgan deb o‘ylayman. Shaxsan men hurmatli ustozimiz Muhammad Gabdulgalimovichdan juda ko‘plab pedagogik muloqot sirlarini, pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalarini o‘rganganman va hanuzgacha o‘z kasbiy-pedagogik faoliyatimda samarali qo‘llab kelmoqdaman“ (Qodirov K., 2023: 101-102).

Fikrimizcha, K.B.Qodirov tomonidan keltirilgan ikki vaziyat M.G.Davletshin yumordan juda unumli foydalanganligiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Sinaluvchilar M.G.Davletshinni «mehmondo‘st» shaxs sifatida ta’riflashgan, bu indikatorning takrorlanish chastotasi 0,15 ga teng. Ularning mehmondo‘stliklarini batafsil ta’riflagan olimalardan biri Sh.A.Dusmuxamedovadir:

«Agar institutdagi faoliyatimizda ustozni talabchan, uzoqni ko‘ra oladigan va sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydigan, buyuk olimlarga xos fazilatlarning barchasi

mujassam boʻlgan olim sifatida koʻrgan boʻlsam, kafedra a’zolarimiz bilan koʻp marotaba xonadonlariga borganimizda respublikamizning har bir psixolog olimi, doktoranti, har bir aspiranti, kafedrasi a’zolarining ilmiy ishlarini, olib borayotgan faoliyatlarini, hayotlarini bilgan va befarq boʻlmagan holda jonkuyarlik bilan qiziqadigan, beminnat maslahat va yordam berishga doim tayyor turadigan chin ma’nodagi olim, ustoz va inson ekanliklariga amin boʻlganman.

Mehribon, pazanda Maftuxa opamizning biz kafedra a’zolarini mehmon qilishlari va har birimizning hayotimiz bilan qiziqishlarni koʻrib, bu ikki inson qalbi ota va onalarcha mehr bilan limmo-lim toʻlaligiga guvoh boʻlganmiz. Hayotlarining oxirgi yillarida hamma kafedra a’zolariga oʻzlarining bebaho xazinalarini – umrlari davomida toʻplagan kitoblarini tarqatishlari bilan oʻzlaridan keyin ham oʻrgatadigan, maslahat beradigan ilm buloqlarini tashlab ketgandek boʻldilar» (Dusmuxamedova Sh., 2018: 103).

Bizningcha, M.G.Davletshinlar oilasi juda mehmondoʻst boʻlishgan, ularning mehmondoʻstliklari haqida koʻpchilik shogirdlari ta’kidlashgan. Hattoki, ishini bir lahzaga koʻrsatishga kelgan shogirdlarni ham bir piyola choy ichmay chiqsangiz, yaxshi himoya qila olmaysiz deya, tuz totmasdan chiqib ketmaslikka undashgan.

Tadqiqotda ishtirok etganlar M.G.Davletshinni «altruist» inson sifatida baholashgan, bu indikatorning takrorlanish chastotasi 0,15 ga teng. Ushbu fikrga misol sifatida N.Odilovaning quyidagi fikrlarini keltirish oʻrinli:

«Agar «Siz uchun komil inson kim?», deb soʻrasalar, men ikkilanmasdan M.G.Davletshin deb aytgan boʻlar edim. Chunki, ularda komillikka xos boʻlgan barcha fazilatlar mujassamlashgan edi. Jumladan, mas’uliyatlilik, mehnatsevarlik, kelajakni oldindan koʻra bilish, xolislik, sabrlilik, voqea-hodisalarni obyektiv baholash, empatiya, altruizm, insonparvarlik va boshqa qator xislatlarni sanab oʻtish mumkin. Shu bilan birga ustoz 50ga yaqin shogirdlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilgan, ularning oʻz vaqtida dissertatsiyalarini yoqlashlariga bosh-qosh boʻlgan insondir. Ularda shogirdlariga nisbatan talabchanlik hamda mehribonlikning me’yori kuzatilardi» (Odilova N., 2023: 18).

Fikrimizcha, yuqoridagi misoldan M.G.Davletshinning barchaga birday begʻaraz yordam koʻrsatganligi, evaziga hech narsa kutmaganini payqash qiyin emas. Qayergadir borish kerak boʻlganda, shogirdlari taksida borishni taklif etganlarida, faqat pulini oʻzim toʻlasam, taksiga chiqishga roziman der ekan.

Sinaluvchilar M.G.Davletshinni «Osiyoda yagona professor», «maqsadga intiluvchan», «boshqalarni muhokama qilmaslik, gʻiybatdan uzoq» shaxs sifatida ta’riflashgan, bu indikatorning takrorlanish chastotasi 0,15 ga teng. Bularga E.N.Sattarovning quyidagi fikrlari misol boʻla oladi.

«Domla hech qachon birovning gʻiybatini qilmas, bunday mavzudagi suhbatni tinglamas ham edilar, mabodo uyda ayollar tomonidan kimdir toʻgʻrisida fikr bildirilib

boshlansa, chiroyli va tushunarli qilib nigoh tashlab qo'yar edilar, bu esa suhbatni boshqa mavzuga o'tkazishga go'yoki ko'rsatma edi. Domla hayotda sodir bo'lgan qiziqarli voqea-hodisalarni gapirish va tinglashni yoqtirar edilar, u kishida yumor hissi kuchli edi. O'ylaymanki, hurmatli ustozimiz Muhammyed Galimovichning mazmunli umri va hayot tarzi hozirgi kunda yoshlarimiz uchun ibrat bo'la oladigan andoza sifatida xizmat qila oladi» (Sattarov E., 2018: 41).

Fikrimizcha, M.G.Davletshin 20 yildan ortiq, na faqat O'zbekistonda balki O'rta Osiyoda yagona professor bo'lgani bilan maqsadga intiluvchan bo'lishi bilan bir qatorda, shogirdlarini va hamkasblarini ham doimo olg'a intilishga ruhlantirgan.

Sinaluvchilar «sabrlilik», «yuksak empatiya», «havas obyekti», «jussasi kichik, salobati yuksak» shaxs sifatida baholashgan, bu indikatorlarning takrorlanish chastotasi 0,1 ga teng.

Z.T.Nishanovaning «M.G.Davletshin havas obyekti» maqolasidagi quyidagi fikrlar ham yuqorida keltirilgan ustozning shaxs xislatlarini to'ldiradi.

«Ustozning hayot va ijod yo'li biz yoshlar uchun doimo namuna, hayotimizni yorituvchi yulduz, psixologik izlanishlarni tinmay o'tkazishga tayyorlantiruvchi, doimiy havas obyekti, doimiy ijodga undovchi motivdir» (Nishanova Z., 37).

Bizningcha, P.S.Ergashev, Z.T.Nishanova maqolalaridagi g'oyalar yuqoridagi fikrlarning isboti, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqoridagi kontent tahlil asosida M.G.Davletshinning olim va shaxs sifatida portretini yaratishga harakat qildik.

Tadqiqotda ustoz M.G.Davletshin haqida ko'proq ma'lumotlar yig'ish uchun uning zamondoshlari va shogirdlaridan jami 30 nafar respondentlardan intervyu ham olindi. Ustoz bilan uzoq yillar birga ishlagan hamkasbi S.X.Jalilova: «M.G.Davletshin oliyjanob xislatlar egasi edi. M.G.Davletshin darajasiga hamma ham yeta olmaydi, juda halol olim edilar. Buni har yili o'tkaziladigan respublika fan olimpiadalarida ko'p kuzatganmiz. Bizga DAK raisligiga kelganlarida har birimizga shaxsiy kutubxonalaridagi kitoblarini sovg'a qilganlar. 11-noyabrni har yili intizorlik bilan kutardik. Bu kun respublika psixologlarining bayrami sifatida M.G.Davletshin xonadonida, ularning tavallud kunlarida keng nishonlanardi».

- Shunday qilib, M.G.Davletshin 250 dan ortiq ilmiy-uslubiy nashrlar muallifi. Shuningdek, internetda elibrary.ru/page_error.asp saytida M.G.Davletshin asarlariga 158 ta iqtiboslar keltirilgan.
- M.G.Davletshin va uning ilmiy ijodi haqida ma'lumotlar dunyoga mashhur ijtimoiy tarmoq sahifalarida o'z aksini topgan:
- https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Davletshin.
- https://uzpedia.uz/pedia/muhammad_davletshin
- https://malumot.ru/davletshin-muhammad-gabdulgalimovich/

- Innovative-academiy –RSC
- https://psy.su/persons/100_psihologov_rossii/130253/
- https://megabaza.net/fr/davletshin-muhammad-gabdulgalimovich-haqida-malumot-bilib-oling/ensiklopediya-uz/

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, empirik izlanishlar natijalaridan quyidagi xulosalarni bildirish o‘rinli:

1. Kontent analiz metodidan nafaqat ijtimoiy psixologiyada, balki shaxs psixologiyasi, psixologiya tarixi bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlarda ham keng foydalanish mumkin.

2. Olim tavalludiga bag‘ishlab, turli yillarda TDPUda o‘tkazilgan anjumanlarda shogirdlar va zamondoshlar tomonidan ustoz haqida yozilgan maqolalarni kontent tahlil qilish, zamondoshlar va shogirdlar bilan o‘tkazilgan intervyularni kontent analiz qilish asosida M.G.Davletshin shaxsiga xos ijobiy xislatlar aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dusmuxamedova Sh. (2018). Bag‘ri keng olim va mehribon ustoz // Psixologiya, № 3.

2. Ergashev P. (2013). Ustozni xotirlab: Yodnomaga aylangan yon daftarcha qaydlari // Zamonaviy oliy malakali mutaxassislarni tayyorlashda psixologiya fanlarining o‘rni va ahamiyati: M.G.Davletshinning 90-yillik yubileyiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDPU.

3. Maxsudova M. (2018). Ustozni eslab // Psixologiya, № 3.

4. Nishanova Z. (2023). Ustoz M.G.Davletshinni xotirlab // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi, № 4.

5. Nishanova Z. (2018). M.G.Davletshin - havas obyekti sifatida // Zamonaviy psixologiya fanining amaliy imkoniyatlari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU.

6. Odilova N. (2023). Hayoti saboq ustoz // Yosh avlodning psixologik salomatligi – davrat siyosatining ustuvor vazifasi: M.G.Davletshinning 100-yillik yubileyiga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent.

7. P. Ergashev, A. Ubaydullaev. (2008). Ustozdan nimalarni o‘rgandik va o‘rganayapmiz? // Psixologiya XXI asr boshlarida: M.G.Davletshinning 85 yillik tavallud ayyomiga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU.

8. Sattarov E. (2018). Yaxshilikka baxsh etilgan umr // Zamonaviy psixologiya fanining amaliy imkoniyatlari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU.

9. Xolmatov A. (2020). M.G.Davletshin va zamonaviy psixologiya rivoji // Oʻzbekiston psixologiya jurnali, № 2.

10. Qodirov K. (2023). Muxammad Davletshin: Bir shogird xotirasidan lavhalar. // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi, № 4.

**REFERENCES**

1. Dusmuxamedova Sh. (2018). Bagʻri keng olim va mehribon ustoz // Psixologiya, № 3. (In Uzbek)

2. Ergashev P. (2013). Ustozni xotirlab: Yodnomaga aylangan yon daftarcha qaydlari // Zamonaviy oliy malakali mutaxassislarni tayyorlashda psixologiya fanlarining oʻrni va ahamiyati: M.G.Davletshinning 90-yillik yubileyiga bagʻishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDPU. (In Uzbek)

3. Maxsudova M. (2018). Ustozni eslab // Psixologiya, № 3. (In Uzbek)

4. Nishanova Z. (2023). Ustoz M.G.Davletshinni xotirlab // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi, № 4. (In Uzbek)

5. Nishanova Z. (2018). M.G.Davletshin - havas obyekti sifatida // Zamonaviy psixologiya fanining amaliy imkoniyatlari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU. (In Uzbek)

6. Odilova N. (2023). Hayoti saboq ustoz // Yosh avlodning psixologik salomatligi – davrat siyosatining ustuvor vazifasi: M.G.Davletshinning 100-yillik yubileyiga bagʻishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. (In Uzbek)

7. P. Ergashev, A. Ubaydullaev. (2008). Ustozdan nimalarni oʻrgandik va oʻrganayapmiz? // Psixologiya XXI asr boshlarida: M.G.Davletshinning 85 yillik tavallud ayyomiga bagʻishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU. (In Uzbek)

8. Sattarov E. (2018). Yaxshilikka baxsh etilgan umr // Zamonaviy psixologiya fanining amaliy imkoniyatlari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU. (In Uzbek)

9. Xolmatov A. (2020). M.G.Davletshin va zamonaviy psixologiya rivoji // Oʻzbekiston psixologiya jurnali, № 2. (In Uzbek)

10. Qodirov K. (2023). Muxammad Davletshin: Bir shogird xotirasidan lavhalar. // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi, № 4. (In Uzbek)

# TURLI YOSH DAVRLARIDA AYBDORLIK VA UYAT KECHINMALARINING TUTGAN O‘RNI

# THE ROLE OF EXPERIENCE OF GUILT AND SHAME AT DIFFERENT AGES

# РОЛЬ ПЕРЕЖИВАНИЯ ВИНЫ И СТЫДА В РАЗНОМ ВОЗРАСТЕ

**Djurakulova Dilfuza Farxodovna**
*Samarqand davlat universiteti,*
*Amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD*
*Tel.: +998 91 555-83-34*
*E-mail: dilfuzadjurakulova3@gmail.com*

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada turli yosh davrlarida aybdorlik va uyat his-tuyg‘ularining shaxs ijtimoiy-psixologik hayotidagi o‘rni keng yoritiladi. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘xshashlik va farqlari, shuningdek, ijtimoiy-psixologik mexanizmlari nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda aybdorlik va uyatning shaxs o‘z-o‘ziga munosabati, o‘z-o‘zini baholash jarayonlari, vijdon, qo‘rquv, agressiya, pushaymonlik kabi hissiyotlarga ta’siri o‘rganiladi. Maqola ushbu his-tuyg‘ularning turli yosh bosqichlarida shaxsning ijtimoiy munosabatlari, axloqiy me’yorlarga rioya qilishi va majburiyatlariga ta’sirini ko‘rib chiqadi. Aybdorlik va uyat hislari shaxsning o‘z xatolarini tushunish va tuzatish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari aybdorlik va uyatning shaxs rivojlanishidagi muhim rolini tushunishga yordam beradi va ularning ijtimoiy muhitdagi o‘rnini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar**: *Ayb, aybdorlik hissi, uyat, vijdon, xato, qo‘rquv, agressiya, ijtimoiy hissiyot, majburiyat, o‘z-o‘ziga munosabat, o‘z-o‘zini baholash, xo‘rlanish, kamsitilish, pushaymonlik.*

**Abstract**: This article comprehensively examines the role of guilt and shame emotions in an individual’s socio-psychological life across various age periods. Their unique characteristics, similarities, and differences, as well as socio-psychological mechanisms, are analyzed from both theoretical and practical perspectives. The study explores the impact of guilt and shame on self-relation, self-esteem processes, and their connection to emotions such as conscience, fear, aggression, and regret. The article addresses the influence of these emotions on an individual’s social relationships, adherence to moral norms, and obligations across different age stages. Guilt and shame play a significant role in understanding and correcting one’s mistakes. The research findings contribute to understanding the crucial role of guilt and shame in personal development and their significance in the social environment.

**Key words**: *guilt, guilt, shame, conscience, mistake, fear, aggression, social feeling, commitment, self-esteem, self-esteem, humiliation, discrimination, remorse.*

**Аннотация**: В данной статье всесторонне рассматривается роль эмоций вины и стыда в социально-психологической жизни личности на разных возрастных этапах. Анализируются их уникальные характеристики, сходства и различия, а также социально-психологические механизмы с теоретической и практической точек зрения. Исследование изучает влияние вины и стыда на отношение к себе, процессы самооценки и их связь с такими эмоциями, как совесть, страх, агрессия и сожаление. Статья посвящена воздействию этих эмоций на социальные отношения личности, соблюдение моральных норм и обязанностей в различные возрастные периоды. Чувства вины и стыда играют важную роль в осознании и исправлении ошибок. Результаты исследования способствуют пониманию ключевой роли вины и стыда в развитии личности и их значения в социальной среде.

**Ключевые слова**: *вина, вина, стыд, совесть, ошибка, страх, агрессия, социальное чувство, приверженность, самооценка, самоуважение, унижение, дискриминация, раскаяние.*

## KIRISH

Aybdorlik hissi inson psixikasining muhim tarkibiy qismi boʻlib, u shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va axloqiy ongining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Psixologik adabiyotlarda aybdorlik hissi axloqiy oʻzini oʻzi nazorat qilish va xulq-atvorni tartibga solish mexanizmi sifatida qaraladi. Lekin ushbu hisning turli yosh davrlarida qanday shakllanishi va namoyon boʻlishi hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Aybdorlik hissining shakllanishi tarbiya usullari, ota-ona va pedagoglarning munosabati bilan bogʻliq boʻlib, notoʻgʻri yondashuv bolaning oʻziga past baho berishi, haddan tashqari itoatkorlik yoki aksincha, agressiya shaklida namoyon boʻlishiga sabab boʻlishi mumkin. Oʻsmirlik davrida identifikatsiya jarayonlari va ijtimoiy taʼsirlar kuchaygani sababli aybdorlik hissi yanada chuqurlashadi.

Oʻsmirlar oʻz qadr-qimmati, shaxsiy mustaqillik va jamiyat oldidagi masʼuliyat oʻrtasidagi ziddiyatni boshdan kechiradilar. Aybdorlik hissi yetuk shaxsning oʻzini anglash, qaror qabul qilish va axloqiy normalarga moslashish jarayonida muhim rol oʻynaydi. Uning haddan tashqari kuchayishi depressiya, oʻz-oʻzini ayblash, motivatsiya yoʻqolishi kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Inson hayotiga baho berishda aybdorlik hissi oʻtmishdagi xatolar, bajarilmagan majburiyatlar va afsuslanishlar bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi. Bu esa psixologik stress, yolgʻizlik hissi va hatto depressiv holatlarga sabab boʻlishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi odamlarning aybdorlik hissini boshqarishiga ta’sir qilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik bosim va axloqiy me’yorlarning keskin o‘zgarishi shaxsning aybdorlik hissi bilan kurashish mexanizmlarini yangidan shakllantirish zaruratini tug‘diradi. Shu sababli, bu mavzuni chuqur o‘rganish va turli yosh guruhlarida aybdorlik hissining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jahon ta’lim va ilmiy markazlarida aybdorlik hissini korreksiya qilish, aybdorlik kechinmasining inson xulqiga tabiiy regulyativ (boshqaruvchi), adaptatsion (muvofiqlashtiruvchi) ta’sirining optimal darajasini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada shaxs xulqidagi aybdorlik hissi tufayli emotsional beqarorlik namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus ilmiy tadqiq etish hamda zarur ilmiy xulosalar ishlab chiqish ayni davrning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, dunyodagi global o‘zgarishlar davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘ymoqda hamda mazkur yo‘nalishlarda zarur huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi. «Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish»ga doir vazifalar belgilangan bo‘lib, aybdorlik hissining yuzaga kelish sabablari, inson normal hayotiga ta’siri yo‘nalishlaridagi izlanishlarni yangicha ilmiy yondashuviga asos bo‘la oladi (Дубравин Д., 2019: 95).

Aybdorlik va uyat tuyg‘ulari bir qator fanlarning, jumladan, ilohiyot, falsafa, psixologiya va psixoanaliz kabi fanlarning o‘rganish obyekti bo‘lib hisoblanadi, shuningdek adabiyotda ham keng tarqalgan mavzulardan biridir. Bu bizni foydali hayot kechirishimizga xalaqit beradigan mayda-chuyda his-tuyg‘ular yoki jiddiy psixologik cheklovlar ham bo‘lishi mumkin.

Jamiyat va madaniyat kabi murakkab ijtimoiy tizimlarda odamlarning ijtimoiy xatti-harakatlarini tartibga solish jarayonida aybdorlik va uyat tuyg‘ulari muhim rol o‘ynaydi. Aybdorlik va uyat – bu faqat ijtimoiy hissiyotlar sohasiga taalluqli bo‘lgan psixik hodisalardir. Ularning manbayi va harakatlantiruvchi kuchi esa ijtimoiylashuv jarayonidagi shaxslardir. Aybdorlik va uyat hislarining ijtimoiy psixologiyadagi muhim o‘rni, uning faqat ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki shaxslar va butun guruhlar munosabatlariga ta’sir qilishi bilan ham bog‘liqdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Psixologiyada uyat va aybdorlik tuyg‘ulari ko‘pincha birgalikda muhokama qilinadi, ularning o‘xshashlik va farqli tomonlari hamda mumkin bo‘lgan o‘zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Olimlardan birining ta’kidlashicha, ular bir xil ta’sirga

ega boʻlishi kerak boʻlgan narsalarning turli xil ifodalanishidir, ya'ni, aybdorlik – bu axloqiy uyatdir.

Umuman olganda, aybdorlik insonning oʻz xatti-harakatlari bilan chegaralarni yoki qoidalarni buzishi bilan bogʻliq boʻlsa, uyat hissi esa oʻzini-oʻzi salbiy baholash bilan bogʻliqdir. Aybdorlik va uyatni keltirib chiqaradigan holatlar koʻpincha bir xil yuzaga kelsa-da, ammo ular turli xil kechinmalarning hosilasi ekanligi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda ham psixologlar oʻrtasida aybdorlik hissining bajaradigan vazifalari yuzasidan umumiy bir fikr mavjud emas. Aksariyat psixologlar, insoniyat jamiyatida aybdorlik hissi boʻlmasa unda normal yashash va rivojlanish mumkin emas, deb hisoblashadi. Ba'zi psixologlar aybdorlik hissi bizning «ichimizdagi vahshiy hayvonni» – ya'ni gʻazabimizni, hirsimizni va ochkoʻzligimizni jilovlashga yordam beradi, deb ta'kidlashadi. Boshqalari esa, biz oʻz xatolarimizdan saboq olamiz va aybdorlikni boshdan kechirganimiz sababli, keyinchalik xuddi shunday vaziyatga tushgan vaqtimizda biz jazolangan, pushaymon boʻlgan hamda vijdon azobidan qiynalgan vaqtimizni eslab, oʻzimizni salbiy xatti-harakatlar qilishdan saqlaymiz, deb hisoblashadi. Va nihoyat, yana bir qarash mavjudki, unga koʻra aybdorlik hissi bizni oʻqishda, ishda, farzandlarimiz, turmush oʻrtogʻimiz, ota-onamiz bilan boʻlgan munosabatda hamda jamiyat oldidagi majburiyatlarimizni bajarishga undaydigan, turtki beruvchi omil deb hisoblanadi.

Qadimgi falsafiy fikrlar doirasida uyat va aybdorlik hislari jamoatchilik fikridan qoʻrqish bilan bogʻliq boʻlib, agar shaxsning xulq-atvori jamiyat tomonidan qabul qilingan normalarga mos kelmasa unda ushbu shaxsga nisbatan jiddiy hukm chiqarilishi mumkin boʻlgan. G.G.Matyushin oʻzining «Uyat va vijdon oʻz-oʻzini baholashning axloqiy shakllari sifatida» nomli asarida Platon va Aristotelga murojaat qiladi, zero ular aybdorlik va uyat hissining mohiyatini, shaxsning oʻzi haqidagi jamoatchilik fikridan hamda «ayrim nomussizliklardan qoʻrquvi» orqali ochib berishadi (Матюшин Г., 1998). Aristotel aybdorlik va uyatni axloqiy nuqtai nazardan ham koʻrib chiqadi hamda ularning ijtimoiy mohiyatini alohida ta'kidlaydi. Demokrit uyatning ikki turini ajratib koʻrsatadi, bular: shaxsning boshqa odamlar oldidagi va oʻzi oldidagi uyat hislaridir. Bu yerda, birinchi holatda shaxsning uyatli xatti-harakati boshqalarga ham ma'lum boʻlsa, ikkinchisida esa bu qilmishni faqat uni sodir etgan insongina biladi. Matyushin shaxsning oʻzi oldidagi uyat hamda zamonaviy aybdorlik tushunchasi oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik mavjudligi haqida taxmin qiladi.

Aybdorlik va uyat singari bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan hissiyotlarni farqlash masalasini, ushbu hislarning kelib chiqishi haqidagi tadqiqotlarni tahlil qilishdan boshlash kerak.

V.N.Kunitsina uyat va aybdorlik hislari oʻzini-oʻzi baholash bilan bogʻliq boʻlgan turli xil xavotirlanish shakllari deb yozadi (Куницына В., 1991). Uyat bu

tashqi baholashga yoʻnaltirilgan boʻlib, shaxsning oʻz obroʻsi uchun xavotirlanishi, ya'ni qachonki inson oʻzini boshqalar undan kutgan talablarga javob bermasligini his qilsa yuzaga keladi. Aybdorlik esa bu shaxsning oʻzini oʻzi baholashiga yoʻnaltirilgan boʻlib, shaxsiy fazilatlar haqida qaygʻurish, vijdon azobi bilan birgalikda kechadi hamda yuqori darajadagi axloqiy ongni tavsiflaydi. Tadqiqotchining fikriga koʻra qoʻrquv – bu obyektiv xavotir, uyat – ijtimoiy xavotir, aybdorlik esa – axloqiy xavotir boʻlib hisoblanadi (Льюис М., 1993: 563).

K. Muzdibayev oʻzining «Aybdorlik va uyatni boshdan kechirish» asarida ushbu hissiyotlarning bir-biridan farqiga alohida e'tibor qaratadi. U «uyat» va «aybdorlik» bir-biriga yaqin tushunchalar ekanligini, chunki ular oʻzaro oʻxshash boshqaruvchilik vazifalarini bajarishini ta'kidlab oʻtadi. Ammo ular shaxsning butunlay boshqa-boshqa kechinmalarini aks ettiradi. Agar, aybdorlik hissi insonda biron bir me'yorlarni, qoidalarni, va'dalarni buzgan, majburiyatlarni bajarmagan vaqtda yuzaga kelsa, uyat esa aybdorlikka nisbatan kengroq tushuncha boʻlib, shaxsning butun yaxlitligiga taalluqlidir hamda qoida buzilishi bilan bogʻliq emas. Aybdorlikni his qilayotgan kishi oʻz e'tiborini ushbu vaziyatni yuzaga keltirgan harakatlar va oʻz qilmishlariga qaratsa, uyalgan kishi esa oʻzini, oʻzining «men»ini tahlil qilishga e'tibor qaratadi (Дубравин Д., 2019: 95). Uyat xatti-harakat yoki xulq-atvorning nomuvofiqligi tufayli yuzaga keladi va oʻz-oʻzini anglash bilan bogʻliq. Demak, ushbu hodisalarni oʻrganishda ularning farqlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda aybdorlik va uyat hissi psixologik jihatdan oʻrganildi. Soʻrov metodlari orqali respondentlar «Aybdorlik bu...» va «Uyat bu...» kabi savollarga javob berdilar. Psixodiagnostik metodlar sifatida K. Kugler va V. Jonsning «Aybdorlik hissi soʻrovnomasi», J.P. Tangney'ning TOSCA metodikasi, J. Rotter'ning «Lokus nazorat» va Fetiskin va boshqalarning «Altruizm-egoizm» metodikalari qoʻllanildi. Bu metodlar aybdorlik va uyatning psixologik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Biz shaxsda kechadigan aybdorlik va uyat hislarini oʻrganish maqsadida I.A.Belik tomonidan ishlab chiqilgan va biz tomonimizdan modifikatsiya qilingan «Aybdorlik hissini oʻrganish» soʻrovnomasidan foydalandik. Ushbu soʻrovnomada «aybdorlik hissi» fenomeni toʻgʻrisidagi yashirin tasavvurlarni oʻrganish uchun 8 ta savoldan iborat anketa tuzilgan boʻlib, respondentlardan dastlab quyidagilarga, ya'ni:

1) «Aybdorlik hissi bu ...» iborasini (tugallanmagan jumla) davom ettiring;

2) aybdorlik hissi va uning kechinmalarini ta'riflash uchun qanday soʻzlardan foydalangan boʻlar edingiz;

3) siz oʻzingizni aybdor his qilasizmi, qachon;

4) siz hammadan ko‘ra ko‘proq kimni oldida o‘zingizni aybdor his qilasiz; kabi savollarga javob berish so‘raldi.

Birinchi savolga, ya’ni «aybdorlik hissi – bu» iborasini to‘ldiring degan savolga sinaluvchilarning 36% «o‘zgalarni sababsiz ranjitish, xato qilish natijasida kelib chiqadigan kechinma» deb javob berishgan bo‘lsa, 24% «qilgan ishidan pushaymonlik, uyalish», 16% «xatolardan afsuslanish va uni tuzatish istagi», 14% «ruhiy bezovtalik, vijdon azobi» deb va qolgan 10% «o‘zini kechira olmaslik, qo‘rquv hissi» deb javob berishdi. (1-rasm)




**1-rasm. «Aybdorlik hissi – bu» iborasini to‘ldiring savoliga sinaluvchilarning javobi**

Ushbu natijalardan ko‘rinib turibdiki, respondentlar asosan aybdorlik hissini o‘zgalarni sababsiz ranjitish, xato qilish natijasida kelib chiqadigan kechinma, qilgan ishidan pushaymonlik, uyalish, xatolardan afsuslanish va uni tuzatish istagi, ruhiy bezovtalik, vijdon azobi, o‘zini kechira olmaslik hamda qo‘rquv hissi bilan birgalikda assotsiatsiya qilishar ekan. Ayniqsa, eng katta ko‘rsatkich shaxsning o‘zgalarni sababsiz ranjitishi, biror-bir xato qilishi natijasida unda yuzaga keladigan kechinma (36%), qilgan noo‘rin ishidan yoki xatti-harakatidan pushaymonlik hamda uyalishi (24%) natijasida yuzaga kelishini ta’kidlab o‘tishgan. Demak, shaxs o‘zida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan kechinmalarni his qilganida ular bilan birgalikda har doim aybdorlikni ham boshdan kechirar ekan.

Sinaluvchilardan aybdorlik hissi va uning kechinmalarini ta’riflash uchun qanday so‘zlardan foydalangan bo‘lar edingiz deb so‘ralganda ularning 29% «pushaymonlik», 25% «xafa bo‘lish, tushkunlik, xavotir», 21% «afsuslanish», 11% «vijdon azobi», 7% «boshqalardan o‘zini olib qochish hamda qolgan 7% «sharmandalik, uyalish» deb javob berganliklarini ko‘rishimiz mumkin. (2-rasm)




**2-rasm. Aybdorlik va kechinmalarini ta’rifi**

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarga ko‘ra, aybdorlikni boshdan kechirayotgan shaxs u bilan birgalikda pushaymonlik, xafa bo‘lish, tushkunlik, xavotir, afsuslanish, vijdon azobi, boshqalardan o‘zini olib qochish, sharmandalik, uyalish kechinmalarini ham his qilar ekan. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, inson aybdorlikni his qilganda u bilan deyarli har doim pushaymonlik (29%), xafa bo‘lish hamda tushkunlik (25%) birgalikda boshdan kechirilar ekan.

Siz o‘zingizni aybdor his qilasizmi, qachon deb berilgan savolga esa sinaluvchilarning ko‘pchiligi, ya’ni 68% «kimnidir dilini og‘ritsam, o‘zgalarni nohaq xafa qilsam» deb javob berishgan bo‘lsa, 14% «boshlagan ishimni oxiriga yetkaza olmasam», 11% «yordamga muhtoj odamlarga yordam bera olmasam» deb va qolgan 7% esa «biron gunoh ish qilib qo‘ysam» deb javob berishdi. (3-rasm)




**3-rasm. Shaxsda aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi vaziyat.**

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, shaxs kimnidir dilini og‘ritib qo‘yganda, o‘zgalarni nohaq xafa qilganda, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaganda, yordamga muhtoj odamlarga yordam bera olmaganda yoki biron gunoh ish qilib qo‘yganda o‘zini aybdor his qilar ekan. Ayniqsa o‘zgalarning dilini og‘ritish yoki nohaq xafa qilish (68%) aybdorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omil sifatida qaralgan.

So‘rovnomaning to‘rtinchi savoliga ya’ni, siz hammadan ko‘ra ko‘proq kimni

oldida oʻzingizni aybdor his qilasiz deb berilgan savolga sinaluvchilarning 56% «ota-onamni va yaqinlarimni» deb javob berishgan boʻlsa, 16% «hech kimni oldida oʻzimni aybdor his qilmayman» deb, 13% «ollohni oldida», 9% «faqat oʻzimni» deb va qolgan 6% «men xafa qilgan insonlarni oldida» deb javob berganliklari tahlil qilindi. (4-rasm) Tadqiqot natijalariga koʻra respondentlarning asosiy qismi oʻzlarini ota-onalari va yaqinlari (56%) oldida aybdor his qilishar ekan. Bu esa bir tomondan oʻzbek mentalitetiga xos boʻlgan sifat boʻlib, farzandlar har doim ota-onalari oldida oʻzlarining turli majburiyatlari borligini his qilishsa, ikkinchi tomondan aybdorlik hissi bolalarga ularning yoshligidayoq ota-onalari va yaqin insonlari tomonidan singdirilishi sababli, bolalar koʻp hollarda oʻzlarini aynan mana shu insonlar oldida aybdor his qilishadi.




**4-rasm.**

Bundan tashqari, oʻtkazilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, koʻpincha odamlar aybdorlik hissining aniq ta’rifini bera olmaydilar hamda uni uyat tushunchasi bilan almashtirdilar. Uyat va aybdorlik bir-biri bilan chambarchas bogʻliq tushunchalar boʻlib, koʻpincha bir vaqtning oʻzida paydo boʻlganligi sababli, uyat fenomeni bilan bogʻliq savollar ham soʻrovnomaga kiritilgan:

1) «Uyat bu ....» iborasini (tugallanmagan jumla) davom ettiring;

2) uyat hissi va uning kechinmalarini ta’riflash uchun qanday soʻzlardan foydalangan boʻlar edingiz;

3) siz uyalasiz, qachonki;

4) siz uyat hissini boshdan kechirayotganda, oʻzingizda qanday kechinmalar, fikrlar yuzaga kelishini eslab koʻring.

Soʻrovnomaning birinchi savoliga, ya’ni «uyat hissi – bu» iborasini toʻldiring deb soʻralganda sinaluvchilarning 34% «oʻziga yarashmaydigan xatti-harakat qilish, noqulay ahvolga tushib qolish» deb javob berishgan boʻlsa, 23% «sharmandalik va qoʻrquv hissi” deb, 20% «oʻz aybidan xijolat boʻlish, aybdorlik hissini boshdan kechirish», 14% «qilgan ishini tahlil qilish, afsuslanish» deb va qolgan 9% «normal ijtimoiy va psixologik holat» deb ta’rif berishgan. (5-rasm)




**5-rasm. «Uyat hissi – bu... » iborasini to‘ldiring savoliga sinaluvchilarning javobi.**

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning ko‘pchiligi uyat hissini insonlarning o‘ziga yarashmaydigan xatti-harakat qilishi, ularning turli vaziyatlarda noqulay ahvolga tushib qolishi (34%), sharmandalik va qo‘rquv hissi (23%) hamda shaxsning o‘z aybidan xijolat bo‘lishi, aybdorlik hissini boshdan kechirishi (20%) bilan birgalikda assotsiatsiya qilishgan. Bu esa, yuqorida aytib o‘tgan fikrimiz, ya’ni aybdorlik va uyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalar bo‘lganligi uchun ko‘pchilik insonlar ularni bir-biri bilan almashtirib yuborishlarini isbotini ko‘rsatadi. Sinaluvchilardan uyat hissi va uning kechinmalarini ta’riflash uchun qanday so‘zlardan foydalangan bo‘lar edingiz deb so‘ralganda ularning 42% «sharmandalik va xijolat tortish» deb javob berishgan bo‘lsa, 31% «yuzni qizarishi, gapira olmaslik” deb, 18% esa «afsuslanish, pushaymonlik, o‘zidan nafratlanish» hamda qolgan 9% «boshqalar oldida aybdor bo‘lish, tushkun kayfiyat» deb javob berishganini ko‘rishimiz mumkin. (6-rasm)




**6-rasm. Uyat hissi va uning kechinmalari ta’rifi**

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning ko‘pchiligi inson uyat hissini boshdan kechirganda u bilan birgalikda sharmandalik va xijolat tortish (42%), yuzni qizarishi, gapira olmaslik (31%), afsuslanish, pushaymonlik va o‘zidan nafratlanish (18%) kechinmalarini birgalikda boshdan

kechirishlarini ta'kidlab o'tishgan. Respondentlarimiz yuqorida aybdorlik hissi va uning kechinmalariga ta'rif berishganida ham asosan ushbu kechinmalarni aybdorlik bilan birgalikda kechirilishini aytib o'tishgan edi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, aybdorlik va uyat o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lganligi uchun, ular bilan birgalikda kechiriladigan kechinmalar ham deyarli o'xshash.

So'rovnomaning uchinchi savoliga ya'ni «siz uyalasiz, qachonki» deb so'ralganda respondentlarning 38% «biror ayb yoki yomon ish qilsam» deb javob berishgan bo'lsa, 24% «noqulay vaziyatga tushib qolsam», 21% «boshqalar oldida kamsitilsam yoki hamma birdan qarasa», 10% «nojo'ya so'z aytsam» deb va qolgan 7% esa «ota-onamga munosib inson bo'lolmasam» deb javob berishdi. (7-rasm)




**7-rasm. Shaxsda uyatni yuzaga keltiruvchi vaziyat**

Natijalardan ko'rinib turibdiki, respondentlar asosan uyatni yuzaga keltiruvchi vaziyat sifatida shaxs tomonidan biror ayb yoki yomon ish qilinganda (38%), o'z xatti-harakati tufayli noqulay vaziyatga tushib qolganda (24%), boshqa kishilar oldida kamsitilganda yoki ko'pchilik birdaniga qaraganida (21%) yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatni ko'rsatishgan. Bu esa aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi vaziyatdan bir muncha farq qilib asosan tashqi baholashga yo'naltirilgan bo'ladi, bundan tashqari shaxsning o'z obro'si uchun xavotirlanishi, ya'ni qachonki inson o'zini boshqalar undan kutgan talablarga javob bermasligini his qilsa yuzaga keladi. Aybdorlik esa bu shaxsning o'zini o'zi baholashiga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsiy fazilatlar haqida qayg'urish, vijdon azobi bilan birgalikda kechadi hamda yuqori darajadagi axloqiy ongni tavsiflaydi. Sinaluvchilardan siz uyat hissini boshdan kechirayotganda, o'zingizda qanday kechinmalar, fikrlar yuzaga kelishini eslab ko'ring deb so'ralganda ularning 43% «afsuslanaman, vijdonim qiynaladi, o'zimdan nafratlanaman» deb javob berishgan bo'lsa, 31% «yuzim qizaradi, xijolat bo'laman», 18% «qilgan xatoyimni tahlil qilaman va boshqa takrorlamaslikka harakat qilaman» deb va qolgan 8% esa «odamlardan o'zimni olib qochaman» deb javob berishdi. (8-rasm)




**8-rasm. Shaxs uyat hissini boshdan kechirayotganda yuzaga keladigan kechinmalar**

Yuqorida qayd etilgan natijalar shuni koʻrsatmoqdaki, shaxs uyat hissini boshdan kechirayotganda u bilan birgalikda afsuslanish, vijdon azobi, oʻzidan nafratlanish (43%), yuzning qizarishi, xijolat boʻlish (31%) , bundan tashqari qilgan xatosini tahlil qilib, boshqa takrorlamaslikka harakat qilish (18%) kechinmalari ham boshdan kechiriladi. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, uyat va aybdorlik hislari boshdan kechirilayotganda ular bilan birgalikda kechiriladigan kechinmalar deyarli bir-biriga oʻxshasa-da, lekin, uyat hissi ijtimoiy kechinma sifatida, aybdorlik hissi esa axloqiy kechinma sifatida namoyon boʻladi.

«Aybdorlik» va «uyat» fenomenlarini taqqoslaganda, respondentlarning ushbu his-tuygʻularga boʻlgan hissiy munosabati quyidagi baholash tizimi yordamida baholandi:

«-2» - keskin salbiy (dahshatli, mudhish, vayron qiluvchi)

«-1» - oʻrtacha salbiy (tashvish, bezovtalik, noqulaylik)

«0» - neytral (kechinma, burch, majburiyat)

«1» - oʻrtacha neytral (oʻzgarishni istash, bartaraf qilish)

«2» - keskin ijobiy (konstruktiv, ragʻbatlantiruvchi)




**9-rasm. Aybdorlik hissining tarkibiy tuzilishi**

Bundan tashqari tadqiqot jarayonida sinaluvchilarga «aybdorlikni his qilayotganda qanday yoʻl tutasiz» degan savol bilan murojaat qilinib, ushbu savolga ular beradigan javoblar tartibi hamda shkalasi taklif qilindi. Biroq bu anketa savoliga tegishli oʻn bitta javoblar varianti ham mavjud boʻlib respondentlar ushbu javob variantlariga «deyarli hech qachon», «juda kam holatlarda», «gohida», «tez-tez», «har doim» koʻrinishidagi shkalalar asosida javob berishi kerak edi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Respondentlarning ushbu shkalalar asosida bergan javoblari psixologik hodisa sifatida aybdorlikning tuzilishini ajratib koʻrsatishga imkon berdi. Aybdorlik tarkibiga quyidagilar kiradi: hissiy komponent (barcha javoblarning 35%), unda disforik xarakterdagi kechinmalar (depressiya, tushkunlik, azob-uqubatlar va boshqalar), afsuslanish va pushaymonlik aniq kuzatiladi; kognitiv komponent (barcha javoblarning 31%), bu «xulq-atvor, xatti-harakatlarni anglash va tahlil qilish», «real», «ideal» hamda «ichki baholash» oʻrtasidagi nomuvofiqlikni anglash; motivatsion komponent (barcha javoblarning 27%), unda «hozirgi vaziyat yoki xatti-harakatni tuzatish, oʻzgartirish istagi» ustunlik qiladi. Bundan tashqari aybdorlikni boshdan kechirganda, ayrim respondentlar ichki noqulaylik hissi, yoqimsiz jismoniy his-tuygʻular, ya’ni psixosomatik komponentni (barcha javoblarning 7%), masalan, «ichki zoʻriqish», «bosh ogʻrigʻi» va «yomon uyqu»ni his qilishlarini koʻrsatdilar. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, aybdorlik hissi tarkibiga kiruvchi diskomfort, depressiya, oʻz xatti harakatini tahlil qilish, tuzatish istagi, ichki noqulaylik hissi namoyon boʻlishiga asoslanib, shaxsning oʻz xulq-atvorini anglashi muhimligiga koʻra, ularda emotsional, kognitiv, motivatsion va psixosomatik komponentlar rivojlanishiga sabab boʻladi.

**1-jadval.**

| **Aybdorlik hissining tuzilishi** | | | |
|---|---|---|---|
| Emotsional komponent | Kognitiv komponent | Motivatsion komponent | Psixosomatik komponent |
| pushaymonlik, vijdon azobi, afsuslanish, ichki diskomfort, noqulaylik, tashvishlanish, oʻzidan qoniqmaslik, emotsional zoʻriqish, depressiya, stress | oʻz xatolarini tushunib yetish, oʻz xatti-harakatini tahlil qilish, baholash, «real» va «ideal» oʻrtasidagi nomuvofiqlikni anglash | tuzatish istagi, kechirim soʻrash, vaziyatni unutishni xohlashi, kuch toʻplashi | ichki noqulaylik hissi, yoqimsiz jismoniy his-tuygʻular, bosh ogʻrigʻi, yomon uyqu, ichki zoʻriqish |

Yuqoridagi tahlildan koʻrinib turibdiki, aybdorlik hissi, asosan, jamiyatdagi axloqiy tamoyillarning buzilishi hamda shaxs oʻzining amalga oshirgan xatti-harakati notoʻgʻri ekanligini anglaganidan soʻng yuzaga kelishi, bundan tashqari, shaxsda kechadigan ushbu his vijdon azobi, pushaymonlik, afsuslanish, noqulaylik, uyat kabi ogʻriqli kechinmalar bilan birgalikda kechishi aniqlandi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, respondentlar, birinchi navbatda, aybdorlik kechinmasini masʼuliyat va burch tuygʻusi bilan bogʻlashgan boʻlishsa ham, biroq, aybdorlik oʻzidan va mavjud tartibdan norozilik hissi bilan ham bogʻliq ekanligini taʼkidlashdi, yaʼni hodisaning ontologik tabiatiga ham toʻxtalishdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-60-sonli Farmoni.

2. Djurakulova D. (2023). Aybdorlik va uyat psixologik fenomen sifatida. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti. – 132 b.

3. Djurakulova D. (2023). Shaxsda aybdorlik hissi namoyon boʻlishining psixologik xususiyatlari. Avtoreferat (PhD). – Toshkent.

4. Дэн Дубравин. (2019). Психология эмоций: чувства под контролем. – Киев: Агентство «IPIO».

5. Изард К. (2002). Психология эмоций. – Санкт-Петербург: Питер.

6. Ильин Е. (2019). Эмоции и чувства: Учебное пособие. – Санкт-Петербург: Питер.

7. Куницына В. (1991). Трудности межличностного общения (Диссертация на соискание ученой степени доктора психологических наук). – Санкт-Петербург.

8. Льюис М. (1993). Самосознательные эмоции: смущение, гордость, стыд и вина. – Нью-Йорк, – Лондон: “The Guilford Press”.

9. Матюшин Г. (1998). Стыд и совесть как формы моральной самооценки. – Москва: Изд-во МГОПУ: НОУ.

10. Муздыбаев К. (1995). Переживание вины и стыда. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский филиал Института социологии.

## REFERENCES:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-60-sonli Farmoni. (In Uzbek)

2. Djurakulova D. (2023). Aybdorlik va uyat psixologik fenomen sifatida. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti. – 132 b. (In Uzbek)

3. Djurakulova D. (2023). Shaxsda aybdorlik hissi namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari. Avtoreferat (PhD). – Toshkent. (In Uzbek)

4. Den Dubravin. (2019). Psixologiya emotsiy: chuvstva pod kontrolem. – Kiev: Agentstvo «IPIO». – S. 95–96. (In Russian)

5. Izard K. (2002). Psixologiya emotsiy. – Sankt-Peterburg: Piter. (In Russian)

6. Ilin E. (2019). Emotsii i chuvstva: Uchebnoe posobie. – Sankt-Peterburg: Piter. (In Russian)

7. Kunitsina V. (1991). Trudnosti mejlichnostnogo obsheniya (Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora psixologicheskix nauk). – Sankt-Peterburg. (In Russian)

8. Lyuis M. (1993). Samosoznatelnie emotsii: smushenie, gordost, stid i vina. – Nyu York, – London: “The Guilford Press”. – S. 563–573. (In Russian)

9. Matyushin G. (1998). Stid i sovest kak formi moralnoy samootsenki. – Moskva: Izd-vo MGOPU: NOU. (In Russian)

10. Muzdibayev K. (1995). Perejivanie vini i stida. – Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburgskiy filial Instituta sotsiologii. (In Russian)

# SHAXSDA MILLIY MANSUBLIK HISSINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

# PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SENSE OF NATIONAL BELONGING IN AN INDIVIDUAL

# ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ У ЛИЧНОСТИ

**Alimbayeva Shaxlo Tursunovna**
*Oriental universiteti*
*Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti,*
*psixologiya fanlari nomzodi (PhD)*
*Tel.: +998 97 765-01-17*
*E-mail: shahloalimbayeva86@gmail.com*

**Annotatsiya**: Ushbu mansublik hissining namoyon bo'lish darajasi, milliy avto va geterostereotiplarning o'zaro uzviy bog'liqlik masalalarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi shaxsda milliy mansublik hissining psixologik jihatlarini tadqiq etishdan iborat. Maqolada o'zbek va rus tilida ta'lim oluvchi o'quvchilarning etnik mansublik darajasi qiyosiy va korrelyatsion tahlil qilindi. Milliy mansublik hissining psixologik jihatlari yoritilgan mavjud ilmiy manbalarni o'rganish natijasida avto va geterostereotiplarni o'zaro uzviy bog'liqligi aniqlandi. Tadqiqotda o'smirlik va ilk o'spirinlik davrida shaxsning etnik mansublikni anglashi jinsga xos ravishda tafovutlanishi, ammo milliy mansublikni his qilishga ko'ra esa gender farqlar mavjud emasligi, shuningdek, o'quvchi uchun asosiy ta'limning o'z ona tilida amalga oshishi ontogenezning barcha bosqichida uning milliy mansublik hissining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Maqola yakunida shaxsda milliy mansublik hissini rivojlantirish uchun foydali ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar**: *o'smirlik davri, ilk o'spirinlik davri, milliy mansublik, affektiv komponent, kognitiv komponent.*

**Abstract**: The aim of the study is to study the level of manifestation of this sense of belonging, the interdependence of national auto and heterostereotypes. The purpose of the study is to study the psychological aspects of the sense of national belonging in a person. The article provides a comparative and correlational analysis of the level of ethnic belonging of students studying in Uzbek and Russian. As a result of studying the available scientific sources that cover the psychological aspects of the sense of national belonging, it was revealed that auto and heterostereotypes are interdependent. The study proved that during adolescence and early adolescence, a person's perception of ethnic belonging differs by gender, but there are no gender differences in the sense of national belonging, and that the implementation of basic education for a student in

his native language has a positive effect on the formation of his sense of national belonging at all stages of ontogenesis. The article concludes with useful recommendations for developing a sense of national identity in an individual.

**Keywords**: *adolescence, early adolescence, national identity, affective component, cognitive component.*

**Аннотация**: Целью исследования является изучение уровня проявления данного чувства принадлежности, взаимозависимости национальных авто- и гетеростереотипов. Целью исследования является изучение психологических аспектов чувства национальной принадлежности у человека. В статье проводится сравнительный и корреляционный анализ уровня этнической принадлежности студентов, обучающихся на узбекском и русском языках. В результате изучения имеющихся научных источников, освещающих психологические аспекты чувства национальной принадлежности, выявлено, что авто- и гетеростереотипы взаимозависимы. Исследование доказало, что в подростковом и раннем юношеском возрасте восприятие человеком этнической принадлежности различается по полу, но гендерных различий в чувстве национальной принадлежности не наблюдается, и что реализация базового образования для студента на родном языке положительно влияет на формирование у него чувства национальной принадлежности на всех этапах онтогенеза. В заключение статьи приводятся полезные рекомендации по формированию у личности чувства национальной принадлежности.

**Ключевые слова**: *подростковый возраст, ранняя юность, национальная идентичность, аффективный компонент, когнитивный компонент.*

## KIRISH

Har bir millat oʻzining etnik taraqqiyotida turli davrlarni, bosqichlarni bosib oʻtadi. Xalqning etnik taraqqiyoti, shu xalq vakillari bilan asrlar davomida sodir boʻlgan tarixiy voqealar milliy psixologik qiyofani shakllanishiga katta ta’sir koʻrsatib, etnik xususiyatlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi (Arapbayeva D., Arapbayeva D., 2016: 36-41). Oʻzbek xalqi ham asrlar davomida turli tarixiy hodisalarning guvohi boʻlib, bu voqealarning barchasi oʻzbek xalqining ma’lum ma’nodagi “qiyofa”sini shakllantirgan (Ashirov A., 2004 ).

Millatning oʻzini oʻzi anglashi – etnik psixologiyaning ancha keyin vujudga kelgan murakkab fenomeni hisoblanib, u milliy ong asosida vujudga keladi va uning tuzilmasiga kiradi. Milliy oʻzlikni anglash millatning oʻz manfaat, maqsad va motivlarini anglab yetish darajasini bildiradi. Falsafa, etnologiya, ijtimoiy psixologiyaga oid aksariyat adabiyotlarda milliy ong va milliy oʻzlikni anglash tushunchalari deyarli farqlanmasdan, sinonim soʻzlar sifatida ishlatib kelinadi. Toʻgʻri,

ular oʻrtasida mazmunan uzviy bogʻliqlik va yaqinlik bor. Ular bir jarayonning turli bosqich va darajalaridir. Shunday boʻlsa ham ularni alohida - alohida tushunchalar sifatida oʻrganish darkor. Milliy ong etnik taraqqiyotning ilk bosqichlarida vujudga kelgan etnik ongning davomi boʻlib, oʻzining ma’lum millatga (etnik birlikka) mansubligini anglash hisoblanadi (Nishanova Z., Alimbayeva Sh., 2020).

Agar insonning milliy ongi uning milliy mansublikni anglash orqali millat hayotidagi voqealarga bildirayotgan munosabati boʻlsa, milliy oʻzlikni anglash esa milliy manfaatlarni bilish, anglash darajasini bildiradi (Murodova M., 2006).

Milliy ongning eng dastlabki koʻrinishi boʻlmish etnik ong yillar davomida emas, asrlar davomida yagona til, hudud, axloq va urf-odatlar birligi asosida vujudga keladi (Rasulova Z., 2016: 41-48).

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

M.M.Mamatovning fikricha, bolalar oʻzlarining u yoki bu etnik guruhga mansubliklarini, avvalo, ota-onalarining qaysi etnik birlikka mansubliklarini anglash orqali bilib oladilar. Ota-onalari turli millatga mansub boʻlgan bolalar ota-onalardan birining millatini qabul qiladi. Bu oila yashayotgan jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy va boshqa vaziyatlarga bogʻliqdir (Mamatov M., 1999*)*.

Milliy avto va geterostereotiplarni oʻzaro uzviy bogʻliq ekanligini ta’kidlar ekan, B.Botirov har bir millat vakili oʻz xulq-atvorini oʻzga millat vakillarining ushbu millat toʻgʻrisidagi tasavvurlariga binoan belgilab turishini va ayni shu holat millatlararo idrokni ta’minlaydigan tolerantlik determinantasi sifatida namoyon boʻlishini ta’kidlaydi (Botirov B., 2011: 90).

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz ham oʻquvchilarda milliy mansublik hissi namoyon boʻlishining psixologik xususiyatlarini oʻrganish maqsadida Toshkent shahridagi ta’lim tili oʻzbek va rus tili boʻlgan maktablarda izlanish olib bordik. Bunda 10-sinf oʻquvchilarida Dj.Finnining “Etnik mansublik namoyon boʻlishini aniqlash” metodikasi (Стефаненко Т., 2006.) boʻyicha oʻquvchilarning natijalari oʻrganildi. Finni soʻrovnomasining ushbu varianti 12 ta tasdiqlovchi savoldan iborat. Mazkur soʻrovnoma ikkita subshkalani oʻz ichiga oladi: etnik identiklikning kognitiv komponenti va etnik identiklikning affektiv komponenti. Soʻrovnoma A.M.Arbitaylo tomonidan moslashtirilgan va ishonchliligi tekshirilgan. Biz tadqiqotimiz davomida metodikaning aynan shu variantidan foydalandik.

Shuningdek, ta’lim tili rus tili boʻlgan oʻquvchilarda olingan natijalar ularning yosh, jins va millatlariga bogʻliqlik darajasi Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalangan holda oʻrganib chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

“Etnik mansublik namoyon bo‘lishini aniqlash” metodikasi natijalariga ko‘ra, etnik mansublik ko‘rsatkichining affektiv komponenti kognitiv komponent natijalari bilan ahamiyatli darajadagi (r=0,57; p≤0,01) bog‘liqlikni namoyon etdi. Bundan ko‘rinadiki, insonning o‘zi mansub bo‘lgan millatning etnik xususiyatlari va tasavvurlari hamda shu guruhga tegishlilikni anglashi uning shu etnos a’zolari bilan munosabatiga, etnik stereotiplarning hosil bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

**1-jadval. Rus tilida tahsil oluvchi o‘quvchilar natijalaridagi korrelyatsion aloqadorlik**

| | Millat | Finni metodikasi | | | Yosh | Jins |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Kognitiv komponent | Affektiv komponent | Etnik mansublik darajasi | | |
| Millat | 1 | | | | | |
| Kognitiv komponent | -0,001 | 1 | | | | |
| Affektiv komponent | 0,27 | 0,57** | 1 | | | |
| Etnik mansublik darajasi | 0,17 | 0,86** | 0,91** | 1 | | |
| Yosh | 0,02 | 0,43* | 0,41* | 0,47* | 1 | |
| Jins | 0,41* | -0,48** | -0,06 | -0,28 | -0,31 | 1 |

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01.

Etnik mansublikning umumiy darajasi kognitiv (r=0,86; p≤0,01) hamda affektiv (r=0,91; p≤0,01) komponentlar bilan o‘zaro yuqori darajadagi korrelyatsion aloqadorlikni aks ettirdi. Bu o‘zi mansub bo‘lgan etnos haqida keng bilim va ma’lumotlar hamda millatiga bo‘lgan munosabatlar shu guruhga mansublikni his qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, ular birgalikda milliy mansublik darajasini tashkil etishini anglatadi. Shuningdek, yosh xususiyatlari etnik mansublik darajasining kognitiv komponenti (r=0,43; p≤0,05) va affektiv komponenti (r=0,41; p≤0,05) hamda etnik mansublik darajasining umumiy ko‘rsatkichi bilan (r=0,47; p≤0,05) ahamiyatli aloqadorlikni aks ettirdi. Bundan ko‘rinadiki, insonlarning o‘z millatlariga taalluqlilik va millati haqida tasavvurlari yosh davrlariga ko‘ra tafovutlanar, ya’ni inson qaysi yosh davrida ekaniga qarab milliy mansublikni his qilish darajasi turlicha bo‘lar ekan. Demak, ontogenezda bir davr o‘zidan avvalgi davrga nisbatan dunyoqarash kengayishiga sabab bo‘lgani tufayli milliy tasavvurlari hosil bo‘lishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan.

Shuningdek, etnik mansublik darajasining kognitiv komponenti jins (r=-0,48; p≤0,01) xususiyatlari bilan ham ahamiyatli aloqadorlikni aks ettirdi. Demak, insonning

o‘z etnik guruhiga tegishliligini anglashi, uning shu etnos a’zolari bilan munosabati uning gender xususiyatlariga ham bog‘liq, ya’ni bu milliy mansublik hissi erkak va ayollarda turlicha namoyon bo‘lishini anglatadi.

Ushbu ko‘rsatkichlar o‘zbek tilida ta’lim oluvchi o‘quvchilarda ham o‘rganildi. Natijalar rus tilida tahsil oluvchi o‘quvchilar natijalaridan birmuncha farqli jihatlarni aks ettirdi. Korrelyatsion tahlilga asosan (2-jadval) etnik mansublikning affektiv va kognitiv komponentlari (r=0,43; p≤0,05) ahamiyatli aloqadorlikni aks ettirdi.

**2-jadval. O‘zbek tilida ta’lim oluvchi o‘quvchilarda etnik mansublik darajasining boshqa ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro aloqadorligi**

| | Finni metodikasi | | | Yosh | Jins | Sinf |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Kognitiv komponent | Affektiv komponent | Etnik mansublik darajasi | | | |
| Kognitiv komponent | 1 | | | | | |
| Affektiv komponent | 0,43** | 1 | | | | |
| Etnik mansublik darajasi | 0,85*** | 0,84*** | 1 | | | |
| Yosh | -0,17 | 0,26 | 0,05 | 1 | | |
| Jins | -0,07 | -0,36* | -0,25 | -0,5*** | 1 | |
| Sinf | -0,05 | 0,25 | 0,11 | 0,68*** | -0,14 | 1 |

Izoh: *p≤0,1; ** p≤0,05; *** p≤0,01.

O‘zbek tilida tahsil oluvchi o‘quvchilarda ham etnik mansublikning umumiy darajasi kognitiv (r=0,85; p≤0,01) va affektiv komponent (r=0,84; p≤0,01) bilan ahamiyatli bog‘liqlikni aks ettirdi. O‘zbek va rus tilida tahsil oluvchi o‘quvchilar natijalaridagi yorqin tafovut yosh xususiyatlarining boshqa ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligida aks etdi. Bunga ko‘ra, rus tilida ta’lim oluvchi o‘quvchilarda etnik mansublikning barcha ko‘rsatkichlari yosh xususiyatlari bilan aloqadorlikni aks ettirgan bo‘lsa, o‘zbek tilida tahsil oluvchi o‘quvchilarda bu qonuniyat aniqlanmadi. Bundan ko‘rinadiki, o‘quvchi uchun asosiy ta’limning o‘z ona tilida amalga oshishi ontogenezning barcha bosqichida uning milliy mansublik hissining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, o‘zga tillarda, jumladan, rus tilida ta’lim oluvchi o‘zbek o‘quvchilarida bu holat birmuncha keyingi, kattaroq yosh davrlarida amalga oshishini ko‘rish mumkin. Demak, bolaning qaysi tilda ta’lim olishi ham uning mental xususiyatlari shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zbek guruhlarida jins xususiyatlari etnik mansublikning affektiv komponenti (r=-0,36; p≤0,1) va yosh xususiyatlari (r=-0,5; p≤0,1) bilan ahamiyatli aloqadorlikni aks ettirdi. Rus tilida ta’lim oluvchi o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan etnik mansublikning kognitiv komponenti darajasi yuqori ekanligini, o‘zbek tilida ta’lim oluvchi o‘g‘il bolalarda esa affektiv komponenti darajasi yuqoriligini ko‘rish mumkin. Demak, o‘zga tillarda tahsil

oluvchilarda oʻz etnosiga xos xususiyatlarni anglash jarayoni kuchliroq boʻlsa, oʻz ona tilida tahsil oluvchi oʻzbeklarda etnik mansublikni his qilish jarayoni ustunlikni namoyon etar ekan.

Oʻsmir va ilk oʻspirinlarda yosh xususiyatiga koʻra etnik mansublik darajasining boshqa koʻrsatkichlar bilan aloqasini oʻrganish maqsadida barcha sinaluvchilar natijalari umumiy ravishda (3-jadval) korrelyatsion tahlil qilindi.

**3-jadval. Oʻsmir va ilk oʻspirinlarda etnik mansublikning boshqa koʻrsatkichlar bilan aloqasi**

| | millat | Finni metodikasi | | | Yosh | Jins | Sinf |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Kognitiv komponent | Affektiv komponent | Etnik mansublik darajasi | | | |
| Millat | 1 | | | | | | |
| Kognitiv komponent | 0,08 | 1 | | | | | |
| Affektiv komponent | 0,18 | 0,45** | 1 | | | | |
| Etnik mansublik darajasi | 0,16 | 0,84** | 0,86** | 1 | | | |
| Yosh | 0,20 | 0,26 | 0,17 | 0,25 | 1 | | |
| Jins | 0,26 | -0,27* | -0,19 | -0,27* | -0,33* | 1 | |
| Sinf | 0,24 | 0,27* | 0,01 | 0,16 | 0,81** | -0,09 | 1 |

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01.

Natijalarga koʻra, etnik mansublikning kognitiv komponenti jins (r=-0,27; p≤0,5) va sinf (r=0,27; p≤0,5) koʻrsatkichlari bilan ahamiyatli aloqadorlikni aks ettirdi. Ammo yosh xususiyati bilan aloqadorlik kuzatilmadi. Bundan koʻrinadiki, oʻsmir va ilk oʻspirinning oʻzi mansub boʻlgan etnik jamoasi haqidagi fikrlari, maʼlumotlari va uni anglashi oʻquvchining yoshida qatʼiy nazar oʻzi aʼzo boʻlgan kichik guruh fikrlari bilan uygʻunlikda boʻlar ekan. Etnik mansublikning umumiy darajasi ham jins koʻrsatkichlari bilan (r=-0,27; p≤0,5) bogʻliqlikni koʻrsatdi. Demak, oʻsmirlik va ilk oʻspirinlik davrida shaxsning etnik mansublikni anglashi jinsga xos ravishda tafovutlanar ekan, yaʼni oʻgʻil bolalarda qiz bolalarga nisbatan etnik mansublikni anglash ilgariroq kechadi. Ammo milliy mansublikni his qilishga koʻra esa gender farqlar mavjud emasligi aniqlandi.

Tadqiqotda "Oʻzbek va rus millatiga xos stereotiplarni oʻrganish metodikasi"dan (Стефаненко Т., 2006:14) ham foydalanildi. Bunda oʻquvchilarga 70ga yaqin sifatlar yozilgan varaq taqdim qilinib, shu roʻyxatda berilgan sifatlardan oʻzbek va rus millatini toʻliq va aniq yoritib bera oladigan 15 ta xususiyatni belgilash soʻraldi.

Rus maktablarida tahsil oluvchi o‘zbek va boshqa millat vakillari hamda o‘zbek maktablarida tahsil oluvchi o‘zbek millatiga mansub o‘quvchilar natijalari o‘zaro qiyoslandi. Rus maktab o‘quvchilari bilan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ma’lumotlar qo‘lga kiritildi:

O‘zbeklarga sabrlilik (76,19 %), mehnatsevarlik (71,43%), mehmondo‘stlik (71,43%), do‘stonalik (61,9%), saxiylik (57,14%), bardoshlilik (57 %), bosiqlik (52,8%), kuchlilik (52,38%), vatanparvarlik (52,38%), rahmdillik (52,38%), kamtarlik (52,38%), tartiblilik (47,62%), mag‘rurlik (42,86%), hazilkashlik (42,86%), tejamkorlik (42,86%) sifatlari xos ekanligini ma’lum qilishgan. Ushbu avtostereotiplar boshqa millat vakillarining o‘zbeklar haqidagi geterostereotiplaridan farq qildi. Boshqa millat vakillari bo‘lgan o‘smir va ilk o‘spirin o‘quvchilar o‘zbeklarga do‘stonalik, muloqotchanlik, kamtarlik, sabrlilik, emotsionallik, moddiy manfaatni ustun qo‘yish, bosiqlik, mehnatsevarlik, tinib-tinchimaslik, mustaqillik, saxiylik, ishonuvchanlik kabi sifatlarni xoslaganlar. Muloqotchanlik, emotsionallik, moddiy manfaatni ustun qo‘yish, tinib-tinchimaslik, mustaqillik, ishonuvchanlik kabi xususiyatlar bilan ta’riflash orqali boshqa millat vakillari o‘zbek xalqidagi ta’sirchanlik va shaxslararo munosabatlarga oson kirishish va ekstravert insonlarga xos fazilatlarni sanab o‘tganlar, ya’ni ular ko‘proq hissiy affektiv holatlar bilan bog‘liq fazilatlarni e’tirof etganlar. O‘zbek o‘quvchilar avtostereotiplarida esa aynan bu sifatlar qayd etilmadi. Bunda ko‘proq insonning irodaviy sifatlari bilan bog‘liq xususiyatlarni o‘zbek millatiga xoslash holati kuzatildi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, insonda milliy mansublik hissini rivojlantirishda milliy tilni bilish, milliy muhit muhim o‘rin egallaydi. Shu tufayli oilada va ta’lim muassasalarida milliy meros, millat tarixi bilan tanishtirishga, milliy tilni mukammal o‘rgatishga jiddiy e’tibor berish lozim. Bunda, ayniqsa, o‘zga tillarda tahsil oluvchi bolalarda milliy tilni o‘zlashtirish sifatiga e’tiborni kuchaytirish lozim, toki ular ham boshqa tillarni o‘rganish hisobidan o‘z ona tilini o‘zlashtirishda oqsoqlikka yo‘l qo‘ymasin.

O‘quvchilarning o‘zini qaysi millat vakillari bilan identifikatsiya qilayotganini aniq hisoblash, natijalardagi ahamiyatli bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida ma’lumotlar Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalangan holda qiyoslandi (6-ilova). Matematik statistik tahlilga ko‘ra, o‘zbek o‘quvchilari fanatlik ($r=0,68$; $p\leq0,01$), jiddiylik ($r=0,44$; $p\leq0,01$), jahldorlik ($r=0,4$; $p\leq0,05$), halollik ($r=0,64$; $p\leq0,01$), serg‘ayrat ($r=0,57$; $p\leq0,01$), hazilkashlik ($r=0,39$; $p\leq0,05$), saxiylik ($r=0,36$; $p\leq0,05$) va o‘z qadrini biluvchilik ($r=0,36$; $p\leq0,05$) sifatlari orqali o‘zini o‘zbek millati bilan identifikatsiya qilgan. Tartiblilik ($r=0,69$; $p\leq0,01$), jiddiylik ($r=0,38$; $p\leq0,05$) va mehmondo‘stlik ($r=0,34$; $p\leq0,01$) sifatlari orqali esa o‘zini rus millati bilan identifikatsiya qilgan. Demak, o‘quvchilarning o‘zida qayd etgan aksariyat sifatlari

o‘zi mansub bo‘lgan millat xususiyatlari bilan identifikatsiyasi asosida bo‘lib, bu ularning milliy mansublikni his qila olganligi bilan belgilanadi. Ammo ba’zi sifatlarning boshqa millat vakillari xususiyatlari bilan identifikatsiya qilinishi yondosh millat vakillarining ham shaxs ijtimoiylashuvidagi, o‘z-o‘zini idrok qilishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, insondagi milliy xususiyatlar, milliy mansublik hissi, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Shaxsda milliy o‘zlikni anglash, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida psixologlar, o‘qituvchilar tomonidan turli mashg‘ulotlar, psixologik treninglar tashkil etilishi ham vaziyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish lozim:

1) o‘quvchilarga milliy tilni chuqur o‘rgatish va ularni tilning nozik qirralari bilan tanishtirish;

2) shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo‘ladigan milliy xususiyatlarimizga muvofiq keluvchi muloqot ko‘nikmalari va malakalarini hosil qilish;

3) bolalarni milliy an’ana, qadriyatlar va ularning mohiyati bilan tanishtirish;

4) millat tarixi va o‘tmish ajdodlarimiz orasida yashab o‘tgan buyuk shaxslar bilan tanishtirib, ularni o‘rnak sifatida ko‘rsatish;

5) milliy o‘zligini to‘laroq anglash, bilish hamda o‘zga millatlarga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantira olish qobiliyatini o‘stirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirov A. (2004). O‘zbek milliy mentaliteti haqida ba’zi mulohazalar // O‘zbek xalqining kelib chiqishi: Ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix. Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. – Toshkent.

2. Botirov B. (2011). O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: TDPU.

3. D. Arapbayeva, D. Arapbayeva. (2016). Yoshlarning oilaviy hayotga moslashuvida ma’naviy-axloqiy masalalar // Zamonaviy ta’lim, № 5.

4. Mamatov M. (1999). Etnopsixologiya. – Toshkent: O‘zMU.

5. Murodova M. (2006). Folklor va etnografiya. – Toshkent.

6. Rasulova Z. (2016). Nikoh to‘yi bilan bog‘liq an’analarning etnopsixologik xususiyatlari. Psixologiya, № 3. – B. 41–48.

7. Стефаненко Т. (2006). Этнопсихология: практикум. – Москва: Аспект Пресс.

8. Z. Nishanova, Sh. Alimbayeva. (2020). O‘zbek xalqining milliy psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar.

9. Sh. Alimbayeva, B. Maxmudxo‘jayeva. (2015). Tartib mazmunini anglatuvchi konseptlarning etnomadaniy jihatlari // TDPU ilmiy axborotlari, № 4.

10. Sh. Alimbayeva, L. Qudratova. (2019). Shaxsga iqtisodiy tarbiya berish – milliy an’ana sifatida // Shaxsda ilmiy dunyoqarash rivojlanishining psixologik imkoniyatlari va tarbiyaviy jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDPU.

## REFERENCES:

1. Ashirov A. (2004). O‘zbek milliy mentaliteti haqida ba’zi mulohazalar // O‘zbek xalqining kelib chiqishi: Ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix. Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. – Toshkent. (In Uzbek)
2. Botirov B. (2011). O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: TDPU. (In Uzbek)
3. D. Arapbayeva, D. Arapbayeva. (2016). Yoshlarning oilaviy hayotga moslashuvida ma’naviy-axloqiy masalalar // Zamonaviy ta’lim, № 5. (In Uzbek)
4. Mamatov M. (1999). Etnopsixologiya. – Toshkent: O‘zMU. (In Uzbek)
5. Murodova M. (2006). Folklor va etnografiya. – Toshkent. (In Uzbek)
6. Rasulova Z. (2016). Nikoh to‘yi bilan bog‘liq an’analarning etnopsixologik xususiyatlari. Psixologiya, № 3. – B. 41–48. (In Uzbek)
7. Stefanenko T. (2006). Etnopsixologiya: praktikum. – Moskva: Aspekt Press. (In Russian)
8. Z. Nishanova, Sh. Alimbayeva. (2020). O‘zbek xalqining milliy psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar. (In Uzbek)
9. Sh. Alimbayeva, B. Maxmudxo‘jayeva. (2015). Tartib mazmunini anglatuvchi konseptlarning etnomadaniy jihatlari // TDPU ilmiy axborotlari, № 4. (In Uzbek)
10. Sh. Alimbayeva, L. Qudratova. (2019). Shaxsga iqtisodiy tarbiya berish – milliy an’ana sifatida // Shaxsda ilmiy dunyoqarash rivojlanishining psixologik imkoniyatlari va tarbiyaviy jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDPU. (In Uzbek)

# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY-AXLOQIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

# IMPROVING THE PEDAGOGICAL MECHANISM FOR DEVELOPING A PROFESSIONAL AND ETHICAL WORLDVIEW IN FUTURE TEACHERS

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЭТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Djumayeva Sanobar Absaatovna**
*Oriental universiteti*
*Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, PhD*
*Tel.: +998 94 689-36-45*
*E-mail: nishanovaz23x@gmail.com*

**Annotatsiya**: Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy axloqiy jihatdan tarbiyalash, pedagogik ta’limning har bir bosqichida amalga oshirilishi kerak. Axloqiy qadriyatlar va me’yorlar o‘qituvchilik faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi uchun pedagogik darslarda va amaliy mashg‘ulotlarda ularni muhokama qilish muhimdir. Jumladan, pedagogik etika, o‘qituvchining axloqiy xulq-atvori haqida maxsus kurslar tashkil etish, o‘qituvchilarda shaxsiy mas’uliyat, ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalash, o‘qituvchilik kasbi va axloqiy qadriyatlar orasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish. O‘qituvchining dunyoqarashi ham kasbiy axloqiy qadriyatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining dunyoqarashi o‘quvchilarga ta’sir etadigan asosiy omil bo‘lib, uning dunyoqarashi nafaqat bilim berishda, balki o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda ham katta rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar**: *axloq, dilemma, qadriyat, me’yor, fazilat, etika, dunyoqarash, qoida, zamonaviylik, tajriba, prinsipiallik, texnologiya, mentor.*

**Abstract**: The moral and ethical education of future teachers should be implemented at every stage of pedagogical training. In order for moral values and norms to become an integral part of teaching activities, it is important to discuss them during pedagogical lessons and practical training sessions. This includes organizing special courses on pedagogical ethics and the moral behavior of teachers, fostering personal and social responsibility in teachers, and analyzing the connection between the teaching profession and moral values. A teacher’s worldview also plays an important role in the formation of professional ethical values. The teacher’s worldview is a key factor that influences students; it plays a significant role not only in imparting knowledge but also in preparing students for life.

**Key words**: *ethics, dilemma, value, norm, virtue, ethics, worldview, rule, modernity, experience, integrity, technology, mentor.*

**Аннотация**: Воспитание будущих учителей в профессионально-нравственном плане должно осуществляться на каждом этапе педагогического образования. Для того чтобы моральные ценности и нормы стали неотъемлемой частью профессиональной деятельности педагога, важно обсуждать их на педагогических занятиях и практических упражнениях. В частности, необходимо организовывать специальные курсы по педагогической этике и нравственному поведению учителя, воспитывать у будущих педагогов личную и социальную ответственность, анализировать связь между педагогической профессией и нравственными ценностями. Мировоззрение учителя также играет важную роль в формировании профессиональных нравственных ценностей. Оно является одним из основных факторов, влияющих на учащихся, и оказывает большое значение не только в процессе обучения, но и в подготовке учащихся к жизни.

**Ключевые слова:** *мораль, дилемма, ценность, норма, добродетель, этика, мировоззрение, правило, современность, опыт, принципиальность, технология, наставник.*

## KIRISH

Ta’limda axloqiy jihatlarni muhokama qilish, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan munosabatlari va ularning o‘zaro axloqiy tartibga rioya qilishini ta’minlash muhimdir. O‘qituvchining axloqiy etikasini rivojlantirishning ba’zi usullari:

- O‘qituvchining o‘quvchilarni o‘rgatishdagi prinsipialligi;
- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, adolat va xolislikni ta’minlash;
- O‘qituvchining axloqiy xulq-atvorining o‘quvchilarni ijtimoiy va ma’naviy tarbiyalashdagi roli.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali bo‘lajak o‘qituvchilar axloqiy masalalarni chuqurroq tushunishadi va amalda samarali qo‘llashlari mumkin bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladigan aniq belgilangan vazifalar, Case-study metodlari yordamida axloqiy dilemmalarni tahlil qilish o‘qituvchilarda empatiya va o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aqliy dilemma (inglizcha: “cognitive dilemma”) bu kishining ongida qaror qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan muammo yoki tanlovdir. Bu turdagi

dilemma shaxsni ikki yoki undan ortiq qarorlar orasida tanlov qilishga majbur qiladi va bu qarorlar koʻpincha bir-biriga ziddiyatli yoki murakkab boʻlishi mumkin.

Aqliy dilemma odatda ikki asosiy xususiyatga ega boʻladi:

1. Ziddiyatli fikrlar: Shaxs biror masala yoki holat haqida qaror qabul qilishda bir nechta qarorlarni yoki nuqtai nazarlarni bir vaqtning oʻzida qabul qilishi kerak boʻladi, va bu qarorlar bir-biriga toʻgʻri kelmasligi mumkin.

2. Tashvish yoki noaniqlik: Tanlov qilingan yoʻnalishlar bir-biriga qarama-qarshi boʻlgani uchun, odamning qaysi birini tanlashda ishonch hosil qilishi qiyin boʻlishi mumkin.

Oʻqituvchining axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda psixologik faktorlar muhim rol oʻynaydi. Oʻqituvchining oʻzini anglash va kasbiy shaxs sifatida rivojlanishi uchun psixologik bilimlar zarur. Bu jarayonda oʻqituvchining ichki motivatsiyasi, oʻziga boʻlgan ishonchi, shuningdek, oʻzaro munosabatlarda axloqiy tushunchalarga rioya qilish zarur. Oʻqituvchining axloqiy-psixologik yondashuvini ishlab chiqishda shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Oʻqituvchi nafaqat bilim berish, balki ta'lim jarayonida axloqiy va shaxsiy mas'uliyatni his qilish orqali oʻquvchilariga ham axloqiy me'yorlarni oʻrgatadi. Oʻqituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun pedagogik jarayonlar va metodlarni amalga oshirish muhimdir. Oʻqituvchining oʻz shaxsini tanishi, oʻz axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishi va oʻquvchilarga bu qadriyatlarni oʻrgatish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirishi mumkin.

Tajribali oʻqituvchilar tomonidan boʻlajak oʻqituvchilarga amaliy va axloqiy masalalarda maslahatlar berish va ularni qoʻllab-quvvatlash tizimi kasbiy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi:

1. Mentorlar va tajribali pedagoglar boʻlajak oʻqituvchilarni axloqiy va kasbiy me'yorlar bilan tanishtirishi va ularning ma'naviy tarbiyasiga koʻmaklashishi kerak.

2. Amaliy darslar va pedagogik vazifalar orqali shaxsiy va kasbiy axloqiy me'yorlarni shakllantirish.

Oʻqituvchilar boʻlajak oʻquvchilariga axloqiy qadriyatlarni oʻrgatishda oʻzlari oʻrnak boʻlishlari kerak. Bu, oʻqituvchining oʻquvchilarga munosabatlarida va oʻquv jarayonida kuzatiladi:

- oʻquvchilarni oʻz axloqiy me'yorlarini rivojlantirishga undash.
- oʻquvchilarga axloqiy qoidalarni oʻrgatish va ularning toʻgʻri qarorlar qabul qilishiga yordam berish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Axloqiy qadriyatlar shaxsning dunyoqarashini shakllantiruvchi, uning ijtimoiy va shaxsiy hayotida muhim oʻrin tutuvchi tamoyillarni anglatadi. Pedagogik faoliyatda

axloqiy qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular pedagogning ishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, axloqiy qadriyatlar orqali pedagoglar o‘quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilishga, o‘zlariga va jamiyatga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishga ham o‘rgatadilar. Pedagogik mas’uliyat va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish, ta’lim jarayonini yanada samarali qilishda katta ahamiyatga ega. Shaxsiy axloqiy qadriyatlar ta’lim jarayonida o‘qituvchining mas’uliyatini oshiradi, uning o‘z ishiga bo‘lgan munosabatini yanada ijobiylashtiradi. Shu bilan birga, pedagogik mas’uliyat o‘zining axloqiy qadriyatlariga sodiqligini namoyon etadi va shaxsning axloqiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlaydi (Abdullayeva D., 2021).

F. Bahromovaning “O‘qituvchining shaxsiy axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish” nomli monografiyasida o‘qituvchining kasbiy axloqiy qadriyatlari va bu qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik jarayoni haqida muhim ilmiy tahlillar keltirilgan (Bakhromova F., 2021). Ushbu mavzularni tushunishda bir nechta asosiy jihatlarga e’tibor qaratish mumkin:

1. O‘qituvchining kasbiy axloqiy qadriyatlari

Kasbiy axloqiy qadriyatlar – bu o‘qituvchining pedagogik faoliyatini amalga oshirishi jarayonida namoyon bo‘ladigan, uning mehnat faoliyatini axloqiy jihatdan to‘g‘ri va samarali olib borishni ta’minlaydigan prinsiplar, qadriyatlar va me’yorlardir. Ular quyidagi omillarga asoslanadi:

- **O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ishonch va hurmat**: O‘qituvchi, talabaning individual xususiyatlarini hurmat qilishi, unga qulay va rivojlantiruvchi muhit yaratishi kerak.
- **Kasbiy javobgarlik**: O‘qituvchi o‘z ishining samaradorligi va natijalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.
- **Ochiqlik va adolat**: Talabalar bilan ishlashda adolat va halollikni ta’minlash zarur.
- **Mehnatni qadrlash**: O‘qituvchi o‘z ishini sevib va eng yaxshi tarzda bajarish uchun mehnat qilish kerak.

**Shaxsiy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish**

O‘qituvchining shaxsiy axloqiy qadriyatlari – bu uning kasbiy faoliyatida yuksak axloqiy xulq-atvorni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan shaxsiy qadriyatlar, mas’uliyat, mehr-oqibat, ijobiy munosabatlar va maqsadlarga intilishdir. Ushbu qadriyatlarni rivojlantirish pedagogik jarayonni yanada samarali qiladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- **Shaxsiy o‘sish va rivojlanish**: O‘qituvchi o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z ustida ishlash va kasbiy malakalarini doimiy ravishda yangilashga intilishi kerak.

- **Kasbiy axloqiy ko‘nikmalarni oshirish**: Shaxsiy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun o‘qituvchi axloqiy dilemmalar bilan ishlash, har bir talabaning ehtiyojini tushunish va ularni hurmat qilishga o‘rgatiladi.
- **Pedagogik etikani tushunish**: Pedagogik etika o‘qituvchining shaxsiy axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi, unga talaba, ota-onalar va jamiyat bilan muloqotda bo‘lishda ko‘nikmalar beradi.

**Pedagogik jarayonning shakllantiruvchi xususiyatlari**

O‘qituvchining kasbiy axloqiy qadriyatlarini shakllantirishning pedagogik jarayoni, ayniqsa, o‘qituvchining o‘z faoliyatini axloqiy asosda tashkil qilishni o‘rganishda juda muhim. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- **O‘qituvchilarni kasbiy-axloqiy tarbiyalash**: O‘qituvchi shaxsida kasbiy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu pedagogik malakalarga tayangan holda axloqiy qadriyatlar asosida ishonchli muloqotni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.
- **Ta’limning axloqiy jihatlari**: Pedagogik jarayon davomida o‘qituvchining ta’limning axloqiy jihatlarini tushunishi va unga asoslangan qarorlar qabul qilishi kerak.
- **Praktik mashg‘ulotlar va treninglar**: O‘qituvchilarni axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar, treninglar va boshqa pedagogik faoliyatlar o‘z ishining natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Kasbiy va shaxsiy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik

Kasbiy va shaxsiy axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish ham muhimdir. O‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali va axloqiy jihatdan to‘g‘ri amalga oshirish uchun uning shaxsiy qadriyatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Shaxsiy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish o‘qituvchining kasbiy hayotidagi muvaffaqiyatga ta’sir ko‘rsatadi va ularni ko‘proq ishonchli, axloqiy va bilimli pedagoglarga aylantiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axloqiy qadriyatlar va pedagogik mas’uliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ta’lim jarayonini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bu, ayniqsa, o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. O‘qituvchining dunyoqarashi ham kasbiy axloqiy qadriyatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining dunyoqarashi o‘quvchilarga ta’sir etadigan asosiy omil bo‘lib, uning dunyoqarashi nafaqat bilim berishda, balki o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda ham katta rol o‘ynaydi.

Kasbiy etikani rivojlantirishda axloqiy mas’uliyatni tushunish muhimdir. Har bir kasbning o‘ziga xos axloqiy mas’uliyatlari mavjud bo‘lib, ular kasbdagi muvaffaqiyatni faqat professional bilim va ko‘nikmalarga asoslanib emas, balki ijtimoiy va axloqiy me’yorlarga muvofiq ravishda bajarilishi kerak. Kasbiy axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda turli pedagogik usullar, jumladan, masalalar asosida o‘qitish, rolli o‘yinlar, muhokama va debatlar kabi interaktiv metodlar ishlatiladi. Ushbu metodlar talabalarga amaliyotda kasbiy axloqni shakllantirishda katta yordam beradi (Gulomova L., 2022).

Kasbiy etikaning rivojlanishida ijtimoiy javobgarlikni oshirish ham muhim o‘rin tutadi. Kasbiy faoliyatda axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni o‘zida mujassam etgan professional ishchi yuksak ijtimoiy qiymatga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, jamoaviy ishlar va ijtimoiy sohalarda amalga oshiriladigan kasblarda muhimdir. Kasbiy etikani rivojlantirishda qarorlar qabul qilishda axloqiy masalalarni aniqlash va hal etishning metodlari ham o‘rgatiladi. Etik dilemmalarni aniqlash, axloqiy qarorlarni tanlashda etik tamoyillarga asoslanish zaruriyati ko‘rsatiladi (Bojiyeva G., 2022).

Kasbiy axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishning birinchi qadamlaridan biri – bu axloqiy ta’lim va tarbiyaning tizimli tashkil etilishi. Axloqiy qadriyatlar va prinsiplar yosh avlodga dastlabki kasbiy faoliyatga kirishdan oldin o‘rgatilishi kerak. Bu jarayon kasbiy faoliyatning har tomonlama to‘g‘ri, adolatli va axloqiy jihatdan maqbul bo‘lishiga asos yaratadi (Azimov D., 2023**).**

N. Raxmatullayevaning “Pedagogik etikaning asoslari va o‘qituvchining kasbiy axloqiy me’yorlari” nomli qo‘llanmasida o‘qituvchining axloqiy me’yorlari va kasbiy etika tamoyillari pedagogika fanining ajralmas qismi sifatida tahlil etiladi va quyidagicha ta’riflanadi: “pedagogik etika o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning axloqiy jihatlarini, ularning bir-biriga nisbatan majburiyat va mas’uliyatlarini o‘rganadi” (Raxmatullayeva N., 2017).

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘qituvchining kasbiy axloqiy me’yorlari:

O‘qituvchining kasbiy axloqiy me’yorlari uning professional faoliyatida muhim o‘rin tutadi, chunki ular o‘qituvchining o‘quvchilar bilan, o‘z hamkasblari va ota-onalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini belgilaydi. Asosan, bu me’yorlar quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Mas’uliyat:** O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘qitish, tarbiya berish va ularning shaxsiy rivojlanishini kuzatishda mas’uliyatli bo‘lishi kerak.

2. **Adolat:** O‘qituvchi barcha o‘quvchilarga bir xil munosabatda bo‘lishi, ularni teng huquqli tarzda baholash va o‘qitish kerak.

3. **Hurmat:** O‘qituvchi o‘quvchilarning shaxsiyatini, fikrini va his-tuyg‘ularini hurmat qilishi zarur. Bu o‘qituvchi o‘zining xatti-harakatlarini, nutqini va qarorlarini ehtiyotkorlik bilan tanlashi kerakligini anglatadi.

4. **Halollik:** O‘qituvchi o‘z kasbini bajarayotganda, har doim halol va adolatli bo‘lishi lozim.

5. **O‘zini o‘zgartirishga tayyorlik:** O‘qituvchi o‘z kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib borishi va yangiliklarga ochiq bo‘lishi kerak.

**Etika prinsiplari:** Etika tamoyillari pedagogik faoliyatda har bir o‘qituvchi tomonidan kuzatilishi kerak bo‘lgan umumiy axloqiy qoidalardir. Bu prinsiplar o‘qituvchining o‘quvchilarni tarbiyalash va ta'lim berish jarayonidagi ishlarini ma’lum bir axloqiy me’yorlar asosida boshqaradi. Quyidagi prinsiplar kitobda ko‘rib chiqilgan:

1. **Empatiya:** O‘qituvchi o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunishga, ular bilan muloqotda ularning pozitsiyalarini hisobga olishga intilishi kerak.

2. **Tenglik:** Ta’limda barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, hech kimni chetlab o‘tmaslik, har birining imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

3. **Shaxsiy mas’uliyat:** O‘qituvchi o‘z harakatlari uchun to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni ta’minlashi kerak. Har bir qaror va harakat professional jihatdan to‘g‘ri va adolatli bo‘lishi kerak.

4. **O‘zgaruvchanlik va rivojlanish:** O‘qituvchi o‘z faoliyatini va pedagogik uslublarini doimiy ravishda tahlil qilib, takomillashtirishga intilishi zarur.

5. **Xalqaro etika:** O‘qituvchi o‘z faoliyatida milliy va xalqaro axloqiy me’yorlarga mos kelishi, global ta’lim muammolariga e’tiborli bo‘lishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishi sifatida zamonaviy pedagogikada markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu jarayon nafaqat o‘qituvchining kasbiy faoliyatida axloqiy me’yorlarga rioya qilishni ta’minlaydi, balki shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda adolat va insonparvarlik tamoyillarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kasbiy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda pedagogik, ijtimoiy va axloqiy metodlarning tizimli integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar orasida interfaol o‘quv usullari, amaliy mashg‘ulotlar, axloqiy dilemmalarni tahlil qilish va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan kognitiv treninglar alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki axloqiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini ham egallash imkonini beradi.

Yuqorida ta’kidlangan usullar kasbiy axloqni rivojlantirish bilan birga, uning kundalik hayot va ta’lim jarayonidagi amaliy qo‘llanilishini ta’minlaydi. Bu jarayon

murakkab bo‘lib, uzoq muddatli va doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi, chunki o‘qituvchilik kasbi shaxsning o‘z-o‘zini doimiy ravishda rivojlantirishini va axloqiy mas’uliyatni oshirishni talab etadi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida kasbiy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur. Bunday dasturlarga axloqiy qadriyatlar va ularning kasbiy faoliyatdagi o‘rni haqida seminarlar, psixologik treninglar va tajriba almashish platformalarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi. Masalan, virtual simulyatsiyalar va interaktiv platformalar yordamida axloqiy dilemmalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy dunyoqarashini mustahkamlash uchun mentorlik dasturlari va tajribali o‘qituvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimdir. Ushbu yondashuvlar ta’lim tizimining sifatini oshirishga va o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishiga ham hissa qo‘shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva D. (2021). Shaxsiy axloqiy qadriyatlar va pedagogik mas’uliyat: o‘zaro bog‘liqlik haqida. – Toshkent.

2. Azimov D. (2023). Kasbiy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishda amaliy yondashuvlar: o‘qituvchining kasbiy-axloqiy dunyoqarashiga oid amaliy maslahatlar. – Toshkent.

3. Bakhromova F. (2021). O‘qituvchining shaxsiy axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish: kasbiy axloqiy qadriyatlar va ularni shakllantirishning pedagogik jarayoni. – Toshkent.

4. Bojiyeva G. (2022). Shaxsiy va kasbiy axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda innovatsion metodlar. – Toshkent.

5. Gulomova L. (2022). O‘qituvchining kasbiy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent.

6. Iskandarova Z. (2019). Pedagogik metodlarning kasbiy-axloqiy asoslari. – Toshkent.

7. Raxmatullayeva N. (2017). Pedagogik etikaning asoslari va o‘qituvchining kasbiy axloqiy me’yorlari. – Toshkent.

8. Sagdiev K. (2021). O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va axloqiy jihatlari: kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda axloqiy jihatlarni inobatga olish. – Toshkent.

9. Salimov M. (2018). Pedagogik jarayonlarda axloqiy-psixologik aspektlar. – Toshkent.

10. Shomuradov M. (2020). Kasbiy etikani rivojlantirish metodikasi. – Toshkent.

11. Tashkandiyev S. (2020). Pedagogik etika va axloqiy qadriyatlarni oʻrgatishning metodikasi: oʻqituvchiga axloqiy qadriyatlarni oʻrgatish boʻyicha metodik yondashuvlar. – Toshkent.

12. Xudoyberdiyeva N. (2019). Oʻqituvchilarda kasbiy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish. – Toshkent.

**REFERENCES:**

1. Abdullayeva D. (2021). Shaxsiy axloqiy qadriyatlar va pedagogik mas'uliyat: oʻzaro bogʻliqlik haqida. – Toshkent. (In Uzbek)

2. Azimov D. (2023). Kasbiy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishda amaliy yondashuvlar: oʻqituvchining kasbiy-axloqiy dunyoqarashiga oid amaliy maslahatlar. – Toshkent. (In Uzbek)

3. Bakhromova F. (2021). Oʻqituvchining shaxsiy axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish: kasbiy axloqiy qadriyatlar va ularni shakllantirishning pedagogik jarayoni. – Toshkent. (In Uzbek)

4. Bojiyeva G. (2022). Shaxsiy va kasbiy axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda innovatsion metodlar. – Toshkent. (In Uzbek)

5. Gulomova L. (2022). Oʻqituvchining kasbiy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent. (In Uzbek)

6. Iskandarova Z. (2019). Pedagogik metodlarning kasbiy-axloqiy asoslari. – Toshkent. (In Uzbek)

7. Raxmatullayeva N. (2017). Pedagogik etikaning asoslari va oʻqituvchining kasbiy axloqiy me'yorlari. – Toshkent. (In Uzbek)

8. Sagdiev K. (2021). Oʻqituvchining kasbiy tayyorgarligi va axloqiy jihatlari: kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda axloqiy jihatlarni inobatga olish. – Toshkent. (In Uzbek)

9. Salimov M. (2018). Pedagogik jarayonlarda axloqiy-psixologik aspektlar. – Toshkent. (In Uzbek)

10. Shomuradov M. (2020). Kasbiy etikani rivojlantirish metodikasi. – Toshkent. (In Uzbek)

11. Tashkandiyev S. (2020). Pedagogik etika va axloqiy qadriyatlarni oʻrgatishning metodikasi: oʻqituvchiga axloqiy qadriyatlarni oʻrgatish boʻyicha metodik yondashuvlar. – Toshkent. (In Uzbek)

12. Xudoyberdiyeva N. (2019). Oʻqituvchilarda kasbiy axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish. – Toshkent. (In Uzbek)

# NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA DINSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI

# APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING RELIGIOUS STUDIES IN NON-STATE EDUCATIONAL INSTITUTIONS

# ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

**Nishanova Dildora Komiljanovna**
*Oriental Universiteti,*
*Tarix kafedrasi dotsenti v.b., PhD*
*Tel.: +998 99 001-48-87*
*E-mail: dnishanova1987@gmail.com*
https://orcid.org/0009-0009-8946-8323

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada nodavlat ta'lim muassasalarida dinshunoslik fanini o'qitishning dolzarbligi, mazmun-mohiyati va ushbu jarayonda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning metodik asoslari tahlil qilinadi. Mamlakatimizda diniy-ma'naviy savodxonlikni oshirish, yosh avlodni ekstremistik g'oyalardan himoya qilish va ularning ijtimoiy ongida tolerantlik hamda dunyoviylik qarashlarini shakllantirishda dinshunoslik fanining muhim o'rni alohida ta'kidlanadi. Maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari, o'quv rejalari va fan dasturlarida dinshunoslik fanining o'rni, shuningdek, uni o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari keng yoritiladi. Dinshunoslikni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalarida dinshunoslikni o'qitishda qo'llaniladigan metodlarning ijtimoiy ongni rivojlantirishdagi ta'siri va bu jarayonda o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurati ham muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar**: *nodavlat ta'lim muassasasi, dinshunoslik, diniy savodxonlik, tolerantlik, dunyoviylik, ta'lim tizimi*, *yoshlar tarbiyasi*, *metodika*, *ijtimoiy ong*.

**Abstract**: This article analyzes the relevance, content, and essence of teaching religious studies in non-state educational institutions, as well as the methodological foundations of applying pedagogical technologies in this process. The significant role of religious studies in enhancing religious and spiritual literacy, protecting the younger generation from extremist ideologies, and fostering tolerance and secular perspectives in their social consciousness is particularly emphasized in the context of our country. The article extensively explores the unique characteristics of non-state higher

education institutions, the place of religious studies in their curricula and academic programs, as well as the challenges encountered in the teaching process and the ways to address them. The advantages of using modern pedagogical technologies, the effectiveness of interactive methods, and innovative approaches in teaching religious studies are analyzed. Additionally, the article discusses the impact of methods used in teaching religious studies in non-state educational institutions on the development of social consciousness and the necessity of enhancing teachers' qualifications in this process.

**Keywords**: *non-state educational institution, religious studies, religious literacy, tolerance, secularism, education system, youth education, methodology, social consciousness.*

**Аннотация**: В данной статье анализируются актуальность, содержание и сущность преподавания религиоведения в негосударственных образовательных учреждениях, а также методические основы применения педагогических технологий в этом процессе. Особо подчеркивается важная роль религиоведения в повышении религиозно-духовной грамотности, защите молодого поколения от экстремистских идеологий и формировании в их общественном сознании толерантности и светских взглядов в контексте нашей страны. В статье подробно рассматриваются специфические особенности негосударственных высших учебных заведений, место религиоведения в их учебных планах и программах, а также проблемы, возникающие в процессе преподавания, и пути их преодоления. Анализируются преимущества использования современных педагогических технологий, эффективность интерактивных методов и инновационных подходов в обучении религиоведению. Кроме того, в статье обсуждается влияние методов преподавания религиоведения в негосударственных образовательных учреждениях на развитие общественного сознания и необходимость повышения квалификации преподавателей в этом процессе.

**Ключевые слова**: *негосударственное учебное заведение, религиоведение, религиозная грамотность, толерантность, светскость, система образования, воспитание молодежи, методика, общественное сознание.*

## KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ijtimoiy ongda yuz berayotgan murakkab oʻzgarishlar, diniy qarashlarning xilma-xillashuvi va axborot oqimining keskin ortishi zamonaviy jamiyatda dinshunoslik fanining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, Oʻzbekiston kabi koʻp konfessionalli, millatlararo totuvlikni qadrlovchi jamiyatda diniy-maʼrifiy savodxonlik darajasini oshirish, din sohasidagi bilimlarni ilmiy-nazariy asosda oʻrgatish dolzarb masalaga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida nodavlat ta’lim muassasalari ham muhim o‘rin tutmoqda. Bu muassasalarda dinshunoslik fanini o‘qitish nafaqat talabalarga diniy bilim berish, balki ularda bag‘rikenglik, dunyoviylik va madaniy muloqotga asoslangan fikrlashni shakllantirish imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dinshunoslik fanini o‘qitishning mazmuni, metodikasi va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishda nodavlat oliy ta’lim muassasalari tobora muhim rol o‘ynamoqda (Giyasova S., Mustafayeva M., Mustafayev F., 2018:51-56). Ushbu muassasalar davlat ta’lim siyosatini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi sifatida, ta’limda raqobat muhitini yaratish, sifatli bilim berish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishda alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, dinshunoslik kabi fanlarning nodavlat ta’lim muassasalaridagi o‘qitilishi yoshlarning milliy va diniy o‘zligini anglashiga, ijtimoiy muvozanat va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yurtimizda dinshunoslik sohasiga oid tadqiqotlar asosan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi pedagoglari tomonidan nashr qilingan kitoblar yetakchi hisoblanadi. Jumladan, H.Yo‘ldoshxo‘jayev, D.Rahimjonov, M.Alimova, O.Ernazarov, R.Isoqjonov, M.Abdullayeva, G.Xudoyberganova kabi dinshunos mutaxassislar tomonidan nashr qilingan kitoblar aynan mutaxassislar uchun chop etilgan kitoblar qatoriga kiradi. Xususan, boshqa ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar tomonidan nashr qilingan dinshunoslikka oid o‘quv qo‘llanma, darsliklar esa nomutaxassislar uchun mo‘ljallangan kitoblar hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda A.Turg‘unova tomonidan “Dinshunoslik modulini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari” nomli o‘quv qo‘llanmada aynan mazkur sohada pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi hamda mavzuning mazmun-mohiyatini ochib berishdagi afzalliklari keltirilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dinshunoslik fani – din hodisasini tarixiy, falsafiy, sotsiologik, madaniy va siyosiy nuqtai nazardan tadqiq etuvchi muhim ijtimoiy fan sanaladi. Bu fan orqali talabalar dinlarning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, e’tiqod va rasm-rusumlar, diniy mafkura va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunib yetadilar. O‘zbek jamiyatida turli diniy konfessiyalar tinch-totuv yashab kelayotgan bir paytda, yosh avlodda diniy bag‘rikenglik, dunyoviylik prinsiplariga sodiqlik, radikalizm va ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirish aynan dinshunoslik fanining asosiy

vazifalaridan biridir. Nodavlat ta’lim muassasalarida ushbu fan yuqori ilmiy-metodik asosda o‘qitilishi, jamiyatda sog‘lom diniy-ma’rifiy muhitni shakllantirishga bevosita xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida nodavlat ta’lim muassasalari ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi muhim subyektlardan biri hisoblanadi. Ular davlat ta’lim muassasalari bilan bir qatorda fuqarolarning bilim olish huquqini ta’minlash, sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish va jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Nodavlat ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahriri), “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi PQ-3276-sonli “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etadi va yuritadi. Mazkur qonun va qarorlarda nodavlat ta’lim muassasalarining maqomi, tashkil etish tartibi, faoliyat yuritish prinsiplari, ularning moliyalashtirilishi, davlat tomonidan beriladigan litsenziya va akkreditatsiyadan o‘tish tartiblari aniq belgilab berilgan (Axmedov S., Nishanova D., 2024:194).

Nodavlat ta’lim muassasalari o‘z dasturlarini mustaqil ishlab chiqish huquqiga ega bo‘lib, bu ularning innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishida keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, zamonaviy, ochiq va inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga harakat qilmoqda. Ayniqsa, diniy-ma’rifiy va axloqiy tarbiya sohasida ham bu muassasalar muhim rol o‘ynay boshladi. Ularning faoliyati orqali jamiyatda ilmiy asoslangan diniy savodxonlikni oshirish, turli konfessiyalar vakillari o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlash mumkin bo‘lmoqda (Turg‘unova A., 2022:40).

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimida dinshunoslik fani umumiy majburiy fanlar qatoriga kiritilgan bo‘lib, uni o‘qitish davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida mutlaqo bir xil talablar asosida amalga oshiriladi. Bu tartib tegishli idoralar tomonidan tasdiqlangan bakalavriat yo‘nalishlari bo‘yicha namunaviy o‘quv rejalari va fan dasturlarida qat’iy belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, hamda “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’limda umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirish zarurati ta’kidlangan bo‘lib, bu kompetensiyalarning ajralmas qismi sifatida dinshunoslik fani ham belgilangan (Axmedov S., Nishanova D., 2024:196).

Davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dinshunoslik fanining o‘qitilishida hech qanday konseptual farq mavjud emas. Har ikki turdagi ta’lim muassasasi Davlat ta’lim standartlariga, tegishli o‘quv rejalari va fan dasturlariga qat’iy amal qilishi shart.

Fan mazmuni, o‘quv yuklamasi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hajmi, oraliq va yakuniy nazorat tartiblari bir xil asosda belgilanadi (Nishanova D., Axmedov S., 2025).

Shu bilan birga, nodavlat ta’lim muassasalari o‘z ichki imkoniyatlari va tashabbuslari doirasida pedagogik yondashuvda innovatsion metodlardan — interfaol mashg‘ulotlar, elektron darsliklar, xorijiy tajribalarni jalb etish kabi vositalardan kengroq foydalanishi mumkin.

Biroq bu erkinlik faqat didaktik shakl va metodlar darajasida bo‘lib, fan mazmuni va maqsadi bo‘yicha davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida hech qanday tafovutga yo‘l qo‘yilmaydi (Taira T., 2017: 377-384).

Dinshunoslik fanidan dars beruvchi pedagog talabalar qarshisida obyektiv tarzda xolis ma’lumotlarga asoslangan holda mavzularga tushuncha berishi darkor. Bunda pedagogik texnologiyalardan mavzuga mos metodlarni tanlab batafsil yoritib berilishi orqali talabalarni fanga qiziqtira oladi. Fanni o‘qitish jarayonida diniy bag‘rikenglik, konfessiyalararo toqatlilik, millatlar va dinlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni shakllantirish asosiy tamoyil sifatida ilgari surilishi zarur. Talabalarda boshqa din vakillariga nisbatan hurmat, murosa va muloqotga tayyorlik ruhini shakllantirish — dars mazmuni va metodikasining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bunda jadvallar, blits-savollar, testlardan tashqari nilufar guli, tarmoqlash, baliq skeleti, T-sxema, klaster uslublaridan foydalangan holda ma’ruza darslarini o‘tish talabalar dinlarning mazmun-mohiyati hamda ta’limoti haqida yetarlicha ma’lumot oladilar. Seminar darslarni tashkillashtirishda esa “FSMU (F-fikringizni bayon qiling, S-Fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating, M-Fikringiz bayoniga misollar keltiring, U-Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang, ya’ni Fikr, Sabab, Mulohaza, Isbot)”, “muammoli vaziyat”, “aqliy hujum”, “nima uchun? qanday?” kabi pedagogik metodlardan foydalanish talabalarning faolligini oshiradi.

Talabalarga dinshunoslik fanining vazifasi — biror dinni targ‘ib qilish emas, balki diniy hodisani ilmiy, madaniy va tarixiy kontekstda o‘rganish ekani alohida urg‘u bilan tushuntirilishi lozim. “Dinshunoslik” va “Islomshunoslik” fanlari o‘rtasidagi farqlarni aniq ajratib berish, har birining o‘rganish doirasi, metodologiyasi va vazifasini ochib berish orqali bu chalkashliklarning oldi olinadi. Shuningdek, ayrim nodavlat ta’lim muassasalarida boshqa millat vakillari ta’lim olayotganligi hisobiga turli dinlar xilma-xilligi uchraydi. Bunday vaziyatda talabalar orasida xilma-xil savollar ko‘payadi, shunday holatda pedagog boshqa din vakillarining ham e’tiqodini hurmat qilgan holda talabalarda tolerantlik ruhini shakllantirishi darkor.

Zamonaviy ta’lim muhitida bir dolzarb muammo — rasmiy tasdiqlanmagan, ilmiy asosga ega bo‘lmagan kontentlarning haddan ziyod ko‘payib ketganidir. Axborot texnologiyalari rivoji, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng quloch yozgani ijobiy

jihatlarga ega boʻlsa-da, ayniqsa dinshunoslik sohasida bu holat jiddiy xavflarni keltirib chiqaradi (Kasimova Z., 2023: 101-105).

Ayni paytda turli siyosiy yoki mafkuraviy guruhlar tomonidan boshqariladigan, diniy ekstremistik qarashlarni targʻib qiluvchi saytlar, bloglar va videokontentlar yoshlarning diniy dunyoqarashiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Bunday holatlarda professor-oʻqituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki axborot madaniyatini shakllantiruvchi shaxs sifatida ham faol boʻlishi lozim. U tinglovchilarni rasmiy diniy manbalar, ilmiy asoslangan adabiyotlar bilan tanishtirishi, norasmiy yoki xavfli sahifalarning zararli taʼsirini ilmiy dalillar orqali tushuntirib berishi kerak (Shubayeva U., 2016: 79). Shu bilan birga, Oʻzbekiston musulmonlari idorasi, Din ishlari boʻyicha qoʻmita yoki boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan har yili eʼlon qilinadigan taqiqlangan manbalar roʻyxati bilan tanishtirish ham amaliy jihatdan foydali boʻlishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, dinshunoslik fani nodavlat oliy taʼlim muassasalarida ham davlat oliy taʼlim muassasalari bilan bir qatorda yagona davlat talablariga asoslangan holda, mazmunan chuqur, maqsadli va tizimli tarzda oʻqitilishi jarayonida pedagogik mahorat ham zarur. Bu fan orqali talabalarda ilmiy asoslangan diniy qarashlar, dunyoviylik, bagʻrikenglik va madaniyatlararo muloqotga tayyorlik kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Ayniqsa, diniy mutaassiblik, radikalizm va yot gʻoyalar tahdidi kuchaygan hozirgi davrda dinshunoslik fanining taʼsiri va masʼuliyati yanada oshmoqda. Mazkur fan doirasida yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan oʻquv adabiyotlarining sonini oshirish hamda nomutaxassislar uchun nashr qilinayotgan oʻquv qoʻllanmalar, uslubiy qoʻllanmalar, darsliklar maʼlumot berish bilan chegaralanmagan holda amaliy xulosalar bilan boyitish maqsadga muvofiq boʻladi.

Shuningdek, mazkur fan boʻyicha oʻquv adabiyotlari sifatining yetarli emasligi, zamonaviy ilmiy yondashuvlarning kamligi, talabalar orasida fanni notoʻgʻri talqin qilish holatlari, internet tarmogʻidagi rasmiy boʻlmagan kontentlarning salbiy taʼsiri kabi muammolar oʻz yechimini kutmoqda. Bu borada davlat grantlari asosida zamonaviy, tanqidiy va analitik ruhdagi oʻquv adabiyotlarini yaratish, pedagoglar malakasini oshirish, ilmiy seminar va metodik treninglar oʻtkazish zaruratga aylangan.

Nodavlat oliy taʼlim muassasalarida dinshunoslik fanining samarali oʻqitilishi nafaqat taʼlim sifati, balki jamiyatda sogʻlom diniy-maʼrifiy muhit, fuqarolik ongining mustahkamlanishi va ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur yoʻnalish doimiy eʼtibor, ilmiy izlanish va uslubiy takomillashtirishni talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 3-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi Qonuni. https://lex.uz/mact/-4329270
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari koʻrsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3276-son Qarori. https://lex.uz/docs/-3343077
4. D. Nishanova, S. Axmedov. (2025). Nodavlat ta’lim muassasalarida dinshunoslik fanining oʻqitilishi // “Dinshunoslikning dolzarb muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent.
5. Касимова З. (2023). Специфические особенности преподавания религиоведческих дисциплин в светском вузе // Proceedings of International Educators Conference, № 4. – С. 101-105.
6. Taira T. (2017). Categorizing “religion”: From case studies to methodology // Implicit Religion, № 4. – P. 377-384.
7. Turgʻunova A. (2022). Dinshunoslik modulini oʻqitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari // “Mahalla va oila” nashriyoti.
8. S. Axmedov, D. Nishanova. (2024). Dinshunoslik va manbashunoslik fan sifatida: muammo va yechimlar // “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitishda talabalar mustaqil ish darslarini tashkil etish: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. – B. 194-197.
9. С. Хиясова, М. Мустафаева, Ф. Мустафаев (2018). Проблемы преподавания религиоведения в вузе (вопросы статуса, структуры и методологии) // Экономические и гуманитарные исследования регионов, № 3. – С. 51-56.
10. Шубаева У. (2016). Проблемы преподавания религиоведения в университете // Редакторлық алқа.

## REFERENCES:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007 (In Uzbek)
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 3-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi Qonuni. https://lex.uz/mact/-4329270 (In Uzbek)
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari koʻrsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3276-son Qarori. https://lex.uz/docs/-3343077 (In Uzbek)

4. D. Nishanova, S. Axmedov. (2025). Nodavlat ta’lim muassasalarida dinshunoslik fanining o‘qitilishi // “Dinshunoslikning dolzarb muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. (In Uzbek)

5. Kasimova Z. (2023). Spesificheskie osobennosti prepodavaniya religiovedcheskix dissiplin v svetskom vuze // Proceedings of International Educators Conference, № 4. – S. 101-105. (In Russian)

6. Taira T. (2017). Categorizing “religion”: From case studies to methodology // Implicit Religion, № 4. – P. 377-384.

7. Turg‘unova A. (2022). Dinshunoslik modulini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari // “Mahalla va oila” nashriyoti. (In Uzbek)

8. S. Axmedov, D. Nishanova. (2024). Dinshunoslik va manbashunoslik fan sifatida: muammo va yechimlar // “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda talabalar mustaqil ish darslarini tashkil etish: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. – B. 194-197. (In Uzbek)

9. C. Xiyasova, M. Mustafaeva, F. Mustafaev (2018). Problemi prepodavaniya religiovedeniya v vuze (voprosi statusa, strukturi i metodologii) // Ekonomicheskie i gumanitarnie issledovaniya regionov, № 3. – S. 51-56. (In Russian)

10. Shubaeva U. (2016). Problemi prepodavaniya religiovedeniya v universitete // Redaktorliq alqa. (In Russian)

# OILALARDA INTERNETGA TOBELIKNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

# THE CURRENT STATE OF INTERNET ADDICTION IN FAMILIES

# СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ В СЕМЬЯХ

**Kushakova Nargiza Islambayevna**
*O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti,*
*Amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., p.f.n (PhD)*
*Tel.: +998 91 976-53-29*
*E-mail:kuwakovanargiza7777@gmail.com*

**Annotatsiya**: Bugungi kunda oilalarda internetga tobelik jiddiy ijtimoiy muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu tadqiqot oilani mustahkamlash, ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va eng ibratli oilaviy an’analarni saqlash masalalariga qaratilgan. Tadqiqotda telefon, YouTube, Telegram, Instagram va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarning oila a’zolarining o‘zaro munosabatlariga ta’siri, shuningdek, internetga tobelikning oilaviy qadriyatlar va axloqiy muhitga salbiy ta’sirlari o‘rganiladi. Hududlarda fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilib, oilalarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning oqibatlari tahlil qilinmoqda. Ushbu ish oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va an’anaviy qadriyatlarning targ‘ibotini ta’minlashga xizmat qiladi. Internetga tobelikning yosh avlod tarbiyasiga ta’siri alohida e’tibor markazida bo‘lib, ushbu muammoning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda. Tadqiqot natijalari oilaviy hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar**: *Oila, internet, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhit, telefon, Telegram, Instagram, Facebook, YouTube, virtual qaramlik.*

**Abstract**: In contemporary society, internet addiction within families has emerged as a significant social issue. This study focuses on strengthening family bonds, enhancing the moral and ethical environment, and preserving exemplary family traditions. The research examines the impact of social media platforms, such as smartphones, YouTube, Telegram, Instagram, and Facebook, on interpersonal relationships within families, as well as the adverse effects of internet addiction on family values and ethical environments. Fundamental, applied, and innovative research is being conducted across regions to analyze the consequences of social media use in family settings. The study aims to reinforce family relationships, improve moral and ethical climates, and promote traditional values. Particular attention is given to the influence of internet addiction on the upbringing of the younger generation, with

proposals being developed to address this issue. The research outcomes are intended to enhance the quality of family life.

**Keywords**: *family, internet, moral-ethical environment, smartphone, Telegram, Instagram, Facebook, YouTube, virtual addiction.*

**Аннотация**: В современном обществе интернет-зависимость в семьях стала одной из значимых социальных проблем. Данное исследование посвящено укреплению семьи, улучшению морально-этической среды и сохранению образцовых семейных традиций. В работе изучается влияние социальных сетей, таких как смартфоны, YouTube, Telegram, Instagram и Facebook, на внутрисемейные отношения, а также негативные последствия интернет-зависимости для семейных ценностей и морально-этической среды. В регионах проводятся фундаментальные, прикладные и инновационные исследования, направленные на анализ последствий использования социальных сетей в семьях. Исследование способствует укреплению семейных отношений, улучшению морально-этической среды и продвижению традиционных ценностей. Особое внимание уделяется влиянию интернет-зависимости на воспитание молодого поколения, разрабатываются предложения по предотвращению этой проблемы. Результаты исследования направлены на повышение качества семейной жизни.

**Ключевые слова**: *семья, интернет, морально-этическая среда, смартфон, Telegram, Instagram, Facebook, YouTube, виртуальная зависимость.*

## KIRISH

Zamonaviy dunyoda internet va raqamli texnologiyalar hayotning ajralmas qismiga aylandi. Ular ta’lim, aloqa va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynasa-da, ularning oilaviy hayotga ta’siri, ayniqsa, internetga tobelik muammosi jiddiy e’tibor talab qilmoqda. Oilalar ichidagi munosabatlar, ma’naviy-axloqiy muhit va an’anaviy qadriyatlarning saqlanishi bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalarning haddan ziyod ko‘p ishlatilishi tufayli xavf ostida qolmoqda. Telefonlar, YouTube, Telegram, Instagram va Facebook kabi platformalar oila a’zolarining o‘zaro muloqotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ko‘pincha yuzma-yuz munosabatlarni kamaytirib, hissiy aloqalarni zaiflashtirmoqda.

Internetga tobelikning dolzarbligi nafaqat oilaviy munosabatlarning sifatiga, balki yosh avlodning tarbiyasi va psixologik salomatligiga ham bevosita ta’sir qilishi bilan izohlanadi. O‘zbekiston kabi an’anaviy oilaviy qadriyatlar muhim o‘rin tutadigan jamiyatlarda ushbu muammoning oqibatlari yanada chuqur sezilmoqda. Masalan, oila a’zolarining ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadigan vaqti ko‘payishi natijasida ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muloqot vaqtining qisqarishi, oilaviy mas’uliyatlarning e’tiborsiz qolishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy omillar,

masalan, moddiy yetishmovchilik yoki mehnat migratsiyasi tufayli oila a'zolarining bir-biridan uzoqlashishi internetga tobelik muammosini yanada kuchaytiradi, chunki virtual olam ko'pincha hissiy bo'shliqni to'ldirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Ushbu muammoning dolzarbligi global miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, internetga tobelik psixologik va ijtimoiy muammolar, jumladan, depressiya, tashvish va oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda oilani mustahkamlash va ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar ushbu muammoning oldini olish va oilaviy qadriyatlarning saqlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu maqolada oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi holatini tahlil qilish, uning oilaviy munosabatlar va yosh avlod tarbiyasiga ta'sirini o'rganish hamda bu muammoning oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan.

Tadqiqot natijalari nafaqat oilaviy hayot sifatini oshirishga, balki jamiyatda an'anaviy qadriyatlarning targ'ib qilinishiga ham xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyundagi «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida jamiyatimiz hayotida, xalqimiz orasida uchrab turadigan, ayniqsa oila va nikoh sohasida duch kelinayotgan o'ta dolzarb, og'riqli va o'tkir muammolar to'g'risida, xususan, turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlarining uchrab turganligi, yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajralishlar ko'payib borayotganligi, begunoh bolalar yetim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolayotganligi haqida gapirib, "... oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda", degan edilar. Darhaqiqat, jamiyat va davlat uchun oila, nikoh, onalik, otalik va bolalik ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir, zero ushbu tushunchalar jamiyat va davlat shakllanishini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Shu sababli oila va nikoh masalalariga, uchrayotgan muammolarga ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va oddiy turmush nuqtai nazaridan yondashish, mazkur munosabatlarni qonun doirasida tartibga solish, bu boradagi qonun hujjatlarini real voqelikdan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish, ularning mazmun-mohiyatini keng xalq ommasiga tushuntirish, oilaning har bir a'zosi, nikohga kiruvchi shaxslarning haq-huquqlarini qat'iy himoya qilish talab etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Internetga tobelik va uning oilaviy munosabatlarga ta’siri sohasidagi tadqiqotlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy ishlar oilalarda internetdan foydalanishning ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Quyida keltirilgan adabiyotlar ushbu muammoning turli jabhalarini yoritadi va mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

K. Yangning “Диагноз – интернет-зависимость” maqolasi internetga tobelikni psixologik nuqtai nazardan o‘rganadigan dastlabki fundamental ishlardan biridir. Muallif virtual qaramlikni “offlayn holatda internetga kirishga bo‘lgan kompulsiv xohish va onlayn holatda undan chiqa olmaslik” deb ta’riflaydi. Yangning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, internetga tobelikning 25% holatlari foydalanuvchilar orasida dastlabki olti oy ichida, 58% holatlari esa birinchi yil ichida shakllanadi. Bu tadqiqot internetga tobelikning psixologik mexanizmlarini, xususan, o‘z-o‘zini past darajada hurmat qilish, depressiya va ijtimoiy yakkalanish kabi omillarni ochib beradi, bu esa oilaviy munosabatlardagi muammolarni keltirib chiqaradi (Янг К., 2000: 24–29).

A. Suxodolov va A. Bichkovaning “PR-аддикция как новый вид поведенческой зависимости” maqolasida ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy imijni targ‘ib qilishga bo‘lgan tobelikning yangi turi sifatida “PR-adiksiya” tushunchasi kiritilgan. Mualliflar ijtimoiy tarmoqlarning, xususan, Instagram va Facebook kabi platformalar foydalanuvchilarning o‘zini namoyon qilish ehtiyojini kuchaytirishi va bu jarayonning oilaviy muloqotga salbiy ta’sirini ta’kidlaydi. Ushbu ish oilalarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning yangi shakllarini tahlil qilishga muhim hissa qo‘shadi (Суходолов А., Бычкова А., 2015: 321–334).

A. Kojoxin tomonidan keltirilgan “ВЦИОМ” ma’lumotlari (2013) shuni ko‘rsatadiki, Rossiyada 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning 53% dan ortig‘i o‘zlarini internetga qaram deb hisoblaydi. Bu tadqiqot internetga tobelikning yosh avlod orasida keng tarqalganligini va uning oilaviy munosabatlarga, xususan, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muloqotning kamayishiga olib kelishini tasdiqlaydi. Ushbu statistik ma’lumotlar oilalarda internetdan foydalanishning ijtimoiy oqibatlari haqida kengroq tasavvur beradi (Кожохин А., 2013).

Y. Yevgrafovaning “Влияние социально-экономических условий на формирование супружеских конфликтов” maqolasida oilaviy nizolarning iqtisodiy omillari, jumladan, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik va turar joy sharoitlarining yomonligi tahlil qilinadi. Muallifning ta’kidlashicha, iqtisodiy muammolar oila a’zolarining bir-biriga e’tiborining kamayishi va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning kuchayishiga olib keladi, bu esa oilaviy munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqot internetga tobelikning iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi (Евграфова Ю., 2007: 123–126).

O. Zayats va S. Morgunning “Изучение мнения студентов ДВФУ о социально-экономических факторах конфликтности в российских семьях” maqolasida talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida oilaviy nizolarga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy qiyinchiliklar, mehnat migratsiyasi va oila a’zolarining virtual olamga “qochishi” oilaviy munosabatlarni zaiflashtiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan. Bu ish internetga tobelikning oilaviy nizolar bilan bog‘liqligini yanada chuqur tushunishga yordam beradi (Заяц О., Моргун С., 2016: 17–21). Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, internetga tobelik nafaqat psixologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, oilaviy munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va an’anaviy qadriyatlarning saqlanishi uchun internetdan foydalanishni tartibga solish zarurligini ta’kidlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi holatini o‘rganish va uning oilaviy munosabatlar, ma’naviy-axloqiy muhit va yosh avlod tarbiyasiga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullarning kombinatsiyasi qo‘llanildi, bu esa muammoning ko‘p qirrali tabiatini kengroq yoritish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – oilalarda ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook, YouTube) va smartfonlardan foydalanishning oilaviy munosabatlarga ta’sirini aniqlash, shuningdek, internetga tobelikning iqtisodiy va ijtimoiy omillari bilan bog‘liqligini baholashdir. Buning uchun Nizomiy nomidagi TDPU talabalari tanlab olindi. Namunani shakllantirishda tasodifiy tanlov usuli qo‘llanilib, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi oilalar, shu jumladan shahar va qishloq hududlarida yashovchilar kiritildi.

Ma’lumotlarni yig‘ishda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Anketalashtirish: Oilaviy munosabatlar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish chastotasi va internetga tobelik darajasini aniqlash uchun 50 savoldan iborat maxsus so‘rovnoma ishlab chiqildi. So‘rovnoma K. Yangning internet-adiksiya diagnostikasi asosida moslashtirildi (Янг К., 2000: 24–29).

2. Yarim strukturlashtirilgan intervyu: 30 ta oila vakillari bilan chuqur suhbatlar o‘tkazildi, bu esa internetdan foydalanishning oilaviy muloqotga ta’siri va iqtisodiy omillarning roliga oid sifatli ma’lumotlarni yig‘ishga yordam berdi.

3. Kuzatuv: 20 ta oilada ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari tabiiy sharoitda kuzatildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishda SPSS dasturiy ta’minoti yordamida statistik tahlil (korrelyatsion va regressiya tahlillari) amalga oshirildi. Bu internetga tobelik va oilaviy

nizolar, ma’naviy-axloqiy muhitning pasayishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga imkon berdi. Sifatli ma’lumotlar esa kontent-tahlil usuli orqali ishlov berildi, bu oila a’zolarining ijtimoiy tarmoqlarga munosabati va ularning oilaviy hayotga ta’siriga oid umumiy tendensiyalarni aniqlashda yordam berdi.

Tadqiqotda iqtisodiy omillar (moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, mehnat migratsiyasi) va internetga tobelikning oilaviy munosabatlarga ta’siri alohida e’tibor markazida bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida maxfiylik va axloqiy me’yorlarga rioya qilindi, ishtirokchilarning roziligi olindi va ularning shaxsiy ma’lumotlari himoya qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oila qo‘rg‘onining poydevori, uning mustahkam qal’asi, er-xotinni mahkam bog‘lovchi rishtasi nikohdir. Oila rivojiga nafaqat oilada yashovchi shaxslarning roli balkim unga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillari mavjud. Bulardan biri internet hisoblanadi. Bu virtual olam orqali insonlar boshqa bir shaxs bilan tanishib do‘stona munosabat o‘rnatishi oqibatida o‘z oilasidan kechishi, sovuq munosabatlar shakllanishi aksincha mukkasidan berilib ketishi oqibatida ajrimlarning ko‘payishini ko‘rishimiz mumkin. Bu virtual olamda tanishining psixologiyasi shuki ko‘rinmagan shaxs bilan muloqotga kirishishi har xil mavzularida suhbatlashishi yashirish holatdagi muloqotning qiziqarli kechishi va bu munosabat qisqa yoki uzoq davom etishi mumkin. Bu muammolar jamiyatimizning har uchdan bir oilalar bilan yuz bermoqda. Ajrimlarining bosh negizi ham internet ya’ni telefon hisoblanib, “Telegram, Instagram va Facebook” orqali tanishgan yoki oldindan tanish bo‘lgan virtual olamdagi shaxs bilan munosabat o‘rnatishining yuzasidan kelib chiqmoqda. Bu esa oiladagi munosabatlarining buzilishi er-xotin farzandlar o‘rtasida nizolarning ko‘payishi yuz bermoqda. Bunga asosiy sabab shuki, shaxsda muloqotning yetishmasligi yoki oilada shaxslararo kommunikativ muloqotning kamligi sabab bo‘lmoqda. Shu muammoning bolalarda uchrashi yoki o‘smirlik o‘spirinlik davrlari bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin mukkasidan ketishning negizida farzandlarimizning qarovsiz qolishi, qiziqarli virtual o‘yinlarga berilishi, bola yoshida asosiy o‘rin elektron o‘yin ekanligi bo‘lib qolmoqda. Biz muammoni internet bilan bog‘lab uni yechimini topishga harakat qilmoqchimiz. Muammoning negizi internetga tobeligini aniqlash va shaxsda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdan iborat. Oilada farzand tarbiyasi oila a’zolarining o‘zaro munosabati va turmushning chiroyli va mazmunli kechishi har birimizning qo‘limizda. Xususan, oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an’analarni saqlab qolish hamda targ‘ibot qilish masalalari bo‘yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir. Misol uchun, zamonaviy muvaffaqiyatli oila mezonlari qanday bo‘lishi kerak, degan mavzuda respublikamizning turli viloyatlarida

800 dan ortiq oilalarda ijtimoiy soʻrovlar oʻtkazilib, yakuniy natijalar boʻyicha zamonaviy oilaning modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot oʻtkazilgan oilalar vakillarining fikrlariga koʻra, oiladagi sogʻlom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak ma’naviy-axloqiy tarbiya; yetarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a’zolarining ta’lim yoʻnalishida oliy ma’lumotlilik darajasi; sihat-salomatlikka alohida e’tibor qaratish zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi. Shu oʻrinda har qancha achchiq boʻlmasin, ochiq aytish kerak, tadqiqotlarimizning koʻrsatishicha, keyingi paytlarda xalqimizga xos boʻlmagan ayrim illatlar — oilaviy ajrashishlar, internet tobeligi, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosogʻlom muhit, ma’naviy tushkunlik, ehtiyojmandlik, jinoyatga qoʻl urish holatlari kabi omillar notinch, noqobil, kemtik oilalar va qator ijtimoiy-ma’naviy muammolarni paydo qilmoqda. Ayniqsa, ajrashishlar sonining kamaymayotgani kishida jiddiy tashvish uygʻotadi. Respublikamizning uchta viloyatida olib borgan tadqiqotlarimizdan ma’lum boʻldiki, oilalar barbod boʻlishiga quyidagi omillar asosiy sabab boʻlmoqda: Psixologik omil – oiladagi ogʻir psixologik muhit, oʻzaro tushunishning yoʻqligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qoʻyish, bir-biriga befarqlik; Ijtimoiy omil – ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi; internet tobeligi; Ma’naviy-axloqiy omil – er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari; Iqtisodiy omil – turar joy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, erning oilani ta’minlamasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilishi, qarzlarni toʻlay olmaslik. E’tirof etish lozim, hozirgi kunga qadar 11 800 dan ortiq nizoli oilalarning ishi sudga yetib bormasdan, FHDYO organi va sudga ajrashish uchun ariza bergan 3100 dan ziyod oilalarni esa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yarashtirishga erishildi. Umuman, buzilib ketish arafasida turgan 14 645 ta oila saqlab qolindi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz xulosalariga tayanib, ajrashishlarning oldini olish, oilalarni mustahkamlashga qaratilgan qator takliflar ishlab chiqdik.

Bizningcha, eng avvalo, mahalla fuqarolar yigʻinlari huzuridagi Yarashtirish komissiyalari va “Ota-onalar universiteti” tuzilmalari uchun malakali kadrlar tayyorlashni yoʻlga qoʻyish zarur. Oila qurayotgan fuqarolarni tegishli qonunchilik asosida er-xotinning huquq va majburiyatlari, xususan, nikoh shartnomasini tuzish tartiblari, shart-sharoitlari, oqibatlari yuzasidan huquqiy savod xonligini oshirish lozim. Bu borada keng qamrovli targʻibot ishlarini yuritish, tegishli uslubiy qoʻllanmalar yaratish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Umumta’lim maktablaridan tortib, oliy oʻquv yurtlarining dasturlarigacha oila saboqlarini oʻrgatuvchi dars mashgʻulotlarini kiritish foydadan xoli boʻlmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi holatini va uning oilaviy munosabatlar, ma’naviy-axloqiy muhit hamda yosh avlod tarbiyasiga ta’sirini oʻrganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook, YouTube) va smartfonlardan haddan ziyod foydalanish oila a’zolarining oʻzaro muloqotini sezilarli darajada kamaytiradi, hissiy aloqalarni zaiflashtiradi va oilaviy nizolarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, iqtisodiy omillar, masalan, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik va mehnat migratsiyasi internetga tobelikni yanada kuchaytiruvchi omillar ekani aniqlandi. Tadqiqotda oilaviy munosabatlardagi muammolar, xususan, ota-onalar va farzandlar oʻrtasidagi muloqotning kamayishi, virtual olamga “qochish” tendensiyasi sifatida namoyon boʻldi.

Internetga tobelikning yosh avlod tarbiyasiga ta’siri alohida e’tibor markazida boʻlib, u yoshlarning psixologik salomatligi, ijtimoiy koʻnikmalari va ma’naviy qadriyatlarining shakllanishiga salbiy ta’sir koʻrsatishi aniqlandi. Shu bilan birga, oilalarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni tartibga solish orqali ushbu muammoning oldini olish mumkinligi isbotlandi.

Takliflar:

1. Oila a’zolari uchun ta’lim dasturlari: Mahalliy jamoatlar va ta’lim muassasalarida internetdan oqilona foydalanish boʻyicha seminarlar tashkil qilish. Bu dasturlarda ijtimoiy tarmoqlarning foydalari va xavf-xatarlari haqida ma’lumot berilishi lozim.

2. Ota-onalarga maslahat xizmatlari: Ota-onalarga farzandlarning internetdan foydalanishini nazorat qilish va oilaviy muloqotni mustahkamlash boʻyicha psixologik maslahat xizmatlari tashkil etilishi kerak.

3. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklash: Oilalarda “ekransiz vaqt” tushunchasini joriy qilish, masalan, kechki ovqat vaqtida telefonlardan foydalanmaslik qoidasini oʻrnatish.

4. Davlat dasturlari: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi bilan hamkorlikda oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan milliy dasturlar ishlab chiqish va ularni hududlarda joriy etish.

5. Tadqiqotlarni davom ettirish: Internetga tobelikning uzoq muddatli oqibatlari va uning iqtisodiy omillarga bogʻliqligini chuqurroq oʻrganish uchun qoʻshimcha ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish.

Ushbu takliflar oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va an’anaviy qadriyatlarning saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari oilaviy hayot sifatini oshirish va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. А. Суходолов, А. Бычкова. (2015). «PR-аддикция» как новый вид поведенческой зависимости // Вопросы теории и практики журналистики. № 4. – С. 321–334. https://doi.org/10.17150/2308-6203.2015.4(4).321-334

2. D. Kuss, M. Griffiths. (2017). Social networking sites and addiction: Ten lessons learned // International Journal of Environmental Research and Public Health. № 14. https://doi.org/10.3390/ijerph14030311

3. Евграфова Ю. (2007). Влияние социально-экономических условий на формирование супружеских конфликтов // Омский научный вестник. № 6. – С. 123–126.

4. Griffiths M. (2018). Internet addiction: Does it really exist? // Psychology and the Internet: Intrapersonal, interpersonal, and transpersonal implications. – P. 61–75. https://doi.org/10.1016/B978-0-12-814204-2.00004-1

5. Кожохин А. (2013, September 30). ВЦИОМ: больше половины молодых россиян зависимы от интернета. РИА Новости. https://ria.ru/technology/20130930/966761700.html

6. Л. Андреева, Е. Иванова. (2019). Социально-психологические аспекты интернет-зависимости в семьях // Психология и педагогика в современном мире. № 5. – С. 12–18.

7. О. Заяц, С. Моргун. (2016). Изучение мнения студентов ДВФУ о социально-экономических факторах конфликтности в российских семьях // Общество: социология, психология, педагогика. № 8. – С. 17–21.

8. Xolmatova N. (2023). Internetga tobelikning yoshlar tarbiyasiga ta’siri: O‘zbekiston misolida. // Jamiyat va innovatsiyalar. № 4. – B. 78–85. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp78-85

9. Янг К. (2000). Диагноз – интернет-зависимость // Мир Интернет. № 2. – С. 24–29.

10. Qodirova M. (2021). Oila munosabatlarida ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar va ta’lim. № 12. – B. 45–52.

## REFERENCES:

1. A. Suxodolov, A. Bichkova. (2015). «PR-addiksiya» kak noviy vid povedencheskoy zavisimosti // Voprosi teorii i praktiki jurnalistiki. № 4. – C. 321–334. https://doi.org/10.17150/2308-6203.2015.4(4).321-334 (In Russian)

2. D. Kuss, M. Griffiths. (2017). Social networking sites and addiction: Ten lessons learned // International Journal of Environmental Research and Public Health. № 14. https://doi.org/10.3390/ijerph14030311

3. Evgrafova Yu. (2007). Vliyanie sosialno-ekonomicheskix usloviy na formirovanie suprujeskix konfliktov // Omskiy nauchniy vestnik. № 6. – C. 123–126. (In Russian)

4. Griffiths M. (2018). Internet addiction: Does it really exist? // Psychology and the Internet: Intrapersonal, interpersonal, and transpersonal implications. – P. 61–75. https://doi.org/10.1016/B978-0-12-814204-2.00004-1

5. Kojoxin A. (2013, September 30). VSIOM: bolshe polovini molodix rossiyan zavisimi ot interneta. RIA Novosti. (In Russian) https://ria.ru/technology/20130930/966761700.html

6. L. Andreeva, E. Ivanova. (2019). Sosialno-psixologicheskie aspekti internet-zavisimosti v semyax // Psixologiya i pedagogika v sovremennom mire. № 5. – C. 12–18. (In Russian)

7. O. Zayats, S. Morgun. (2016). Izuchenie mneniya studentov DVFU o sosialno-ekonomicheskix faktorax konfliktnosti v rossiyskix semyax // Obshestvo: sosiologiya, psixologiya, pedagogika. № 8. – C. 17–21. (In Russian)

8. Xolmatova N. (2023). Internetga tobelikning yoshlar tarbiyasiga ta’siri: O‘zbekiston misolida. // Jamiyat va innovatsiyalar. № 4. – B. 78–85. (In Uzbek) https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp78-85

9. Yang K. (2000). Diagnoz – internet-zavisimost // Mir Internet. № 2. – C. 24–29. (In Russian)

10. Qodirova M. (2021). Oila munosabatlarida ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri. // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar va ta’lim. № 12. – B. 45–52. (In Uzbek)

# O‘SPIRINLARNING IJTIMOIY TARMOQLARDAGI MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

# SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING THE COMMUNICATION CULTURE OF ADOLESCENTS IN SOCIAL NETWORKS

# СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ ПОДРОСТКОВ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

**Salomov Shamsiddin Saboxiddin o‘g‘li**
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti,*
*Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*
*Tel.: +998 91 976-53-29*
*E-mail: shamsiddinsalomov1@gmail.com*

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada o‘spirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganiladi. Muloqot madaniyati, axborot almashish va shaxslararo munosabatlardagi axloqiy qoidalar tahlil qilinadi. Yoshlar o‘rtasida muloqot etikasiga rioya qilishni rivojlantirish uchun psixologik yondashuvlar taklif etiladi va o‘spirinlarning raqamli muloqot madaniyatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Maqolada onlayn muloqot etikasini o‘rgatishning ahamiyati ta’kidlanadi, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy muloqotning mumkin bo‘lgan oqibatlari ko‘rsatiladi va ruhiy salomatlikka ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, ijobiy munosabatlarning foydali tomonlari ta’kidlanadi va ijtimoiy aloqa sifatini oshirish uchun amaliy tavsiyalar keltiriladi. O‘spirinlarga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi lozimligi, raqamli muhitda xavfsiz muloqotni ta’minlash uchun ota-onalarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega ekanligi urg‘ulanadi.

**Kalit so‘zlar**: *O‘spirinlar, ijtimoiy tarmoqlar, muloqot madaniyati, ijtimoiy-psixologik ta’sir, onlayn zo‘ravonlik, axloqiy qoidalar.*

**Abstract**: This article explores the social-psychological aspects of developing adolescents’ communication culture in social networks. It analyzes the principles of communication culture, information exchange, and ethical norms in interpersonal interactions. Psychological approaches are proposed to promote adherence to communication ethics among youth, and recommendations are provided to enhance adolescents’ digital communication culture. The article emphasizes the importance of teaching online communication ethics, highlights the potential consequences of negative interactions in social networks, and examines their impact on mental health.

Additionally, the benefits of positive interactions are underscored, and practical recommendations are offered to improve the quality of social connections. The need for specialized educational programs on social media use for adolescents and the critical role of parental involvement in ensuring safe communication in digital environments are emphasized.

**Key words**: *Adolescents, social networks, communication culture, socio-psychological impact, online violence, ethical norms.*

**Аннотация**: Статья посвящена изучению социально-психологических аспектов развития культуры общения подростков в социальных сетях. Анализируются принципы культуры общения, обмена информацией и этические нормы в межличностных взаимодействиях. Предлагаются психологические подходы для формирования у молодежи этики общения, а также рекомендации по улучшению цифровой культуры общения подростков. В статье подчеркивается важность обучения этике онлайн-общения, рассматриваются возможные последствия негативных взаимодействий в социальных сетях и их влияние на психическое здоровье. Также акцентируется внимание на преимуществах позитивных взаимодействий и предлагаются практические рекомендации для повышения качества социальных связей. Подчеркивается необходимость разработки специальных образовательных программ по использованию подростками социальных сетей и важная роль участия родителей в обеспечении безопасного общения в цифровой среде.

**Ключевые слова:** *Подростки, социальные сети, культура общения, социально-психологическое влияние, онлайн-насилие, этические нормы.*

## KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar oʻspirinlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, turli xil onlayn guruhlar hamda jamoalar yaratishi yoki ularga qoʻshilishi, turli xil muhokamalar hamda bahs-munozaralarda ishtirok etishi hamda turli guruhlar yoki boshqa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari bilan raqamli muloqotni amalga oshirishlari ularda muloqot madaniyatini shakllantirish masalasini dolzarb qilib qoʻymoqda. Chunki ochiq ommaviy axborot vositalari odatda erkin va senzuradan holi boʻlib, yosh avlod, xususan, oʻz mobil qurilmalariga ega boʻlgan oʻspirinlar uchun erkin muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ayrim yoshlarning muloqot etikasi hamda madaniyatiga rioya qilmasdan turli xil qoʻpol soʻzlar, jargonlardan foydalanishlari, haqoratli soʻzlarni ishlatishi yoki onlayn haqorat hamda zoʻravonlikning qurboniga aylanishlari, baʼzan esa bunga guvoh boʻlishlariga sabab boʻlishi mumkin. Oʻspirin yoshlarga muloqot madaniyati, ayniqsa, onlayn muloqot qilishning etikasini oʻrgatish, ushbu

muhim ijtimoiy qoidalarga amal qilmaslikning yomon oqibatlarini ilmiy tadqiq etish va yoritib berish, ushbu muammoni hal etishga nisbatan psixologik yondashuvlarni taklif etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Muloqot madaniyati shaxslararo munosabatlarda axborot almashish, tushunish va ta’sir o‘tkazish jarayonlarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tizimidir. Ushbu madaniyat shaxsning o‘z xulq-atvorini namoyon etish uslubi, boshqalar bilan muomala qilish, fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash tarzini aks ettiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid adabiyotlar ichidan E. Makarova, A. Tsyvunina, D. Turayeva hamda A. Jichkina tomonidan yozilgan manbalar tahlil uchun mavzuga mos adabiyotlar sifatida tanlab olindi. E. Makarova o‘z ishida yozma muloqotning kommunikativ tuzilishini tushunish masalalarini o‘rganadi, ayniqsa, rus tilida so‘zlashuvchi ingliz tili o‘quvchilari misolida. Uning tadqiqoti onlayn muloqotda kommunikativ tuzilmalarni tushunishning muhimligini ta’kidlaydi, bu esa o‘spirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot madaniyatini shakllantirishda asosiy omil sifatida qaraladi. Bu ish axloqiy muloqot qoidalarini o‘rgatishda lingvistik va psixologik yondashuvlarning integratsiyasini ko‘rsatadi (Makarova E., 2018). A. Tsyvunina o‘spirinlarning raqamli davrdagi muloqot madaniyatini o‘rganadi va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning psixologik jihatlariga e’tibor qaratadi. Uning tadqiqoti ijtimoiy tarmoqlarda salbiy muloqotning ruhiy salomatlikka ta’sirini va ijobiy munosabatlarning foydasini ta’kidlaydi. Tadqiqotda o‘spirinlarga onlayn muloqot etikasini o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar berilgan bo‘lib, bu o‘spirinlarning xavfsiz raqamli muhitda muloqot qilishiga yordam beradi (Tsyvunina A., 2019).

D.Turayeva o‘z maqolasida muloqot san’atini inson faoliyatining asosiy vositasi sifatida ko‘rib chiqadi. U muloqotning ijtimoiy va psixologik jihatlarini, ayniqsa, raqamli muhitdagi axloqiy normalarni tahlil qiladi. Maqola o‘spirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot madaniyatini rivojlantirishda ta’lim dasturlarining muhimligini ta’kidlaydi va amaliy tavsiyalar beradi (Turayeva D., 2024). A. Jichkina internetdagi muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganadi va onlayn muhitda muloqot etikasining shakllanishiga e’tibor qaratadi. Uning ishi ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy muloqotning psixologik oqibatlari, shu jumladan onlayn zo‘ravonlik va ruhiy salomatlikka ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqot ota-onalarning raqamli muhitda xavfsiz muloqotni ta’minlashdagi rolini ta’kidlaydi.

Ushbu adabiyotlar ijtimoiy tarmoqlarda o‘spirinlarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda psixologik yondashuvlar, axloqiy qoidalar va ta’lim dasturlarining muhimligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar onlayn muloqot etikasini o‘rganish bo‘yicha bir

qator tavsiyalarni bersa-da, bu borada hali izlanish lozim boʻlgan jihatlar mavjud ekanligini ham e’tiborga olish lozim.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot oʻspirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini oʻrganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy usullar qoʻllanildi. 14-18 yoshdagi oʻspirinlar orasidagi muloqot madaniyati shu kungacha amalga oshirilgan sotsial tahlillar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot namunalarini kontent-tahlil qilish orqali oʻrganildi. Soʻrovnoma natijalari mavjud statistik usullar yordamida tahlil qilindi, intervyu va kontent-tahlil natijalari esa tematik tahlil yoʻli bilan koʻrib chiqildi. Tadqiqot davomida axloqiy qoidalarga oid manbalar koʻrib chiqildi hamda onlayn zoʻravonlikning ruhiy salomatlikka ta’siriga oid ma’lumotlar oʻrganildi. Natijalar asosida oʻspirinlar uchun ta’lim dasturlari va ota-onalarga tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muloqot insonning shaxsiyati va ruhiy holatiga bevosita ta’sir koʻrsatadi. Muloqotning shakli, mazmuni va uslubi, shaxsning oʻziga boʻlgan ishonchini, ijtimoiy koʻnikmalari va boshqalar bilan aloqalarini shakllantiradi. Shu sababli, psixolog olim A.A. Bodalevning ta’biricha, “Insonni muloqot orqali tarbiyalashda, uning psixologik ta’sirini oldindan rejalashtirish zarur” (Turayeva D., 2024).

Oʻspirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etishi, ularning oʻzaro aloqalarini yangi shakllarda amalga oshirishi, real hayotdagi muloqotdan tubdan farq qiladi. Shuning uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning ta’siri oldindan oʻylab koʻrilishi zarur.

Birinchidan, oʻspirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda oʻzini ifodalash uslubi, boshqalarga ta’sir qilishni qanday amalga oshirishi, ularning oʻziga boʻlgan ishonchi va ijtimoiy koʻnikmalarini shakllantirishi mumkin. Agar ijtimoiy tarmoqlarda salbiy yoki haqoratli xatti-harakatlar koʻpayib ketsa, bu oʻspirinning ruhiy holatiga, oʻziga boʻlgan ishonchiga va boshqalar bilan muloqotdagi munosabatlariga salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda oʻspirinlarning turli guruhlar va shaxslar bilan oʻzaro aloqada boʻlishlari kuzatiladi. Ushbu muloqot ularning psixologik taraqqiyotiga ta’sir koʻrsatadi. Agar ijtimoiy tarmoqlarda salbiy va manipulyativ xatti-harakatlar koʻpayib ketsa, oʻspirinlarning xulq-atvori va psixologik holatida buzilishlar boʻlishi mumkin. Ular ijtimoiy tarmoqlardagi turli obrazlar hamda shaxslarning xatti-harakatlari hamda xulq-atvoriga taqlid qilishlari mumkin. Shuning uchun, ijtimoiy tarmoqda toʻgʻri va ijobiy axborot almashish va muloqotning sogʻlom uslubini shakllantirish oʻspirinlarni salbiy ta’sirlardan himoya qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqda oʻzaro hurmat, tinglash va tushunish shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi. Bu oʻspirinlar uchun muhim, chunki ular onlayn muloqotda oʻzini qanday ifodalashni oʻrganishadi. Ijtimoiy tarmoqlarda salbiy muloqot, haqorat yoki tahqirlash oʻspirinlarning ruhiy holatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy, hurmatga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish oʻspirinlarning psixologik farovonligini yaxshilaydi.

Oʻspirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotini boshqarishda, muloqotning psixologik taʼsirini oldindan oʻylab koʻrish va ijobiy muloqot shakllarini rivojlantirish zarur. Bu nafaqat ularning ruhiy holatini yaxshilashga, balki ularning jamiyatda sogʻlom va moslashuvchan shaxslar boʻlib shakllanishiga yordam beradi.

Yoshlar muloqot madaniyati atamasi insonlar oʻrtasida samarali va madaniyatli muloqotni shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik holatni anglatadi. Bu tushuncha, avvalo, yosh avlodning oʻzaro muloqot qilish qobiliyati, muloqot davomida oʻz fikrini erkin va aniq ifoda eta olishi, boshqalarni tinglashi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda odob-axloq meʼyorlariga amal qilishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Samarali muloqot, oʻz navbatida, shaxslararo munosabatlarning ijobiy rivojlanishiga, yuzaga kelishi mumkin boʻlgan nizolarni tinch yoʻl bilan hal etishga, shuningdek, bilim va gʻoyalar almashinuvi orqali fikr doirasini kengaytirishga imkon beradi. Shu sababli ham muloqot inson hayotining ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida eʼtirof etiladi.

Psixologik manbalarda taʼkidlanishicha, muloqot madaniyati inson shaxsining psixologik xususiyatlari - xarakteri, feʼl-atvori, shaxsiy tarbiyasi, tajribasi, emotsional holati va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bogʻliq. Masalan, E. Makarova oʻz tadqiqotlarida muloqot madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida atrof-muhit, pedagogik taʼsir va oila muhitining hal qiluvchi rol oʻynashini qayd etadi. Ayniqsa oʻspirinlik davrida bu jarayon sezilarli darajada jadallashadi, chunki bu bosqichda yoshlar oʻz shaxsini izlash, mustaqil fikr yuritish va jamiyatdagi oʻz oʻrnini anglashga intilishadi (Makarova E., 2018). Shuningdek, tadqiqotchi A. Jichkina yoshlarning muloqot madaniyatini ikki asosiy turkumga ajratadi: normativ va normativ boʻlmagan xatti-harakatlar. Normativ xatti-harakatlar bu — ijtimoiy qabul qilingan, madaniyat meʼyorlariga mos boʻlgan muloqot shakllari boʻlib, ular koʻpincha oila, maktab, doʻstlar va ommaviy axborot vositalari taʼsirida shakllanadi. Bunga xushmuomalalik, hurmat, sabr-toqat, empatiya va boshqalarni tinglash madaniyati kiradi. Aksincha, normativ boʻlmagan xatti-harakatlar esa — bu jamiyat tomonidan rad etilgan, odob-axloq meʼyorlariga zid boʻlgan muloqot uslublaridir. Bunday xatti-harakatlar koʻpincha eʼtiborsizlik, tajovuzkorlik, haqoratli soʻzlashuv yoki manipulyativ uslublar orqali namoyon boʻladi (Zhichkina A., 2018).

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, shaxsda qaysi turdagi muloqot uslubi ustun boʻlishi, koʻp jihatdan uning oilaviy tarbiyasi, pedagogik muhit, psixologik qoʻllab-quvvatlash va atrof-muhit bilan bogʻliqdir. Past darajadagi muloqot madaniyati odamlar oʻrtasida sovuqlik, tushunmovchilik va nizolarga olib kelishi mumkin, yuqori darajadagi muloqot madaniyati esa insonlarda boshqalarni tushunish, hurmat qilish, sogʻlom va samarali fikr almashish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Bugungi kunda yoshlar, ayniqsa oʻspirinlar orasida muloqotning asosiy maydonlaridan biri sifatida ijtimoiy tarmoqlar yetakchi oʻrin egallamoqda. Bu esa yoshlarning muloqot madaniyati shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir koʻrsatmoqda. Avvalgi bosqichlarda oila, maktab va real ijtimoiy muhit asosiy kommunikativ tajriba manbai boʻlib xizmat qilgan boʻlsa, hozirgi raqamli davrda ushbu rolning katta qismini virtual makon — xususan, ijtimoiy tarmoqlar egallamoqda. Ushbu oʻzgarish esa muloqotning sifati, mazmuni va shaklida jiddiy farqlarni keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlarda olib borilayotgan muloqot koʻp hollarda normativ boʻlmagan xatti-harakatlar bilan boyitilgan boʻlib, bu holat oʻspirinlarning muloqot madaniyatini shakllantirishda salbiy omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Anonimlik, real javobgarlik yoʻqligi, tezkor va nazoratsiz fikr bildirish imkoniyati kabi xususiyatlar ijtimoiy tarmoqlarda agressiv, tajovuzkor, kinoyali va manipulyativ muloqot uslublarining keng tarqalishiga sabab boʻlmoqda. Bunday muloqot shakllari esa yoshlarning empatiya, sabr-toqat, hurmat, tinglash kabi muhim ijtimoiy-psixologik koʻnikmalarining rivojlanishini cheklaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oʻspirinlar orasida muloqot madaniyati muammolarini oʻrganishda virtual makonda yuz berayotgan kommunikativ jarayonlarni chuqur psixologik tahlil qilish zaruriyati tugʻiladi. Ayniqsa, yoshlarning psixologik rivojlanish davriga xos psixologik oʻzgarishlar — oʻzini namoyon qilishga intilish, tengdoshlar bilan fikr almashish ehtiyoji, mustaqillikka boʻlgan talab ularni ijtimoiy tarmoqlarda faolroq boʻlishga undaydi. Shu bilan birga, bu holat ularning kommunikativ xatti-harakatlariga sezilarli ta’sir koʻrsatadi va real hayotdagi muloqot uslublarini ham oʻzgartiradi. Shunday qilib, zamonaviy ijtimoiy muhitda, ayniqsa raqamli makonda muloqot olib borayotgan oʻsmirlarning muloqot madaniyatiga ijobiy va salbiy ta’sir koʻrsatadigan omillarni aniqlash, ularning normativ yoki normativ boʻlmagan kommunikativ faoliyatini baholash, ushbu faoliyatning shaxs taraqqiyotiga ta’sirini oʻrganish bugungi psixologik tadqiqotlar uchun dolzarb yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Raqamlashtirish va axborotlashtirish davrida oʻspirinlarning muloqot madaniyatini oʻrganishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

– zamonaviy jamiyatda shaxslararo muloqotni cheklovchi va oʻspirinlarning virtual makondagi tarmoq muloqotiga chuqur shoʻngʻishini taʼminlovchi yangi turdagi muloqot madaniyatining keng tarqalishi;

– raqamli avlodning muloqot madaniyati bilan anʼanaviy muloqot madaniyati, jumladan, fikrlash madaniyati, hissiyotlar madaniyati va nutq madaniyati oʻrtasidagi chuqur tafovutlar;

– jamiyat va taʼlim tizimining axborotlashtirilishi va raqamlashtirilishi sharoitida oʻspirinlar muloqot madaniyatini shakllantirishga boʻlgan ijtimoiy ehtiyoj, shuningdek, raqamli avlod oʻspirinlarining muloqot madaniyatini rivojlantirish nazariyasining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi va bu jarayon uchun samarali pedagogik vositalarning yetishmasligi (Tsyvunina A., 2019).

Zamonaviy raqamli makon, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar oʻspirinlarning shaxsiy rivojlanishi va muloqot madaniyatiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yuz berayotgan muloqot shakllari koʻpincha yuzma-yuz muloqotdagi psixologik ifoda, empatiya, javobgarlik kabi ijtimoiy kompetensiyalarni chetlab oʻtadi. Bunday muloqotda bevosita hissiy aloqaning yoʻqligi, ijtimoiy rollarning susayishi va virtual identifikatsiyaning kuchayishi natijasida oʻspirinlarda muloqot madaniyatining buzilishi, shaxslararo munosabatlarda muammolar yuzaga chiqmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻspirinlarning raqamli muloqot madaniyati ularning ijtimoiylashuv jarayonida asosiy rol oʻynaydi. Mazkur tadqiqot shuni koʻrsatdiki, oʻspirinlar oʻzaro muloqotda koʻpincha salbiy emotsiyalarni nazorat qilolmaslik, begona fikrga nisbatan bagʻrikenglikning pastligi, ijtimoiy masofaning saqlanmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu esa muloqot madaniyatini ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida shakllantirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar, ilmiy xulosalar hamda psixolog olimlarning tajribalari hamda fikrlariga asoslanib oʻspirinlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz:

1) Empatiya va oʻzaro tushunishni rivojlantirish: Psixologiya nazariyasida empatiya va oʻzaro tushunish ijtimoiy muloqotning asosi sifatida qaraladi. Shuning uchun oʻspirinlar uchun empatiya va faol tinglash kabi koʻnikmalarni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan treninglar va amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish zarur. Bu, oʻspirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar bilan muloqotda boʻlishida samarali va hurmatga asoslangan aloqalar oʻrnatishlariga yordam beradi.

2) Raqamli savodxonlikni oshirish: Raqamli muloqotning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini yoritgan psixologik manbalarga asoslanib, oʻspirinlarga raqamli

platformalarda to‘g‘ri va mas’uliyatli muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu dasturlar ijtimoiy tarmoqdagi axborotning haqiqatga mosligi, kiberbullying va onlayn xatti-harakatlarning psixologik ta’siri haqida o‘qitishni o‘z ichiga olishi kerak.

3) Ijtimoiy tarmoqlarda konstruktiv va axloqiy xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash: Psixologik nazariyalarda ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy xatti-harakatlar, mas’uliyat va o‘zaro hurmat kabi psixologik me’yorlar muhim hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoq platformalarida foydalanuvchilar uchun axloqiy qoidalar va yo‘riqnomalar ishlab chiqish va bu qoidalarni doimiy ravishda targ‘ib qilish zarur. Bu foydalanuvchilarning onlayn muloqotda ko‘proq mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishiga va zararli xatti-harakatlarning oldini olishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boyd D. (2014). It’s complicated: The social lives of networked teens. – New Haven: Yale University Press.

2. K. Subrahmanyam, D. Šmahel. (2011). Digital youth: The role of media in development. – New York: Springer.

3. Makarova E. (2018). Comprehension of written utterances’ communicative structure by Russian learners of English // The European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, № 45. – P. 156–163. https://doi.org/10.15405/epsbs.2018.04.02.22

4. P. Valkenburg, J. Peter. (2011). Online communication among adolescents: An integrated model of its attraction, opportunities, and risks // Journal of Adolescent Health, № 48. – P. 121–127. https://doi.org/10.1016/j.jadohealth.2010.08.020

5. S. Livingstone, J. Sefton-Green. (2016). The class: Living and learning in the digital age. – New York: NYU Press.

6. S. Hinduja, Patchin J. (2020). Bullying beyond the schoolyard: Preventing and responding to cyberbullying (2nd ed.). – Thousand Oaks: Corwin Press.

7. Tsyvunina A. (2019). The communicative culture of adolescents in the era of informatization and digitalization // European Proceedings of Social and Behavioral Sciences, № 82. – P. 698–705. https://doi.org/10.15405/epsbs.2020.08.02.91

8. Turayeva D. (2024). Muloqot san’ati inson faoliyatining eng muhim vositasi sifatida // Yangi O‘zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali. https://phoenixpublication.net

9. Vygotsky L. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. – Harvard: Harvard University Press.

10. Zhichkina, A. (2018). Social and psychological aspects of communication on the internet. Flogiston. http://flogiston.ru/articles/netpsy/refinf

## REFERENCES:

1. Boyd D. (2014). It’s complicated: The social lives of networked teens. – New Haven: Yale University Press.

2. K. Subrahmanyam, D. Šmahel. (2011). Digital youth: The role of media in development. – New York: Springer.

3. Makarova E. (2018). Comprehension of written utterances’ communicative structure by Russian learners of English // The European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, № 45. – P. 156–163. https://doi.org/10.15405/epsbs.2018.04.02.22

4. P. Valkenburg, J. Peter. (2011). Online communication among adolescents: An integrated model of its attraction, opportunities, and risks // Journal of Adolescent Health, № 48. – P. 121–127. https://doi.org/10.1016/j.jadohealth.2010.08.020

5. S. Livingstone, J. Sefton-Green. (2016). The class: Living and learning in the digital age. – New York: NYU Press.

6. S. Hinduja, Patchin J. (2020). Bullying beyond the schoolyard: Preventing and responding to cyberbullying (2nd ed.). – Thousand Oaks: Corwin Press.

7. Tsyvunina A. (2019). The communicative culture of adolescents in the era of informatization and digitalization // European Proceedings of Social and Behavioral Sciences, № 82. – P. 698–705. https://doi.org/10.15405/epsbs.2020.08.02.91

8. Turayeva D. (2024). Muloqot san’ati inson faoliyatining eng muhim vositasi sifatida // Yangi O‘zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali. (In Uzbek) https://phoenixpublication.net

9. Vygotsky L. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. – Harvard: Harvard University Press.

10. Zhichkina, A. (2018). Social and psychological aspects of communication on the internet. Flogiston. http://flogiston.ru/articles/netpsy/refinf

# MUZEY PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHIDA KONSEPSIYAVIY YONDASHUVLAR

# CONCEPTUAL APPROACHES IN THE FORMATION OF MUSEUM PEDAGOGY

# КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИКИ

**Yunusov Komiljon Alimdjanovich**
*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti mustaqil izlanuvchisi*
*Tel.: +998 94 650-44-12*
*E-mail: komiljonyunuszoda@gmail.com*
*ORCID: 0009-0005-4921-0943*

**Annotatsiya**: Ushbu maqola muzey pedagogikasining konsepsiyaviy asoslarini shakllantirishda muzey ilmiy konsepsiyasi rolini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi muzey pedagogikasi metodologiyasini ishlab chiqishda har bir muzeyning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq ilmiy konsepsiyalarni yaratish va ular asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tahlil qilishdir. Maqolada fanlararo yondashuv orqali muzeyshunoslik, pedagogika, psixologiya va tarix fanlaridan olingan ma’lumotlar qiyosiy va tanqidiy tahlil qilindi. Muzey pedagogikasiga oid mavjud ilmiy ishlarni o‘rganish natijasida muzey konsepsiyasining ta’limiy faoliyatni rivojlantirishdagi samarali jihatlari aniqlandi. Tadqiqotda har bir muzeyning o‘ziga xos ilmiy konsepsiyasi mavjud bo‘lishi va konsepsiya asosida muzey ishi yuritilishi muzey pedagogik faoliyatining sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi isbotlandi. Maqola yakunida muzey xodimlari, pedagoglar hamda muzeyshunos mutaxassislar uchun foydali ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalar o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar**: *muzey ilmiy konsepsiyasi, muzey pedagogikasi, ekspozitsiya, ta’lim, ma’rifiy faoliyat, auditoriya, o‘ziga xos yondashuvlar*.

**Abstract**: This article examines the role of a museum’s scientific concept in shaping the conceptual foundations of museum pedagogy. The study aims to analyze the development of museum pedagogy methodologies by creating scientific concepts tailored to the unique characteristics of each museum and organizing pedagogical activities based on these concepts. Employing an interdisciplinary approach, data from museology, pedagogy, psychology, and history were subjected to comparative and critical analysis. The review of existing research on museum pedagogy revealed the effective contributions of museum concepts to the development of educational

activities. The study demonstrates that the presence of a museum-specific scientific concept and the organization of museum activities based on this concept are critical factors in enhancing the quality and effectiveness of museum pedagogical practices. The article concludes with practical recommendations of value to museum professionals, educators, and museology specialists.

**Keywords**: *museum scientific concept, museum pedagogy, exhibition, education, enlightenment activities, audience, tailored approaches.*

**Аннотация**: Статья посвящена исследованию роли научной концепции музея в формировании концептуальных основ музейной педагогики. Цель исследования заключается в анализе разработки методологии музейной педагогики путем создания научных концепций, соответствующих уникальным особенностям каждого музея, и организации педагогической деятельности на их основе. С применением междисциплинарного подхода были проанализированы данные из музееведения, педагогики, психологии и истории с использованием сравнительного и критического анализа. В результате изучения существующих научных работ по музейной педагогике выявлены эффективные аспекты влияния музейной концепции на развитие образовательной деятельности. Исследование доказывает, что наличие уникальной научной концепции музея и организация музейной деятельности на ее основе являются ключевыми факторами повышения качества и эффективности педагогической практики музея. В заключение статьи предлагаются практические рекомендации, представляющие ценность для музейных работников, педагогов и специалистов в области музееведения.

**Ключевые слова**: *научная концепция музея, музейная педагогика, экспозиция, образование, просветительская деятельность, аудитория, индивидуализированные подходы.*

## KIRISH

Ma’lumki, har qanday davlat o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib taraqqiyot yo‘lini belgilaydi. Qulay logistik salohiyatga ega mamlakatlar, yoki ulkan neft zaxiralariga ega yurtlar yildan-yilga boyib, rivojlanib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston, dengizga chiqish imkoniyati eng qiyin bo‘lgan hudud sifatida, tabiiy boyliklariga nisbatan aholi soni yuqori hisoblangan respublika o‘laroq, o‘zi uchun mos rivojlanish strategiyasini tuzishga majbur. Mana shunday murakkab masalalar qarshisida tariximizga nazar tashlasak, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olimlarning aksariyati Markaziy Osiyo farzandlari ekani kishiga umid bag‘ishlaydi. Shu boisdan vaziyatni to‘g‘ri baholagan hukumatimiz mustaqillikning ilk yillaridan boshlab tarixiy shaxslarimizning nomlarini tiklashga, muzeylar tashkil etib

aholimizning ishonchini mustahkamlashga, ta’lim tizimiga e’tibor orqali yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lishiga jiddiy e’tibor qaratib kelmoqda. Zero, eng katta boylik aql-zakovat bo‘lsa, eng og‘ir qashshoqlik bilimsizlikdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”[1], “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2], “Ta’lim to‘g‘risida”[3], “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”[4] kabi qarorlar qabul qilingani ushbu maqsad yo‘lidagi sa’y-harakatlar sanaladi.

Biroq, natijalarning kutilgan darajada bo‘lmagani, ba’zi qonun va qarorlarning qayta qabul qilingani masalaga chuqur va keng qamrovda yondashish lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan jahon tajribasi hamda muzeyshunos va pedagoglarning taklif va tavsiyalarini hisobga olib, ta’lim tizimining ilm-fan va madaniyat bilan integratsiyasini ta’minlash haqida, xususan, muzey pedagogikasi borasida, uning yoshlar ta’lim-tarbiyasi hamda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shu o‘rinda O‘zbekiston muzeylari jahon sivilizatsiyasiga bemisl hissa qo‘shgan ajdodlarimizning ilmiy asarlarini, ulardan qolgan madaniy meros namunalarini saqlab namoyish etib kelayotganini hisobga olsak, yoshlarning tarix, geografiya, astronomiya, matematika, tibbiyot, mineralogiya, adabiyot, hadisshunoslik, fiqh va boshqa ko‘plab fan sohalaridagi bilimlarini mustahkamlashda, ularning ilm-fanga qiziqishini oshirishda, ajdodlarimizning namunali faoliyatini ibrat sifatida ko‘rsatishda muzeylar ulkan salohiyatga ega. Buning uchun muzey pedagogikasiga jiddiy e’tibor berish talab etiladi. Ammo, muzey pedagogikasi bo‘yicha ishlab chiqilayotgan metodologiyalarni barcha muzeylar uchun birdek tatbiq etishning imkoni mavjud emasligini, har bir muzeyning o‘ziga xos shart-sharoitlari borligini hisobga olsak, bu borada eng to‘g‘ri yechim muzeylar ilmiy konsepsiyalari asosida muzey pedagogikasini ishlab chiqish ekanligi ayon bo‘ladi. Shu sababli mazkur maqolada muzey pedagogikasini shakllantirishda muzey konsepsiyasining ahamiyati, muzeylarning ma’rifiy yo‘nalishdagi o‘rni hamda o‘quvchilarning kreativ qobiliyati va tafakkurini rivojlantirishda ekskursiyalarning roli haqida ba’zi mulohazalar bildiriladi. Maqolada dolzarbligi ta’kidlanayotgan masala yechimi keng qamrovli bo‘lib, shunchaki muzey faoliyatini isloh qilish bilan muammo hal bo‘lmasligiga urg‘u bergan holda, ta’lim tizimi, muzeylar faoliyati, ilmiy konsepsiyalar, milliy qadriyatlarni hisobga olishdek kompleks yondashuv taklif etiladi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 630-son qarori, 29.12.1994. Manba: https://lex.uz/ru/docs/-2329020

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 99-son qarori, 14.03.1996. Manba: https://lex.uz/docs/-397141

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son Qonuni, 29.08.1997. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-16188

[4] O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi 463-I-son Qonuni, 29.08.1997.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Muzey pedagogikasi sohasidagi tadqiqotlar so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa muzeylarning ta’limdagi rolini qayta ko‘rib chiqish va ularning jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy funksiyalarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Maqolaning ushbu qismida muzey pedagogikasining shakllanishida konsepsiyaviy yondashuvlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator adabiyotlar tahlil qilinadi.

Jumladan, Matjaž Duh o‘zining “The Function of Museum Pedagogy in the Development of Artistic Appreciation” maqolasida muzey pedagogikasining estetik tarbiya va badiiy idrokni rivojlantirishdagi roliga ko‘proq urg‘u beradi. Muallif muzeylar faqatgina bilim ulashish maskani emas, balki o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va estetik tabni shakllantiruvchi muassasa ekanligini ta’kidlaydi. Biroq, muzey pedagogikasi vazifalariga e’tibor qaratilgani bilan konsepsiyaviy asoslar alohida ta’kidlanmaganini aytib o‘tish mumkin (Duh M., 2015).

P. Hansson va J. Öhman esa “Museum education and sustainable development: A public pedagogy” nomli maqolasi bilan muzey pedagogikasi qanchalik barqaror taraqqiyotga hissa qo‘sha olishini tahlil qiladi. Mazkur tadqiqotchilar ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda muzey pedagogikasining o‘rniga e’tibor qaratishadi. Shu sababli, muzey pedagogikasini shakllantirish, bu borada konsepsiyaga tayanib maxsus pedagogik dastur ishlab chiqish ular uchun ustuvor ahamiyat kasb etmagan (Hansson P., Öhman J., 2022).

Rossiyalik tadqiqotchilar Y. Komarovskaya va V. Axunov “Культурно-образовательная деятельность музеев и музейная педагогика” maqolasida muzeylarning madaniy-ma’rifiy faoliyatini tahlil qilib, muzey pedagogikasining tarixiy va zamonaviy rivojlanishini ko‘rib chiqadilar. Ular muzeylarning ta’limdagi rolini oshirishda interfaol metodlar va ko‘rgazmalar orqali o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish lozimligiga diqqatni qaratgan holda muzey konsepsiyasi rolini ta’kidlashmagan (Комаровская Е., Ахунов В., 2009).

B. Stolyarov va A. Boyko o‘z ishlarida badiiy muzeylarning ta’lim tizimi bilan integratsiyasini tahlil qiladilar. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan nashr etilgan “Концепция педагогического взаимодействия художественного музея и системы образования” nomli maqolada biz muzey pedagogikasining ta’lim bilan hamkorligi haqida o‘qiymiz. Ayniqsa, bu hamkorlikning konsepsiya asosida yo‘lga qo‘yilishi tadqiqotning ilmiy ishimizga mavzu jihatdan yaqin ekanligini ko‘rsatadi (Столяров Б., Бойко А., 1998). Biroq, pedagogik hamkorlik konsepsiyasi muzey ilmiy konsepsiyasidan farq qilishini hisobga olsak, bu masalada bo‘shliq qolib ketayotganiga amin bo‘lamiz. Shu sababli, quyida muzey ilmiy konsepsiyasi xususida, uning asosida yaratiladigan ikkilamchi konsepsiyalar haqida fikr yuritiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida mavzuga oid manbalar tizimli ravishda tahliliy ko‘rib chiqildi. Qiyosiy metod orqali muzey konsepsiyasiga eng yaqin deb hisoblangan adabiyotlar saralab olindi. Shuningdek, fakt-chekking usuli orqali to‘plangan ma’lumotlarning xolisligi tekshirildi. Natijada, muzeyshunoslik, tarix, pedagogika va psixologiya fanlari qamrovida muzey pedagogikasining shakllanishidagi konsepsiyaviy yondashuvga oid masalaga yechim berishga harakat qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muzey pedagogikasi shakllanishidagi konsepsiyaviy yondashuvlar haqida fikr bildirishdan oldin muzey konsepsiyasi haqida ma’lumot berib o‘tgan ma’qul. Muzey ilmiy konsepsiyasi bu biror muzey uchun maxsus ishlab chiqiladigan dastur bo‘lib, unda muzey missiyasi, maqsadi, vazifalari, kelgusi yillar uchun strategiyalari, ustuvor qadriyatlari aks ettiriladi. Uning kirish qismida muzey va uning tarixiga oid ma’lumotlar beriladi va ekspozitsiyasi haqida ham qisman to‘xtalib o‘tish mumkin. Mana shu konsepsiya orqali muzey haqida yetarli tasavvur hosil bo‘lishi lozim. Eng asosiysi, konsepsiya muzeyning boshqa muzeylar ichida qaysi betakror xususiyatlari bilan alohida o‘ringa ega ekanini ta’kidlashi kerak, aks holda muzey o‘z mavqeiga ega bo‘lmaydi.

Muzey ilmiy konsepsiyasi bosh konsepsiya bo‘lib, uning asosida ekspozitsiya konsepsiyasi, muzey fondi konsepsiyasi, ilmiy tadqiqot konsepsiyasi, ilmiy-ma’rifiy faoliyat konsepsiyasi, ilmiy noshirlik faoliyati konsepsiyasi, hamda muzey boshqaruvi va xo‘jalik faoliyati konsepsiyasi alohida ishlab chiqiladi. Bular qatorida, ko‘pchilik muzeyshunoslar ta’kidlaganidek, muzey pedagogik faoliyati konsepsiyasi ham ishlab chiqiladi. Bundan maqsad, muzeyda amalga oshiriladigan ishlar tartibga solinib, tizimli ravishda olib boriladi, xodimlarning vazifalari taqsimlangan holda mafkuraviy yo‘nalish ham belgilanadi. Pedagogik faoliyat konsepsiyasida strategiyalar qayd etilib, bosqichma-bosqich mazkur faoliyat rivojlantirib boriladi. Muzeyning asosiy konsepsiyasi esa muzeyning ilmiy tadqiqot ishlarini, ekspozitsion faoliyatini, hamda ekskursiya xizmatini pedagogik tomonga yo‘naltirish orqali soha rivojiga hissa qo‘sha oladi. Muzey pedagogikasi xususida tahlillarga kirishilayotgan ayni shu o‘rinda mazkur atamaga oid ta’riflar bilan ham tanishib chiqish foydadan holi bo‘lmasdi.

Ko‘plab olimlar, jumladan, A. Mavrulov, T. Misheva, L. Shlyaxtina, B. Stolyarov hamda A. Boyko kabi tadqiqotchilar muzey pedagogikasi tushunchasini deyarli bir xil ifodalashgan. Ya’ni, muzey pedagogikasi bu muzey muhiti sharoitlarida o‘tmish tajribalari, tarixiy, ma’rifiy, madaniy qadriyatlarni pedagogik jarayon orqali kelajak avlodga yetkazishdan iborat alohida fan sohasidir, deya tushuntirishgan (Mavrulov A., Saidboboyev Z., 2018; Мышева Т., 2007; Шляхтина Л., 2021; Столяров Б., Бойко

A., 1998). Mening fikrimcha, muzey pedagogikasi bu muzey muhitida yo‘lga qo‘yilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, o‘quvchi-talabalarga ma’naviy-madaniy meros namunalarini namoyish etish jarayonida ma’rifiy jihatlarga ustuvorlik berishdir. Bu orqali muzeyda ta’lim jarayoni tashkil etiladi, yoshlarning bilimlari boyitilishi bilan birga dunyoqarashi kengaytiriladi, kreativ fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi, hayotga qadriyatlar nazari bilan boqish hissi shakllantiriladi. Ayni shu maqsadlar yo‘lida, Germaniya muzeylarida pedagogik faoliyat dunyoda birinchilardan bo‘lib yo‘lga qo‘yila boshlandi va “muzey pedagogi” nomli yangi mutaxassislik vujudga keldi (Abdullayev D., Muxamedova M., 2024: 198).

Keyingi davrlarda ta’lim-tarbiyaga yanada ko‘proq e’tibor berilishi muzeylarning ham pedagogik faoliyatda ishtirok etishiga olib keldi. Bu orqali hozirgi sivilizatsiyalashgan zamonda o‘zining munosib o‘rnini topa oladigan yetuk shaxslarni yetishtirish nazarda tutiladi (Abdullayev D., Muxamedova M., 2024: 200). Buning uchun ekspozitsiyalarni maktab o‘quv dasturlariga moslab tashkil etish, o‘qituvchi, o‘quvchi va muzey o‘rtasidagi hamkorlik, maktab o‘qituvchilarini muzey ilmiy xodimlari tomonidan malakasini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish davr talabiga aylandi (Abdullayev D., Muxamedova M., 2024: 202). Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son qarorida muzeylardagi ekspozitsiyalar orqali qo‘shimcha bilim berilishi va ma’lumot olinishi mumkin bo‘lgan tarix, madaniyat va jamiyatshunoslik kabi yo‘nalishlar bo‘yicha bevosita pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish vazifasi belgilab qo‘yilganini ta’kidlash joiz.

Ta’lim tizimida muzeylar ishtirokining ta’minlanishiga sabablardan biri shuki, muzeylar yosh avlodlarga bilim berishda maktablardan ba’zi ustun jihatlarga ega. Masalan, tabiat muzeylari o‘quvchilarning o‘simlik, daraxt, hasharot va hayvon turlari, ularning hayot tarziga oid muhim ma’lumotlarni tez va oson o‘rganishi uchun ajoyib imkoniyatlar taqdim etadi. Psixologik jihatdan, diqqat kuchli qaratilgan ma’lumot osonroq yodda qolishi hisobga olinsa, bolalarning muzey ashyolariga diqqat qaratib, o‘z ko‘zlari bilan real ko‘rib turgan ashyosi haqida foydali ma’lumotlarni eshitishi ularning xotirasida bir umr muhrlanishiga yordam berishi mumkin. Xuddi shu tarzda, Turin politexnika muzeyi va Aloqa tarixi muzeylarida olamshumul ixtirolar bilan, tarix muzeylarida insoniyat erishgan madaniy yutuqlar bilan, san’at va adabiyot muzeylarida esa inson ijodkorlik qobiliyatining cheksiz imkoniyatlari bilan tanishish mumkin. Bu orqali yoshlar o‘zlarini iste’dodli inson sifatida tabiatning bir qismi, qolaversa, vatanning bir bo‘lagi deb his etadilar.

Muzeydagi ma'rifiy faoliyat muzey maqsadidan kelib chiqib amalga oshiriladi (Duh M., 2015: 88). Hozirgi vaqtda muzeylarning ma'rifiy faoliyatini rivojlantirish, buning uchun ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish davr talabiga aylanmoqda. Bunda muzeylar universitetlar kabi talabalarga bilim olish uchun turli yo'nalishlar taqdim etadi. Buning uchun esa, muzey ashyolari ekspozitsiyada shunchaki qiziqarli tarzda emas, balki, tashrif buyuruvchilarning bilimlarini boyitish uchun maqsadli va tizimli namoyish etilishi zarur (Duh M., 2015: 89).

Shu sababli, bugungi kunga kelib ko'plab muzeylar ma'rifat bo'limlariga ega va bu bo'lim xodimlari maktab o'quvchilari uchun muzey muhitidagi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqdalar (Hansson P., Öhman J., 2022: 471).

Masalan, Shimoliy Karolina Tabiiy fanlar muzeyi o'quvchilar uchun 15 soatlik maxsus dastur ishlab chiqqanini, ekologik savodxonlikni oshirish uchun uchta laboratoriya va bitta dala qo'riqxonasi tashkil etganini, tashrifchilarga ko'plab flora va fauna turlarini tanishtirishini eslab o'tish mumkin. Shuningdek, AQShning boshqa muzeylari ham yozgi ta'til davomida universitetlar uchun alohida kurslar taklif etadi (Bunday kurslar odatda to'lovli bo'lib, muzeylar pedagogik sohada ko'rsatgan xizmati uchun pul ishlab topish hamda moliyaviy holatini mustahkamlash imkoniyatiga ega) (Ibodov I., 2023: 529).

Metropoliten muzeyida esa shanba-yakshanba kunlari talabalar va kattalar uchun ma'ruzalar o'qiladi. Shuningdek, maktab o'quvchilari uchun tarix, geografiya kabi fanlardan maktab dasturiga mos ma'rifiy faoliyat yo'lga qo'yilgan. Shu jihatlar bilan Metropoliten muzeyi boshqa muzeylarga ibrat bo'la oladi. Sababi, hamma muzeylarning ham pedagogik faoliyati ta'lim dasturlariga muvofiq kelmaydi (Abdullayev D., Muxamedova M., 2024: 201).

Muzeylarning ko'rgazmali ashyolarga ega ekanligi o'quvchilar uchun maktab darslaridan-da qiziqarliroq dasturlarni taqdim etishi mumkinligini anglatadi. Ayni shu imkoniyatdan unumli foydalangan holda o'quvchilarning bilimlarini oshirishda qiziqarli dasturlar taklif qilish mumkin. Muzey pedagoglaridan esa, tashrifchilarning yoshi va qiziqishidan kelib chiqqan holda maxsus yondashuv asosida xizmat ko'rsatish talab etiladi. Misol sifatida aytadigan bo'lsak, bolalarni qadimiy yodgorliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatishda, madaniy meros namunalariga nisbatan hurmat hissini shakllantirishda turli o'yinlarni taklif etish mumkin. Xususan, haqiqiy bo'lmagan yaltiroq tangalar, metall buyumlar, sopol idishlar kabi "yodgorlik"larni qumga berkitib qo'yib, yosh bolalar uchun "arxeologik ekspeditsiya" tashkil etish mumkin. Balki bu kelajakda malakali arxeologlar yetishib chiqishiga zamin yaratar. Bolalar qum uyumlarini kovlab, o'z mehnati va izlanishlari evaziga topilmalarni qazib olar ekan, ular eng kamida shu buyumlarning nomlarini eslab

qoladilar. Bundan oladigan zavqlarini esa bir umr unutmaydilar. Bu esa bolalarni yoshlik vaqtidan ilm-fanga qiziqtirishning bir pedagogik usuli hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, auditoriya yoshiga qarab turli qiziqarli dasturlar taqdim etish murakkab masaladir. Eilean Hooper-Greenhill fikriga ko‘ra, muzey va tashrifchilar o‘rtasidagi munosabatning ma’rifiy-pedagogik tomoni ko‘plab bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Muzey ma’rifiy faoliyati konsepsiyasi yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramay, aynan qaysi jihatlar ustuvor deb hisoblanishi, qanday maqsadlar muhim deb topilishi xususida munozaralar davom etmoqda. “Yetarlicha bilim mavjud emasligi tufayli muzey pedagogikasi haqida ham tasavvurlarimiz to‘la shakllanmagan, bu esa muzeydagi pedagogik soha aynan qanday shakl va tartibda bo‘lishi hamon mavhum bo‘lib qolmoqda” (Hooper-Greenhill E., 2000: 1). Yevropalik mutaxassislarni o‘ylantirayotgan mazkur masalani, qisman bo‘lsa-da, muzey ilmiy konsepsiyasi orqali tartibga solish mumkin. Muzeylar o‘z nomi, yo‘nalishi va missiyasidan kelib chiqib ilmiy konsepsiyada ustuvor vazifalarni belgilaydi va shunga sodiq qolgan holda pedagogik faoliyat konsepsiyasini ishlab chiqadi. Ba’zi tashrifchilar bunga tanqidiy munosabatda bo‘lishi esa subyektiv fikr sifatida qaralmog‘i lozim. Misol uchun, Temuriylar tarixi davlat muzeyida o‘quvchilar uchun mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga bosqini haqida, yoki O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi jarayoni haqida yetarlicha ma’lumot berilmasligi tanqid qilinmasligi lozim, deb hisoblayman. Sababi, bu muzey konsepsiyasi temuriylar davrini yoritishga qaratilgan. Auditoriya fikri bu o‘rinda konsepsiya qamrovi doirasida inobatga olinishi kerak deb hisoblayman.

AQSh va Yevropadagi ba’zi muzeylar daromad topish maqsadida brendini mustahkamlayotgan kompaniyalarning mahsulotlarini ko‘rgazma zallarida namoyish etmoqda, bu kompaniyaning paydo bo‘lish va rivojlanish tarixi haqida hikoya qilmoqda. Tan olish kerakki, zamonaviy muzeylardan tashqari boshqa muzeylarda bunday tadbirlarni qo‘llash ularni asosiy maqsadlaridan uzoqlashtiradi. Bu esa barcha tashrifchilarga ham ma’qul kelmaydi.

Shu bois, mazkur masalaga oid bahslar tufayli muzeylar o‘z ijtimoiy rolini qayta shakllantirmoqda, tashrif buyuruvchilar manfaatlariga mos maqomda o‘rnini belgilamoqda (Hooper-Greenhill E., 2000: 150).

Ayni o‘rnida muzeylar faoliyatida ro‘y bergan muvaffaqiyatsiz ko‘rgazmalardan birini ibrat uchun eslab o‘tish mumkin. 1988-yilda Kanadaning Calgary shahridagi Glenbow muzeyida bo‘lib o‘tgan “The Spirit Sings: Artistic Traditions of Canada’s First Peoples” ko‘rgazmasi ko‘plab insonlarning noroziligiga sabab bo‘ladi. Oqibatda ko‘rgazmaga homiylik qilgan Shell Oil kompaniyasi mahsulotlariga xalqaro darajada boykot e’lon qilinib, ularning mahsulotlarini xarid qilish to‘xtatiladi. Bundan tashqari, ushbu ko‘rgazmaga namoyish uchun eksponatlarini vaqtincha yuborgan muzeylar, qaytarib olgandan keyin ham ularni o‘z muzeylarida ham namoyish etishni

to‘xtatishgan... Xo‘sh, o‘zi nima bo‘lgandi? Gap shundaki, ko‘rgazma Kanadada yashovchi tub xalqlar madaniyati haqida bo‘lib, uning g‘oyasida kolonialistik yondashuv mavjud edi va eng asosiysi, bu ko‘rgazmani tashkil etishda mahalliy xalq vakillari ishtiroki ta’minlanmagan. Qisqasi, mahalliy xalq madaniyatiga oid ko‘rgazma tub aholi fikrlari bilan hisoblashmagan holda noxolis namoyish etilgan. Ayni shu holat odamlar orasida, asosan, tub xalqlar ichida katta norozilikka sabab bo‘lgan. Yuzaga kelgan bu jiddiy muammoni hal qilish uchun Birinchi Millatlar Assambleyasi (Assembly of First Nations) va Kanada Muzeylar Assotsiatsiyasi (Canadian Museums Association) milliy ishchi guruh tuzadi. Ishchi guruh 1992-yilda “Turning the Page: Forging New Partnerships Between Museums and First Peoples” nomli hisobotni e’lon qildi. Bu hisobotdan quyidagi bandlar o‘rin oldi:

- Muzeylar va mahalliy xalqlar o‘rtasida teng huquqli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga AKT va ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni taqqoslama tahlil qilish, muammolarni aniqlash, kuzatuvlarni amalga oshirish, hamda ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi lozim bo‘lgan raqamli texnologiyalar bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davr insondan umrbod ta’lim olishni, ya’ni o‘z hayotiy faoliyati davomida muntazam kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirib borishni taqozo etmoqdaki, albatta bu raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda Internet texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Internet texnologiyalarga asoslangan ta’lim shakllaridan biri bu masofaviy ta’limdir. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi ta’lim to‘g‘risidagi qonunining 16-moddasida “Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”, - deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Umumta’lim maktab rahbar rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligi turli xil axborotlarni tezkor o‘zlashtirish qobiliyati bilan xarakterlanuvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hisoblanib, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p darajali kompetentlik hisoblanadi va u motivatsion, kasbiy-faoliyat va refleksiv-kommunikativ komponentlardan tashkil topadi. Ta’lim tizimi xodimlarining axborot-kommunikatsion kompetentligi axborot yo‘naltiruvchi, tashkiliy, konstruktiv,

kommunikativ va rivojlantiruvchi funksiyalarga ega bo‘lib, subyektivlik, tarkibiy, dinamiklik, integrativlik va yarim funksional xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ta’lim tizimi xodimlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini baholash indikatorlariga boshqaruv jarayonlari bo‘yicha zamonaviy axborotlarni tezkor o‘zlashtirish, alternativ yechimlar tizimini yaratish va optimal qarorlar qabul qilish, axborotlarni qayta ishlash hamda mutaxassislik fanlari majmui bo‘yicha bilimlari, refleksiv kasbiy faoliyati bo‘yicha tajribalari, menejerlik madaniyati, menejerlik masalalarini samarali hal etish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘zining axborot kompetentligini mustaqil oshirib borish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash qobiliyatlarini kiritish mumkin.

Axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllantirish, uning modellari va asosiy komponentlari bo‘yicha yuqorida keltirilgan tahlillar umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligi bo‘yicha tizimli, aniq bir xulosa yo‘qligini ko‘rsatadi. Turli ilmiy-tadqiqot ishlarida axborot-kommunikatsion kompetentlik komponentlari turlicha ko‘rsatilgan bo‘lib, bo‘lajak menejerlarni tayyorlash sohasida axborot kompetentlikni shakllantirishning mezonlari, mazmuniy tarkibi, pedagogik shart-sharoitlari to‘liq ochib berilmagan.

Shuningdek, yuqorida tahlil etilgan tadqiqot ishlari aynan axborot kompetentlikni shakllantirishga oid bo‘lsa-da, ularda masofaviy ta’lim muhitida ushbu kompetentlikni rivojlantirish masalalari yoritilmagan.

Hozirgi globallashuv davri va axborotlar asrida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, kelajakda rivojlanishi bashorat qilinayotgan yangi texnologiyalar (bulutli, additiv, 3D pechat, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlovchi robotlar, modellashtirish, ya’ni dinamik obyektlarning virtual nusxalari)ni ishlab chiqarishga kirib kelishi bo‘lajak boshqaruv kadrlari, ya’ni menejerlarning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Bo‘lajak menejerlarning axborot-kommunikatsion kompetentligi bevosita uning kasbiy funksiyalari va vazifalaridan kelib chiqib shakllantirilishi lozim. Ta’lim muassasalarining tezkor o‘zgaruvchan sharoitlar, qonunchilik, raqobatchilik, jamiyatdagi qadriyat va ma’naviyat tizimlari, jamoa qarashlari, innovatsion texnika va texnologiyalar sharoitida faoliyat yuritishini hisobga olib, menejer o‘z vazifalarni amalga oshirishda menejmentning tamoyillari, nazariyasi, andozalar, ma’lumotlarga ishlov berish, boshqarish qonunlaridan foydalana bilishi talab etiladi (Qosimov G‘., 2002). Bo‘lajak menejerlarning axborot-kommunikatsion kompetentligini samarali shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari deganda, bizning ta’rifimiz bo‘yicha “Axborotlashgan innovatsion ta’lim muhitida mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni uni ishlab chiqarishdagi kasbiy faoliyati davrida rivojlantirishga qaratilgan o‘z-o‘zini rivojlantirish va baholash

jarayonlari majmui tushuniladi”. Ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlar majmui axborot kompetentlikning barcha komponentlarini (kognitiv, motivatsiyali, refleksiv, kommunikativ va b.) bosqichma-bosqich shakllantirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi zarur. Bunday pedagogik sharoitlarni amalga oshirish murakkab, maqsadga yoʻnaltirilgan, oʻzaro bogʻliq va ilmiy asoslangan pedagogik jarayondan iborat boʻlib, uni quyidagi yoʻllar orqali amalga oshirish mumkin boʻladi:

- umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini nazariy-metodologik asoslashga tizimli va kompetentlik nuqtayi nazaridan yondashish;
- innovatsion ta’lim muhitida ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda axborot kompetentlikni shakllantirishga konseptual yondashish;
- umumta’lim muassasa rahbarlarini axborotlar bilan ishlash jarayonidagi subyektiv shart-sharoitlarni (umumta’lim muassasa rahbarlarining Internet tizimi orqali mustaqil axborotlarni olishi, oʻz-oʻzini rivojlantirish va baholash qobiliyatlarini shakllantirish masalalari va h.k.) e’tiborga olish;
- umumta’lim muassasa rahbarlarining hamkorlikda ishlay olish qobiliyati, loyihaviy va ilmiy-ijodiy faoliyatga yoʻnaltirilgan faoliyatini tashkil etish, ularning faolligini oshirishda AKT vositalaridan keng foydalanish;
- axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va shart-sharoitlar diagnostikasi va monitoringini olib borish.

Umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari axborot-kommunikatsion boʻyicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda mutaxassislarning axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirishda uning komponentlari, innovatsion ta’lim muhiti, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv oʻqitish metodlaridan foydalanish darajasi, elektron ta’lim resurslari hamda Internet tarmogʻi orqali mustaqil axborotlar olish jarayonlari atroflicha oʻrganilgan, lekin masofaviy ta’lim muhitida mutaxassislarning axborot kompetentligini shakllantirish muammolari toʻliq ilmiy oʻrganilmaganligi aniqlangan.

Yuqoridagi tahlillar asosida boʻlajak umumta’lim muassasa rahbarlarining masofaviy ta’lim asosida axborot kompetentligini shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashda rahbarlarning axborot-kommunikatsion kompetentligini axborotlashgan ta’lim muhitida shakllantirish va axborotlashgan jamiyat muhitida rivojlantirish kabi bosqichlarga ajratamiz.

Axborotlashgan ta’lim muhiti – menejerlarning ta’lim muassasasidagi oʻqish jarayoni, ya’ni masofaviy oʻqish platformalari (“Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi), elektron kutubxonalar, video va audio mashgʻulotlar, telekommunikatsiya oʻquv

loyihalari va boshqa internet manbalar orqali qisman yoki to‘liq o‘qituvchi nazoratida axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va foydalanish jarayonlarini o‘z ichiga oladi (Yakubjonova D., 2012).

Axborotlashgan jamiyat global ijtimoiy jarayon va umumjamiyat ishlab chiqarish sohasida yetakchi faoliyat turi bo‘lib, zamonaviy mikroprotsessor va kompyuter texnikalari hamda axborot almashinuvida foydalaniladigan boshqa turli xil texnik vositalar yordamida axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va foydalanish jarayonlari majmuidir. Bunda axborot-kommunikatsion kompetentlikni rivojlantirish jarayoni sifatida qaraladi va bu rahbar xodimlarning kasbiy-hayotiy faoliyati davomida “Butun umr davomida o‘qish” tamoyili asosida amalga oshishi nazarda tutiladi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish quyidagi vazifalarni nazarda tutadi:

- rahbarning fikrlash va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, “bulutli texnologiyalar”, vebinar, onlayn ma’ruza, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalari, ularning asosiy komponentlari va ta’limdagi imkoniyatlari haqida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish;
- murakkab nostandart vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish yoki muammo yechimi bo‘yicha aniq takliflar berish malakasini shakllantirish (masalan, faoliyatni optimallashtirishga yo‘naltirilgan kompyuter o‘yinlaridan foydalanish orqali va h.k.);
- kompyuterli modellashtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda rahbarlarning tadqiqot-izlanish faoliyatini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchining axborot madaniyatini, axborotlardan to‘g‘ri foydalanish va unga ishlov berish qobiliyatlarini shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan faoliyat turlari malaka oshirish kurslari tinglovchilari, professor-o‘qituvchi va raqamli texnologiyalar o‘rtasida axborotlashgan o‘zaro ta’sir bilan asoslanadi va u umumta’lim muassasa rahbarlarida axborot-kommunikatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilaydi. Shuningdek, ta’limni va jamiyatni axborotlashtirish, axborotlashtirishda masofaviy ta’limdan keng foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarining asosi hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida B. Blum taksonomiyasi asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasa rahbarlarining boshqaruv faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalari tahlil qilindi (1-jadvalga qarang). Mazkur kompetensiyalar uchta mezonlar asosida belgilandi: boshqaruv faoliyatini axborotlashtirish funksiyalarini anglash (kognitiv), boshqaruvga oid axborot

jarayonlarini optimallashtirish (faoliyatli) va boshqaruvda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash motivlarini rivojlantirish (motivatsion).

**1-jadval.**

**B. Blum taksonomiyasi bo‘yicha direktorlarning axborot-kommunikatsion kompetensiyalari**

| Mezon | Daraja | Kompetensiya |
|---|---|---|
| Kognitiv | **Bilish (K1)** | umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarish va rivojlantirish jarayonlarida qo‘llaniladigan zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish samaradorligini bilish qobiliyati |
| | **Tushunish (K2)** | boshqaruv samaradorligini oshirish va ta’lim muassasasining axborot-boshqaruv muhitini rivojlantirishi uchun zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning imkoniyatlarini tushuntirib berish qobiliyati |
| Faoliyatli | **Qo‘llash (K3)** | zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni maktabni boshqarish jarayonlarida qo‘llash qobiliyati |
| | **Tahlil qilish (K4)** | zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida maktab jarayoniga taalluqli ma’lumotlarni tezkor ravishda yig‘ish, tahlil etish va vizuallashtirish; yakka joyda tizimli ravishda saqlash; reja va hisobotlarni birgalikda shakllantirishni tashkil etish qobiliyati |
| Motivatsion | **Sintez (K5)** | shaxsiy axborot-boshqaruv muhitini innovatsion axborot-boshqaruv muhitiga integratsiyalash qobiliyati |
| | **Baholash (K6)** | globallashuv axborotlashtirish sharoitida boshqaruv faoliyati natijalarini tanqidiy baholash asosida ta’lim muassasasini rivojlantirish qobiliyati. |

Belgilangan kompetensiyalar asosida umumta’lim muassasa rahbarlarining zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalari aniqlandi.

Adaptiv (past) daraja umumta’lim muassasa rahbarlari axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi bilim va ko‘nikmalar mavjudligini nazarda tutadi, lekin ulardan boshqaruv faoliyatida foydalanish uchun kompetensiyalar yetarli emas.

Integrativ (o‘rta) daraja umumta’lim muassasa rahbarlarining zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasida mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini axborot-boshqaruv muhitiga integratsiyalash qobiliyatiga ega bo‘ladi, lekin ta’lim muassasaning rivojlanishiga erisha olmaydi.

Kreativ (yuqori) daraja global axborotlashtirish sharoitida boshqaruv faoliyati samaradorligini rivojlanishiga olib keladi.

B. Blum taksonomiyasi asosida ishlab chiqilgan axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini dinamik ravishda murakkablashtirib borilishi ochib berilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Adabiyotlar tahlili natijasida global axborotlashtirish sharoitida umumiy o‘rta ta’lim muassasa rahbarlari boshqaruv samaradorligiga erishish uchun ularning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga zarurligi asoslandi. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim maktab rahbarlarining boshqaruv kompetentligi tarkibida axborot-kommunikatsion kompetentligi alohida belgilanib, uning mazmun-mohiyati aniqlangan va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish asosida maktabning innovatsion axborot-boshqaruv muhitini shakllantirish talabi belgilangan;

2. Axborot-kommunikatsion kompetentlikka oid amalga oshirilgan mamlakatimiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy adabiyotlar tahlillari asosida umumta’lim muassasa rahbarlarining axborot-kommunikatsion kompetentligini masofaviy ta’lim muhitida shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari hamda ta’limni va jamiyatni axborotlashtirishga oid mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi;

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasa rahbarlarining zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan boshqaruv faoliyatda foydalanish kompetensiyalarini baholash uchun boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish yo‘llarini bilish (kognitiv), boshqaruvga oid axborot jarayonlarini optimallashtirish (faoliyatli) hamda axborot-menejerlik motivlarni rivojlantirish (motivatsion) mezonlari belgilandi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- umumta’lim muassasa rahbarlarida boshqaruv kompetentligini “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali rivojlantirish maqsadida interaktiv videoma’ruza va amaliyotga yo‘naltirilgan vebinarlarga asoslangan tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;
- umumta’lim muassasa rahbarlarining boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan sohasidagi muhim yutuqlariga samarali asoslangan foydalanish uzluksiz kasbiy rivojlantirishning muqobil shakllarini amaliyotga joriy etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son. 2023-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

3. Begimqulov U. (2007). Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari (Monografiya). – Toshkent: Fan.

4. Карпенко А. (2012). Формирование информационной компетентности современного менеджера (Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук). – Калуга.

5. Кизик О. (2003). К вопросу о становлении информационной компетентности как составляющей профессиональной компетентности выпускника профессионального лицея // В Материалы научно-методической конференции «Университеты в образовательном пространстве региона: опыт, традиции и инновации» (Часть 1). – Петрозаводск. – С. 23–25.

6. O. Raximov, H. Ro‘ziev, M. Murodov. (2016). Ta’lim sifati va innovatsion texnologiyalar (Monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya.

7. S. Gulyamov, R. Alimov va boshqalar. (2000). Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Sharq.

8. С. Быков, Н. Гнездилова. (2007). Модель управления развитием информационной компетентности специалиста-менеджера // Вестник ТГУ, № 8.

9. Темербекова А. (2009). Формирование информационной компетентности учителя в региональной системе дополнительного профессионального образования (Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук). – Москва: Московский педагогический государственный университет.

10. Тришина С. (2012). Информационная компетентность как педагогическая категория // Вестник ТГУ, № 9.

11. Tursunov S. (2011). Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari (pedagogika oliy ta’lim muassasalari - Web-dizayn fani misolida) (Ped. fan. dok. diss.). – Toshkent.

12. Qosimov G‘. (2002). Menejment: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston.

13. Шомуродов Ш. (2022). Педагогические условия формирования информационной компетенции у будущих менеджеров в дистанционном образовании // Образование и инновационные исследования, № 6. – С. 147–152.

14. Якубджонова Д. (2012). Формирование информационной компетентности студента вуза посредством интерактивных технологий // Молодой ученый, № 9. – С. 323–325.

## REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son. 2023-yil. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. (In Uzbek)

3. Begimqulov U. (2007). Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari (Monografiya). – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

4. Karpenko A. (2012). Formirovanie informatsionnoy kompetentnosti sovremennogo menedjera (Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk). – Kaluga. (In Russian)

5. Kizik O. (2003). K voprosu o stanovlenii informatsionnoy kompetentnosti kak sostavlyayushey professionalnoy kompetentnosti vipusknika professionalnogo litseya // V Materiali nauchno-metodicheskoy konferensii «Universiteti v obrazovatelnom prostranstve regiona: opit, tradisii i innovasii» (Chast 1). – Petrozavodsk. – S. 23–25. (In Russian)

6. O. Raximov, H. Ro‘ziev, M. Murodov. (2016). Ta’lim sifati va innovatsion texnologiyalar (Monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya. (In Uzbek)

7. S. Gulyamov, R. Alimov va boshqalar. (2000). Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Sharq. (In Uzbek)

8. S. Bikov, N. Gnezdilova. (2007). Model upravleniya razvitiem informatsionnoy kompetentnosti spesialista-menedjera // Vestnik TGU, № 8. (In Russian)

9. Temerbekova A. (2009). Formirovanie informatsionnoy kompetentnosti uchitelya v regionalnoy sisteme dopolnitelnogo professionalnogo obrazovaniya (Avtoreferat dissertasii na soiskanie uchenoy stepeni doktora pedagogicheskix nauk). – Moskva: Moskovskiy pedagogicheskiy gosudarstvenniy universitet. (In Russian)

10. Trishina S. (2012). Informatsionnaya kompetentnost kak pedagogicheskaya kategoriya // Vestnik TGU, № 9. (In Russian)

11. Tursunov S. (2011). Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari (pedagogika oliy ta’lim muassasalari - Web-dizayn fani misolida) (Ped. fan. dok. diss.). – Toshkent. (In Uzbek)

12. Qosimov G‘. (2002). Menejment: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

13. Shomurodov Sh. (2022). Pedagogicheskie usloviya formirovaniya informatsionnoy kompetensii u budushix menedjerov v distansionnom obrazovanii // Obrazovanie i innovatsionnie issledovaniya, № 6. – S. 147–152. (In Russian)

14. Yakubdjonova D. (2012). Formirovanie informatsionnoy kompetentnosti studenta vuza posredstvom interaktivnix texnologiy // Molodoy ucheniy, № 9. – S. 323–325. (In Russian)

# АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

# TIBBIYOT OTM TALABALARI ORASIDA INGLIZ TILIDAGI KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

# ANALYSIS OF THE PROBLEMS IN DEVELOPING ENGLISH-LANGUAGE PROFESSIONAL COMPETENCE AMONG MEDICAL STUDENTS

**Исраилов Джахонгирхон Джамшидхонович**

*Старший преподаватель Ташкентской медицинской академии*

*Тел.: +998 90 900-99-98*

*E-mail: j.d.israilov@gmail.com;*

*https://orcid.org/0009-0008-8193-795X*

**Аннотация**: В статье проводится комплексный анализ проблем формирования профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов. Рассматриваются методико-дидактические, психологические и организационные барьеры, среди которых – несоответствие содержания курсов требованиям профессиональной подготовки, ограниченность аутентичных материалов, слабая интеграция с клиническими дисциплинами, а также низкий уровень мотивации и языковая тревожность студентов. Особое внимание уделено необходимости перехода к жанрово-ситуативному обучению, внедрению мультимодальных ресурсов, медиатехнологий и междисциплинарных подходов. Особое место занимает внедрение аутентичных профессиональных текстов. Подчёркивается важность формирования устойчивой речевой среды, в которой английский язык выступает не только учебным предметом, но и инструментом профессионального мышления, коммуникации и принятия решений в условиях глобализированной медицинской практики.

**Ключевые слова**: *медицинский английский, профессиональная компетенция, ESP, проблемы изучения языка, аутентичные материалы, мотивация.*

**Annotatsiya**: Maqolada tibbiyot oliygohlari talabalari orasida ingliz tilidagi kasbiy chet til kompetensiyasini shakllantirishdagi muammolar kompleks tahlil qilinadi. O‘quv kurslari mazmunining kasbiy tayyorgarlik talablariga mos kelmasligi, autentik materiallarning yetishmasligi, klinik fanlar bilan zaif integratsiya, talabalarning past motivatsiyasi va til xavotiri kabi metodik-didaktik, psixologik va tashkiliy to‘siqlar ko‘rib chiqiladi. Janrga asoslangan va situatsion yondashuvga o‘tish,

multimodal resurslar, media texnologiyalar va fanlararo metodlarni joriy etish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Ayniqsa, autentik kasbiy matnlarni tatbiq etish muhim o‘rin egallaydi. Ingliz tili faqat o‘quv fani emas, balki kasbiy tafakkur, muloqot va qaror qabul qilish vositasi sifatida faol ishlatiladigan barqaror nutqiy muhitni shakllantirish zarurligi urg‘ulanadi.

**Kalit so‘zlar**: *tibbiy ingliz tili, kasbiy kompetensiya, ESP, til o‘rganish muammolari, autentik materiallar, motivatsiya.*

**Abstract**: The article provides an in-depth analysis of the challenges in developing professional English language competence among medical university students. It discusses key methodological, psychological, and organizational barriers such as course content misalignment with professional needs, lack of authentic materials, weak integration with clinical disciplines, low motivation, and language anxiety. Emphasis is placed on adopting a genre-based and situational approach, integrating multimodal resources, media technologies, and interdisciplinary methods. The inclusion of authentic professional texts is highlighted. The article underscores the importance of creating a supportive language environment where English serves not only as a subject of study but also as a tool for professional reasoning, communication, and decision-making in global medical practice.

**Keywords**: *Medical English, professional competence, ESP, language learning challenges, authentic materials, motivation.*

## ВВЕДЕНИЕ

Современная медицинская практика неразрывно связана с глобальными коммуникационными процессами, где английский язык выступает основным инструментом междисциплинарного и международного взаимодействия. Владение английским языком становится неотъемлемым условием участия в научных симпозиумах, доступе к актуальной литературе, прохождении зарубежных стажировок, а также в повседневной врачебной практике, особенно в многоязычной среде. Медицинский английский, как специфическая разновидность профессионального языка, требует от обучающихся не только базового лингвистического уровня, но и владения терминологическим аппаратом, прагматическими нормами дискурса, жанровыми особенностями текстов и навыками адаптации к речевым моделям врачебной коммуникации.

Умение читать научные статьи, составлять клинические отчёты, вести устный и письменный диалог с коллегами и пациентами на английском языке становится важным показателем профессиональной готовности будущего специалиста. Однако на практике подготовка в области медицинского английского в большинстве вузов ограничивается формальным курсом,

содержание которого часто не соответствует целям профессиональной подготовки. Курсы ориентированы преимущественно на грамматический материал и базовую лексику, в то время как сложные жанры, такие как case report, referral letter, patient summary, остаются за рамками обучения. Это приводит к формированию несбалансированной языковой компетенции, в которой преобладают рецептивные навыки (чтение и перевод), тогда как продуктивные (говорение и письмо в профессиональной сфере) оказываются недостаточно развитыми.

Тем не менее, несмотря на формальное наличие курсов английского языка в учебных планах большинства медицинских вузов, наблюдается значительное отставание в развитии именно профессиональной англоязычной компетенции. Причины данного отставания многоплановы и требуют комплексного анализа. Среди них – методологические пробелы в обучении ESP (English for Specific Purposes), ограниченность доступа к аутентичным материалам, неподготовленность преподавателей к ведению специализированных дисциплин, а также отсутствие междисциплинарной интеграции языка и клинических знаний. Всё это указывает на необходимость переосмысления подходов к обучению медицинскому английскому в рамках высшей школы.

## АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Проблематика формирования англоязычной компетенции в медицинской сфере активно рассматривается в рамках методик ESP (English for Specific Purposes), получивших широкое распространение в последние десятилетия. Как подчёркивает Hyland, успешное обучение профессиональному английскому требует жанрово-ориентированного подхода и тесной связи с реальным профессиональным контекстом (Hyland K., 2006: 42). Basturkmen отмечает, что формирование профессиональной компетенции требует точной адаптации содержания курса к целевой аудитории, включая специфическую терминологию, формы устной и письменной речи, характерные для медицины (Basturkmen H., 2010: 66). Gledhill, в свою очередь, анализирует структуру case reports и подчёркивает необходимость их использования как модели для обучения академическому письму в медицинском дискурсе (Gledhill C., 2005: 21).

Особую значимость представляют исследования И.Х.Исраиловой, в которых предлагается комплексный подход к преподаванию медицинского английского языка на основе медиатехнологий и аутентичного контента. Так, в статье, посвящённой проблемам развития коммуникативной компетенции у студентов медиков, подчёркивается влияние психолингвистических факторов — страха ошибиться, неуверенности и отсутствия внутренней мотивации — на

активность студентов в речевых практиках (Исраилова И., 2021: 82–83). Автор делает вывод о необходимости создания безопасной речевой среды и постепенного усложнения заданий на основе реальных клинических сценариев.

В следующем исследовании рассматривается эффективность использования аутентичных фильмов как средства формирования ситуативной и терминологической компетенции. Использование диалогов врач–пациент и фрагментов медицинских сериалов рассматривается как эффективная альтернатива традиционным текстам, способствующая не только лучшему запоминанию лексики, но и освоению речевых стратегий взаимодействия (Исраилова И., 2023: 138).

Статья, опубликованная в журнале Ilm sarchashmalari, акцентирует внимание на педагогических аспектах медиаподходов, включая необходимость экспериментального подтверждения их эффективности. Автор подчёркивает, что использование медиатехнологий требует разработки новых критериев оценки и гибкой структуры курса (Исраилова И., 2022: 141).

Особый вклад в развитие темы вносит исследование, опубликованное в Eurasian Research Bulletin, где освещены экстралингвистические барьеры, в том числе недостаточная подготовка преподавателей, слабая межкафедральная координация и ограниченность доступа к зарубежным ресурсам. Эти факторы, как показывает автор, непосредственно влияют на качество усвоения языка студентами и степень его интеграции в профессиональную практику (Israilova I., 2023: 57).

## МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологической основой статьи стал теоретико-аналитический подход, опирающийся на синтез и интерпретацию научной и методической литературы, посвящённой проблемам формирования профессиональной англоязычной компетенции в медицинском образовании. В рамках данного подхода особое внимание уделяется анализу педагогических, лингвистических и психолого-дидактических концепций, разработанных в контексте преподавания английского языка для специальных целей (ESP — English for Specific Purposes). Также проводится систематизация и сопоставление отечественных и зарубежных подходов к обучению медицинскому английскому языку. Теоретическая база исследования включает труды таких авторов, как T. Hutchinson и A. Waters, которые подчёркивают важность целенаправленного обучения, ориентированного на потребности конкретной профессиональной аудитории (Hutchinson T., Waters A., 1987: 19). Цель исследования – выявить глубинные причины затруднений, возникающих в процессе овладения

профессиональной речью, и определить векторы развития современных и эффективных методических решений на теоретическом уровне.

## АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Формирование профессиональной англоязычной компетенции в медицинских вузах представляет собой сложный, многоуровневый процесс, который выходит за рамки традиционного обучения иностранному языку. Его специфика заключается в необходимости интеграции трёх сфер: лингвистической, когнитивной и профессиональной. Подтверждая это, Hyland подчёркивает, что обучение профессиональному английскому требует тесной связи с реальными условиями профессионального дискурса и жанровой дифференциации содержания (Hyland K., 2006: 42). Подобную позицию разделяют и отечественные исследователи, такие как Зимняя И.А., указывающая на необходимость когнитивной и мотивационной поддержки обучающихся в процессе формирования специализированных компетенций.

1. **Методико-дидактическое несоответствие целям обучения**

Одной из наиболее острых проблем является несоответствие содержания учебных курсов реальным потребностям будущих врачей. Программы чаще всего опираются на General English, не охватывая глубоко профессиональную лексику, жанровое разнообразие и специфику медицинского дискурса. Это расхождение приводит к тому, что студенты воспринимают курс как абстрактную учебную дисциплину, а не как инструмент профессионального роста. Basturkmen подчёркивает, что отсутствие точной адаптации содержания к нуждам конкретной дисциплины значительно снижает эффективность ESP-обучения (Basturkmen H., 2010: 66). И.Исраилова также указывает на фрагментарность восприятия языка студентами, обусловленную отсутствием целостной методической стратегии (Исраилова И., 2021: 82–83).

2. **Недостаточная аутентичность используемого материала**

Аутентичность материалов — ключ к формированию речевой гибкости и терминологической точности. Тем не менее, в большинстве случаев используются адаптированные тексты, которые не отражают реалии врачебной практики. Gledhill подчеркивает, что знакомство студентов с жанрами case report и patient summary через оригинальные тексты способствует формированию академического письма и понимания дискурсивных норм (Gledhill C., 2005: 21). Эффективность аутентичных фильмов и клинических диалогов в обучении также подчёркивается И. Исраиловой (2023: 138).

3. **Ограниченность лингвистической базы студентов**

Слабая языковая подготовка студентов при поступлении, дефицит времени и отсутствие дополнительных языковых курсов не позволяют полноценно освоить сложные синтаксические структуры и терминологию. Hutchinson и Waters подчёркивают, что в таких условиях необходима специально выстроенная система поддержки, учитывающая уровень студентов и особенности профессионального языка (Hutchinson T., Waters A., 1987: 19). Без этого формируется языковой барьер, не позволяющий перейти от рецептивных к продуктивным навыкам.

4. **Отсутствие междисциплинарного взаимодействия**

Язык остаётся изолированным компонентом, в то время как должен быть встроен в клинический и научный контекст. Интеграция с профильными дисциплинами, как отмечают Dudley-Evans и St. John, позволяет студенту воспринимать язык как функциональный инструмент в своей профессиональной деятельности (Dudley-Evans, St. John, 1998: 30). Проектные методы, описанные в работах (Исраилова И., 2022: 140), подтверждают эффективность междисциплинарного моделирования клинических ситуаций.

5. **Социокультурные и психологические барьеры**

Психологическая неуверенность, страх ошибок, неумение соблюдать нормы вежливости в профессиональной речи мешают студентам участвовать в англоязычной коммуникации. В исследованиях В.В. Сафоновой подчёркивается значимость формирования социокультурной чувствительности и межкультурной толерантности как составляющей профессиональной подготовки. И.Исраилова в публикации в *Eurasian Research Bulletin* подчёркивает важность создания безопасной речевой среды и применения мультимодальных форм подачи материала как средства снижения тревожности и повышения вовлечённости студентов (Israilova I., 2023: 57–58).

Таблица, представленная в исследовании, демонстрирует системный подход к анализу ключевых барьеров, препятствующих формированию профессиональной англоязычной компетенции у студентов медицинских вузов. Её структура отражает причинно-следственные связи между педагогическими проблемами, их последствиями и возможными решениями, что делает её ценным инструментом для методической диагностики и стратегического планирования образовательного процесса. Особенность таблицы заключается в интеграции как лингводидактических, так и психологических факторов: от методологических ограничений и недостатка аутентичного контента до социоаффективных барьеров, влияющих на мотивацию и речевую активность студентов.

**Таблица 1.**

**Сопоставление ключевых проблем и решений в формировании профессиональной англоязычной компетенции студентов медицинских вузов**

| Проблема | Последствия | Рекомендуемые решения |
|---|---|---|
| Отсутствие жанровой дифференциации | Фрагментарное восприятие языка | Внедрение жанрового анализа и моделирование типовых профессиональных текстов |
| Недостаток аутентичного контента | Снижение интереса и слабое усвоение | Использование сериалов, клинических кейсов, статей и видеофрагментов |
| Слабая интеграция с клиническими дисциплинами | Непонимание связи языка с будущей профессией | Согласование тем и задач с клиническими кафедрами |
| Методологический консерватизм | Ограниченные коммуникативные навыки | Переход к ESP-модели и коммуникативно-деятельностным методикам |
| Низкая мотивация студентов | Пассивное участие в обучении | Введение проектных заданий, ситуационных игр, работа в парах и группах |
| Психологические барьеры (страх, неуверенность) | Избегание активной речевой деятельности | Создание поддерживающей и безопасной речевой среды |

Подчёркивается необходимость перехода от традиционных репродуктивных моделей обучения к более гибким и деятельностным форматам, в которых язык рассматривается как функциональный инструмент профессионального взаимодействия. В совокупности таблица иллюстрирует необходимость системных изменений в содержании, методике и организации преподавания медицинского английского языка, опираясь на принцип междисциплинарной интеграции и индивидуализации обучения.

## ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Теоретический анализ современных подходов к формированию профессиональной англоязычной компетенции в медицинских вузах позволяет сделать вывод о комплексном, системном и многоуровневом характере затруднений, с которыми сталкиваются как студенты, так и преподаватели. Эти трудности обусловлены не только содержанием и структурой учебных курсов, но и рядом глубинных факторов, среди которых — педагогическая несогласованность, фрагментарность методик, ограниченность ресурсов, а также недостаточное внимание к мотивационно-психологическим и когнитивным особенностям обучающихся. Особенно проблематичным представляется устойчивое воспроизведение устаревших подходов, при которых язык

преподаётся как изолированный учебный предмет, не связанный с профессиональной подготовкой и клинической практикой.

Отсутствие жанровой дифференциации в учебных материалах приводит к тому, что студенты не осваивают логические структуры, речевые клише и дискурсивные модели, характерные для медицинской документации и научного общения. Слабая интеграция курсов английского языка с клиническими дисциплинами подрывает прикладной характер обучения, формируя у студентов восприятие английского языка как формального требования, а не как необходимого инструмента профессионального развития. Методологический консерватизм, выражающийся в доминировании грамматико-переводной парадигмы, препятствует развитию продуктивных коммуникативных навыков, актуальных для клинической практики, научной презентации и междисциплинарного взаимодействия. Ограниченность аутентичных и мультимодальных ресурсов, а также недостаточная визуализация и медийная поддержка материала, значительно снижают вовлечённость студентов и затрудняют перенос знаний в реальные профессиональные ситуации.

Особую обеспокоенность вызывает тот факт, что обучение зачастую ведётся вне культурного, прагматического и этического контекста, что препятствует формированию социолингвистической гибкости и затрудняет адаптацию студентов к требованиям международной медицинской среды. В совокупности это формирует дефицит готовности к реальной профессиональной коммуникации и ограничивает академическую и профессиональную мобильность будущих врачей.

Преодоление указанных барьеров требует не просто обновления программных документов, а глубокой и системной трансформации самой парадигмы преподавания английского языка в медицине. Необходим переход к обучению, основанному на задачах профессиональной направленности, с активным использованием жанровых моделей, симуляций, клинических кейсов, ролевых игр и проектной деятельности. Усиление междисциплинарных связей между кафедрами иностранных языков и клинических дисциплин должно быть направлено на формирование сквозных компетенций, обеспечивающих межфункциональную грамотность студентов.

Ключевым условием успешных изменений выступает формирование устойчивой, поддерживающей и развивающей речевой среды, в которой английский язык будет не просто предметом изучения, а полноценным средством профессионального мышления, анализа и принятия решений. Такая среда должна учитывать индивидуальные особенности студентов, создавать условия для снижения тревожности, поощрять активное речевое поведение и

обеспечивать постоянную практику применения языка в клинически значимых ситуациях.

Кроме того, необходимо обеспечить непрерывную подготовку преподавателей, работающих на стыке медицины и лингвистики, способных разрабатывать междисциплинарные курсы, адаптировать сложные материалы под уровень студентов и внедрять современные педагогические технологии, в том числе цифровые и мультимедийные.

Создание такой образовательной среды, сочетающей научно обоснованные подходы, практическую значимость содержания и гибкость форм, станет основой для подготовки нового поколения специалистов. Эти врачи будут владеть английским языком не формально, а функционально – как инструментом клинического взаимодействия, академического общения и участия в международных профессиональных сообществах. В условиях усиливающейся глобализации, трансграничного обмена знаниями и мобильности медицинских кадров такая подготовка становится неотъемлемым компонентом конкурентоспособного и устойчивого медицинского образования XXI века.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Basturkmen H. (2010). Developing courses in English for specific purposes. – London: Palgrave Macmillan.

2. Gledhill C. (2005). The textual structure of case reports. English for Specific Purposes, № 24. – P. 21–36.

3. Hyland K. (2006). English for academic purposes. – London: Routledge.

4. Зимняя И. (2001). Психология обучения: Учебное пособие. – Москва: Логос.

5. Israilova I. (2023). Linguistic and extralinguistic factors that influence the process of formation of students’ communicative competence in medical English classes // Eurasian Research Bulletin, № 10. – P. 55–59.

6. Исраилова И. (2021). Проблемы развития коммуникативной компетенции на уроках английского языка у студентов медиков // Til va adabiyot ta’limi, № 6. – С. 82–83.

7. Исраилова И. (2022). Требования педагогического эксперимента и его соответствие на примере исследовательской работы по обучению английского языка посредством медиа технологий // Ilm sarchashmalari, № 7. – С. 139–142.

8. Исраилова И. (2023). Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов // Pedagogik mahorat, № 2. – С. 136–143.

9. Сафонова В. (2001). Культурология и межкультурное образование. – Москва: Владос.

10. T. Dudley-Evans, M. St. John. (1998). Developments in English for specific purposes. – Cambridge: Cambridge University Press.

11. T. Hutchinson, A. Waters. (1987). English for specific purposes: A learning-centred approach. – Cambridge: Cambridge University Press.

**REFERENCES:**

1. Basturkmen H. (2010). Developing courses in English for specific purposes. – London: Palgrave Macmillan.

2. Gledhill C. (2005). The textual structure of case reports. English for Specific Purposes, № 24. – P. 21–36.

3. Hyland K. (2006). English for academic purposes. – London: Routledge.

4. Zimnyaya I. (2001). Psixologiya obucheniya: Uchebnoe posobie. – Moskva: Logos. (In Russian)

5. Israilova I. (2023). Linguistic and extralinguistic factors that influence the process of formation of students' communicative competence in medical English classes // Eurasian Research Bulletin, № 10. – P. 55–59.

6. Israilova I. (2021). Problemi razvitiya kommunikativnoy kompetensii na urokax angliyskogo yazika u studentov medikov // Til va adabiyot ta'limi, № 6. – S. 82–83. (In Russian)

7. Israilova I. (2022). Trebovaniya pedagogicheskogo eksperimenta i ego sootvetstvie na primere issledovatelskoy raboti po obucheniyu angliyskogo yazika posredstvom media texnologiy // Ilm sarchashmalari, № 7. – S. 139–142. (In Russian)

8. Israilova I. (2023). Effektivnost obucheniya meditsinskomu angliyskomu yaziku pri formirovanii kommunikativnix navikov posredstvom autentichnix filmov // Pedagogik mahorat, № 2. – S. 136–143. (In Russian)

9. Safonova V. (2001). Kulturologiya i mejkulturnoe obrazovanie. – Moskva: Vlados. (In Russian)

10. T. Dudley-Evans, M. St. John. (1998). Developments in English for specific purposes. – Cambridge: Cambridge University Press.

11. T. Hutchinson, A. Waters. (1987). English for specific purposes: A learning-centred approach. – Cambridge: Cambridge University Press.

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

# EDUCATION AND UPBRINGING ISSUES DURING THE ERA OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

# ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

**Ganiyeva Muborak Adilovna**
*Tashkent International University*
*Tel.: +998 99 803-84-85*
*E-mail: muborakxonim@mail.ru*

**Annotatsiya**: Ushbu maqola Amir Temur va temuriylar davridagi ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanib, temurshunos olimlarning tadqiqotlari asosida tayyorlangan. Maqolada o'sha davrning ilmiy, madaniy va ta'lim sohasidagi yutuqlari atroflicha tahlil qilinadi. Temuriylar davrida ta'lim tizimining tuzilishi, tarbiyaviy qadriyatlar, nutq madaniyatining rivojlanishi, shariat qonunshunosligi, nahv ilmi va "Haftiyak" kabi adabiy asarlarning o'rni muhokama qilinadi. Amir Temurning tuzuklari ta'lim va tarbiyaga qanday ta'sir ko'rsatgani alohida e'tiborga olinadi. Tadqiqot davrning ijtimoiy-madaniy hayotida ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini va uning jamiyatdagi muhim rolini yoritadi. Maqola o'sha davr ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kun uchun dolzarbligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar**: *Temuriylar davrida ta'lim, tarbiya, tuzuklar, nutq madaniyati, din, shariat qonunshunosligi, nahv, Haftiyak.*

**Abstract**: This article is dedicated to the issues of education and upbringing during the era of Amir Temur and the Temurids, based on the research of Temurid scholars. It thoroughly analyzes the achievements in science, culture, and education of that period. The structure of the education system, educational values, the development of oratory culture, Islamic jurisprudence, the science of syntax, and the significance of literary works such as "Haftiyak" are discussed. Particular attention is paid to the influence of Amir Temur's ordinances on education and upbringing. The study highlights the unique characteristics of education in the socio-cultural life of the era and its pivotal role in society. The article aims to demonstrate the relevance of the Temurid education and upbringing system for today.

**Keywords**: *Education in the Temurid era, upbringing, ordinances, oratory culture, religion, Islamic jurisprudence, syntax, Haftiyak.*

**Аннотация**: Данная статья посвящена вопросам образования и воспитания в эпоху Амира Темура и Темуридов и подготовлена на основе исследований тимуроведов. В ней подробно анализируются достижения того периода в области науки, культуры и образования. Обсуждаются структура образовательной системы, воспитательные ценности, развитие культуры речи, исламское право, наука о синтаксисе и значение литературных произведений, таких как «Хафтияк». Особое внимание уделяется влиянию уставов Амира Темура на образование и воспитание. Исследование раскрывает уникальные особенности образования в социально-культурной жизни эпохи и его ключевую роль в обществе. Статья демонстрирует актуальность системы образования и воспитания тимуридской эпохи для современности.

**Ключевые слова**: *образование в эпоху Темуридов, воспитание, уставы, культура речи, религия, исламское право, синтаксис, Хафтияк.*

## KIRISH

Oʻrta Osiyoda moʻgʻullar hukmronlik qilgan davrda yurtimiz ta’lim-tarbiya tizimi faoliyati susaydi. Moʻgʻullar bon (osmon xudosi) diniga mansub boʻlib, islom diniga past nazar bilan qaragan va masjid, madrasalarning aksariyatini kazarma va otxonalarga aylantirganlar, ularni vayron qilganlar. Ular oʻlka hayotini har jihatdan tushkunlik va tanazzul girdobiga gʻarq etdilar.

Mana shunday ogʻir davrda ham xalqimiz ta’lim-tarbiyasini oʻylagan yurtning magʻrur va erksevar kishilari, bir tomondan muqaddas Vatan tuygʻusini dillariga mustahkam joylab, ozodlik va mustaqillik yoʻlida jonbozlik bilan kurash olib borgan boʻlsalar, ikkinchi tomondan esa, ular asriy xalq an’analari, udumlariga sodiq qolib yaratuvchanlik ishlari bilan mashgʻul boʻldilar. Zero, oʻlmas xalq dahosi yangi-yangi salohiyatli ijodkorlar avlodini yetishtira bordi. Shu boisdan ham sahroyi moʻgʻullar xarobazorga aylantirgan kultepalar oʻrnida koʻp oʻtmay yangidan koʻrkam shaharlar, me’morchilik obidalari qad rostlab, hayot yangidan izga tushib bordi. Tazyiqlarga qaramay, mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan ilmli-tarbiyali me’morlar, naqqosh-u hunarmandlar sa’y-harakati, mahorati bilan betakror moddiy madaniyat namunalari yaratilib, bundan oʻlka hayoti oʻzgacha fayz-u manzara kasb etib bordi.

Tariximizga nazar solar ekanmiz, ajdodlarimizning qadim-qadimdan ilm-u ma’rifatda, axloq va odobda ibrat boʻlib kelganlariga guvoh boʻlamiz. Xalqimizning bu ibrati IX-XII va XIV-XV asrlarda dunyoning boshqa xalqlariga ham oʻz ijobiy ta’sirini koʻrsatganligi va bugun ham koʻrsatayotganligini oʻzgalar ham e’tirof etmoqda. Aynan shu davrlarda yurtimizda voyaga yetgan buyuk zotlarning ijodlari va kashfiyotlarining dunyo ilm-fanida qoʻllanilayotganligi ham buning tasdigʻidir.

Amir Temur va temuriylar sulolasi oʻz davrida ta’lim va tarbiya rivojiga ham katta

hissasi qo‘shdi. Bu davrda ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat yuqori darajada rivojlandi. Ushbu davrda ta’lim jarayonlari faqat ilmiy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, insonning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlanishiga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amir Temur va temuriylar davrida ta’lim va tarbiya masalalari alohida o‘rin tutgan. Bu davrda ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab asarlar va manbalar orqali o‘rganilgan. Temuriylar davrida ta’lim tizimi va tarbiya sohasida mavjud bo‘lgan fikrlar va qarashlarni yorituvchi adabiyotlar turli manbalar, tarixiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar va boshqa muhim manbalarga asoslanadi. Ushbu tahlilda, Amir Temur va temuriylar davrida ta’lim va tarbiya masalalariga oid ba`zi bir adabiyotlarni ko‘rib chiqamiz.

Sharq tarixchisi, olim va siyosiy arbob Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” asarida ham Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyati tasvirlangan. Asar Amir Temur va uning davlatining harbiy muvaffaqiyatlaridan tashqari, uning ilm-fan va ta’limga bo‘lgan yuksak e’tiborni ham yoritadi. Temur o‘z hukmronligini ilm-fan bilan bog‘lagan va madaniy rivojlanishning zarurligini muntazam ta’kidlagan. “Zafarnoma”da, shuningdek, Temuriylar davlatining ilmiy va madaniy rivojlanishiga oid ma’lumotlar keltirilgan, bu esa ta’lim tizimi va tarbiya masalalari haqida muhim manba hisoblanadi.

Temuriylar davrida Xoja Ahror Valiy, Alisher Navoiy, Ulug‘bek kabi tarixiy shaxslarning asarlarida ham ilm-fan va ta’limga alohida e’tibor berilganligi haqidagi ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bu davrda Samarqand va Buxoroda ilmiy maktablar yaratilgan. Masalan, Alisher Navoiy “Xamsa” asarida ko‘plab ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni ifodalagan. Navoiy nafaqat adabiyot, balki axloqiy, ma’naviy tarbiya sohasida ham muhim ma’lumotlar qoldirgan.

Temurshunos olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar Temur va temuriylar davrining ilmiy va tarbiyaviy jarayonlariga bag‘ishlangan. Unda ilm-fan, madaniyat va ta’lim sohasidagi yutuqlar tahlil qilingan (Bobomurodova N., 2024).

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Amir Temur va temuriylar davridagi ta’lim-tarbiya masalalarini o‘rganish uchun tarixiy-tahliliy usul qo‘llanildi. Asosiy manbalar sifatida davrga oid yozma yodgorliklar, tarixiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida sifatli tahlil usullari, xususan, manbalarni solishtirish va kontekstual sharhlash amaliyoti qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv orqali ta’lim tizimining tuzilishi, tarbiyaviy qadriyatlar va ularning jamiyatdagi ta’siri yoritiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Temuriylar davridagi ta’lim tizimi va tarbiya masalalarini tahlil qilish orqali ushbu davrning o‘ziga xos xususiyatlari va bugungi ta’lim tizimi uchun qimmatli saboqlar olish mumkin. Quyida ushbu tahlil natijalarining asosiy xulosalarini keltiramiz. Amir Temur va uning avlodlari ta’lim va ilm-fanga katta e’tibor qaratgan. Temur o‘z hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga alohida ahamiyat bergan, bu esa uning davlat boshqaruvidagi muvaffaqiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Samarqand, Buxoro ilmiy va madaniy rivojlanishning muhim markazlariga aylangan. Temuriylar davrida ilmiy markazlar, madrasalar va kutubxonalar tashkil etilgan, ularning asosiy maqsadi nafaqat ilmli mutaxassislar tayyorlash, balki ulkan madaniy merosni yaratish edi.

Temuriylar davrida ta’lim diniy va dunyoviy yo‘nalishda olib borilgan. Diniy ta’lim madrasalarda Qur’on, hadis, fiqh, tafsir kabi diniy fanlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, dunyoqarashni rivojlantirish maqsadida ilmiy fanlar, masalan, astronomiya, matematika, falsafa va tibbiyot kabi sohalarda ham ta’lim berilgan. Ushbu ikki soha o‘zaro uyg‘unlashib, ilm-fan va ma’naviyatni birlashtirishga hissa qo‘shgan. Unda amaliy va nazariy bilimlarni birlashtirilgan. Bilimlarning amaliy qo‘llanilishiga katta e’tibor qaratilgan. Ta’lim berishda nafaqat nazariy bilimlar, balki kundalik hayotda foydalanish mumkin bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar ham o‘rgatilgan. Ta’limda ustozlarning o‘rni juda katta bo‘lgan, nafaqat bilim berish, balki axloqiy tarbiya ham muhim o‘rin egallagan.

Amir Temur va temuriylar davrida ta’lim masalalari haqida olib borilgan tahlil, bu davrda ta’limning ilm-fan, madaniyat va axloqiy tarbiya bilan bog‘langanligini ko‘rsatdi. Temuriylar davrining ta’lim tizimi o‘z zamonasi uchun yuksak darajada ilmiy va madaniy jihatdan rivojlangan bo‘lib, bugungi kunda ham ta’lim sohasidagi yuksak qadriyatlar va tamoyillarni o‘rganish va tatbiq etishda muhim manba hisoblanadi. Temuriylar davrining ta’lim va tarbiya masalalari nafaqat o‘z davrining, balki hozirgi kunda ham ta’lim jarayonlarini rivojlantirishda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Amir Temur hukmdor bo‘lgandan keyin ham ilmli, ma’rifatli kishilarni o‘z atrofiga to‘pladi, ilm, fan va madaniyatga homiylik qildi.

Amir Temur bu haqda o‘z tuzuklarida: “Sakkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o‘z atrofimga to‘pladim, har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so‘zlarini eshitib tajribam ortdi. Olamda bo‘layotgan voqealarni ulardan eshitardim va olam ahvolidan xabar topar edim”, deb yozgan edi.

Sohibqiron davlatni boshqarish, fuqarolarning turmush sharoitlarini yaxshilash ishlarida o‘zgalarning jo‘yali maslahatlaridan ham o‘rinli foydalangan. Shuningdek,

oʻz ona tili – turk, oʻzbek tilidan tashqari fors tilini ham mukammal bilgan. Zamonasi talabiga har tomonlama amaliy javob bera oladigan, tafakkuri chuqur inson boʻlgan. Temur oʻng va soʻl qoʻllarda birdek yozishni mashq qilgan. Keyinchalik esa mukammal husnixat bitishga, mohirlik bilan qilich chopishga oʻrgangan.

Amir Temurning oʻzi tiniq va ochiq turk shevasida yozardi. Uning yordami bilan nutq madaniyati, din, shariat qonunshunosligi, nahv (morfologiya, sintaksis), tafsir (Qur'on sharhi) ilmi rivojlanib bordi.

Amir Temur jahon tarixida oʻchmas iz qoldirgan buyuk inson. Temur shaxsi mashhurligining boisi, negizi nimada? Koʻp tarixiy dalillar guvohlik beradiki, u xudojoʻy, odil va orif oilada dunyoga kelib, yosh bolaligidanoq yaxshi tarbiya koʻrgan. Temur tirishqoq, oʻtkir zehnli, e'tiqodi mustahkam, mehnatdan qochmaydigan boʻlib oʻsgan. U hayot soʻqmoqlarini barvaqt anglagan, voqealarni chuqur tahlil qila bilgan va tegishli xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega boʻlgan. Sohibqiron davlat ishlarini maslahat-u mashvarat bilan olib borgan. Shu bilan birga, u mustaqil fikrga ham ega boʻlgan mulohazakor siymo boʻlgan. U saltanat ishlari xususida fikr yuritar ekan, qudrat kuchda emas, adolatdadir, degan falsafaning teran ma'nosini anglagan. Katta iste'dod va salohiyat sohibi Amir Temur jamiyat taraqqiyoti mazmunini, uning obyektiv qonunlarini va bu qonunlarni harakatga keltirish mexanizmini yaxshi anglagan buyuk davlat arbobi va mohir siyosatchi boʻlgan shaxs. Bunga ishonchli asos uning tuzuklaridir. Temur odamlar kayfiyatini, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqroq koʻra bilgan qobiliyatli siymo boʻlgan. Xullas, Sohibqiron oʻz faoliyatida iymon-e'tiqodga, aniq qonun-qoidalarga tayanib qattiqqoʻllik bilan saltanatni idora qilishga intilgan siyosiy arbob boʻlgan.

Amir Temurning ilmga qanchalik e'tiborli boʻlganidan guvohlik beruvchi bir misol keltiramiz. U mashhur orif Mahmud Shabistariyning "Gulshani roz" nomli kitobini qunt bilan oʻqib, undagi ma'naviy-ma'rifiy gʻoyalardan gʻoyatda ta'sirlanadi. Hokimiyatga erishib, Ozarbayjonni tasarruf qilgach, Mahmud Shabistariy vatani – Shabistar aholisini ardoqlab, jon boshiga besh misqoldan, hammasi boʻlib 18500 misqol oltin bagʻishlaydi.

Amir Temur va temuriy shahzodalar nafaqat oʻzlarining, hatto boshqalarning ham ilmdan bahra olishlari uchun imkoniyat yaratishgan, ilm-fan oʻchoqlari tashkil etishga bosh-qosh boʻlganlar va homiylik qilganlar, ta'lim-tarbiyani davlat darajasidagi ustuvor vazifa darajasiga koʻtarganlar. Ular qurdirgan madrasalarda oliy ta'lim berilgan (Bobomurodova N., 2024).

Temuriylar davrida ta'lim-tarbiyaga qanchalik e'tibor qaratilganligini temuriy malikalar ilmi va odobi misolida ham koʻrish mumkin. Saroy Mulkxonim (1341-1409, Bibixonim), Gavhar Shod Begim (1379-1457), Shod Mulk Xotun (1387-1411), Xadicha Begim (1451-1511), Gulbadan Begim (1523-1603), Mumtoz Mahal

(Arjumand Bonu, 1594-1631), Zebuniso Begim (1639-1702) larning ilm-u ma’rifati va odobi bugungi yoshlarimizga ham ibrat sifatida xizmat qilmoqda.

Saroy Mulkxonim (Bibixonim) buyuk Sohibqironning sevimli rafiqasi, bilimli, dono, oqila ayol sifatida Amir Temur faoliyatida muhim o‘rin tutgan. Olimimiz T. Fayziyevning ta’kidlashicha, Bibixonim o‘ta bilimli, ziyrak, tadbirkor bo‘lib, saltanat boshqaruvida vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Hukmdor Saroymulk xonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga qandaydir ehtiyoj sezib turgan.

Saroy Mulkxonim madrasa qurdirish uchun Amir Temurdan ruxsat olsa-da, uning qurilishi uchun otasi sovg‘a qilgan zeb-u ziynatlarni sottirgan, madrasa qurilishi jarayonida ustaboshiga maslahatlar berib turgan, madrasa ishga tushirilgach, tolibi ilmlarning ahvolidan tez-tez xabar olgan, ularga homiylik qilgan. Sohibqiron o‘g‘li Shohrux mirzoni, nabiralari Muhammad Sulton mirzo, Xalil Sulton mirzo, Ulug‘bek mirzo va boshqa mirzolarni bevosita zukko Saroy Mulkxonim tarbiyasiga topshirganligi ham uning o‘ta ma’rifatli, ma’naviyatli bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Amir Temur va temuriylar davlati ilm-u ma’rifati va madaniyatining shiddatli va keng doirada yuksalishiga ijtimoiy-ma’naviy “Naqshbandiya” tariqati ham muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Bu tariqat asosida davlat faoliyati olib borilgan.

Amir Temur va temuriylar davri ilm-u ma’rifati yuksalishida ta’lim-tarbiya tizimining oqilona yo‘lga qo‘yilishi ham muhim o‘rin tutgan. Bu davr maktablarida bilim berish o‘quvchilarga arab harflari o‘rgatishdan boshlanib, yozish qoidalarini egallashgach, “Haftiyak” (Qur’onning yettidan bir bo‘lagi) o‘qitilgan, diniy marosimlar, milliy urf-odatlar o‘rgatilgan.

Maktab o‘quvchilari yoshlaridan qat’iy nazar uch guruh – kichik, o‘rta va yuqori guruhlarga ajratilgan:

- Kichik guruhda 3 yil mobaynida maxsus taxtachaga yozilgan harflarni o‘rganib, savod chiqarganlar, so‘ngra “Haftiyak” o‘qitilgan;

- O‘rta guruhda 3 yil davomida harflarning yozilishi tizimi, arab raqamlari orqali matematik tushunchalar o‘rgatilgan. “Chor kitob”, So‘fi Olloyorning hikmatlari o‘qitilgan;

- Yuqori guruhlarda o‘quvchilar 3 yil ichida diniy va dunyoviy bilimlarni egallash bilan birga islom dini asoslarini tashviqot qilganlar. Shuningdek, Shayx Sa’diy Sheroziy va Xo‘ja Hofiz g‘azallarini sevib o‘qiganlar, yodlaganlar, o‘zlari ham she’rlar yozishgan, ijodiy ishlar bilan shug‘ullanganlar. Maktablardagi ta’lim mazmuni va sifati o‘qituvchining o‘qitish mahoratiga va bilim saviyasiga bog‘liq bo‘lgan.

Yuqorida zikr etilgan tadqiqotchilar o‘rta asrlarda maktablarning turlari ko‘p bo‘lganligini yozadilar. Shulardan biri qorixonalardir. Qorixonalar diniy bilimlarni targ‘ib qilish maqsadida odamlar gavjum joylarda qurilgan. Ularni tugatgach talabalar

Qur’onni yod bilishgan va qiroat bilan ayta olishgan. Qorixonalarda nisbatan kattaroq yoshdagi (18-40 yosh) talabalar o‘qitilgan. Qorilar mahallalarda marosimlar o‘tkazishda bosh-qosh bo‘lishgan, hojatmandlarga ariza va shikoyatlarni yozib berganlar. Maktab turlaridan yana biri dalyarxona bo‘lib, unda yoshi ulug‘lar ma’lum bir mavsumda (kuzda, qishda) ma’lumot olishgan, bilimlarning asosini o‘rganishgan.

Imom xatiblarning oila a’zolari, shoiralar va boshqa ziyoli xotin-qizlar o‘z uylarida maktab ochib, otinoyilik qilganlar, qizlarga diniy va axloqiy ta’lim-tarbiya berganlar.

Bu davrda saroy ahlining bolalari uchun alohida qo‘llanma bilan ishlaydigan maktab turidagi muassasalar ham mavjud bo‘lgan. Bolalar 5-6 yoshga yetganda xat-savodi chiqqach, tajribali kishilarga biriktirib qo‘yilgan. Bunday kishilarni qissaxonlar deyishgan. Qissaxonlar davlat ishlarida, harbiy ishlarda bir necha yil ishlagan keksaroq, obro‘li kishilar bo‘lib, ular shahzodalar va bekzodalarga atqalik (shahzodaning ta’lim-tarbiyasiga javobgar shaxs) vazifasini ham bajarganlar.

Amir Temurning atqasi va piri Said Baraka, Ulug‘bekning atqasi esa Shoh Malik bo‘lgan. Qissaxon va atqalar davlatni boshqarish ishlari bo‘yicha ma’ruzalar qilishgan, bekzodalarning zehnini o‘stirish maqsadida o‘zlari bevosita qatnashgan va eshitgan voqealar, Temurning jang qilish usullari haqida so‘zlab, uning harbiy ishlar bo‘yicha bilimi va mahoratini oshirgan. Atqalar doimo shahzodalar va bekzodalar bilan birga bo‘lishib, ularga otda yurish, qilichbozlik, nayzabozlik kabilarni o‘rgatishgan, harbiy bilim berishgan va o‘zlari bunday mashqlarni bajarishda o‘rnak ko‘rsatishgan.

Saroyda “Suluqul muluk” (Shohlar haqida qo‘llanma) bo‘yicha o‘quv tarbiya ishlarini olib boradigan maktablar ham bo‘lgan (Ergashev Q., Hamidov H., 2015).

“Suluqul muluk” arab grafikasida, fors tilida bo‘lib, bir necha kitoblardan tashkil topgan. Unga muvofiq, shahzodalarga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim berilgan:

- Davlat ishlarini boshqarish;
- Diplomatiya masalalari (chet mamlakatlarning elchilarini qabul qilish, ular bilan suhbatlashish va ularni kuzatish, harbiy va fuqarolik diplomatiyalari);
- Soliq yig‘ish ishlari;
- Harbiy ishlar o‘rgatilgan, ularda diniy ishlarni olib borish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar shakllantirilgan.

Mamlakatda oliy o‘quv yurti vazifasini madrasalar o‘tagan. Amir Temur ham ikkita madrasa – Muhammad Sulton va Bibixonim madrasalarini qurdirgan. Madrasalar, asosan, yirik shaharlarda: Samarqand, Buxoro, Hirot va Marvda qurilgan va faoliyat ko‘rsatgan. Ularda, avvalo, diniy, keyinchalik dunyoviy bilimlar o‘rgatilgan, o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan ulamo-olimlari mudarrislik qilishgan.

Ulug‘bek 1417-yilda Buxoroda, 1417-1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G‘ijduvonda madrasalar qurdirgan.

Madrasalarning eng kattasi Samarqanddagi bo‘lib, u ikki qavat va 50 ta hujradan iborat bo‘lgan. Unda 100 dan ortiq tolibi ilmlar o‘qigan.

Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasiga taniqli olim mavlono Shamsuddin Havofiy birinchi mudarris bo‘lgan. Unda Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va ko‘zga ko‘ringan boshqa allomalar ma’ruzalar o‘qishgan. Qur’on, Hadis, tabiiy, astronomiyaga oid fanlar, jug‘rofiya fanlari, geodeziyaga oid bilimlar, tibbiyot, fiqh, tarix, adabiyot, ritorika, mantiq kabi fanlar o‘qitilgan.

Talabalar o‘z-o‘ziga xizmat qilganlar, madrasa atrofini ko‘kalamzorlashtirishda qatnashganlar, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanganlar. Ularning har biri biror kasbni ham egallab, hunar orqasidan kun kechirganlar. Madrasada besh vaqt namoz o‘qilgan. Juma kuni madrasa bo‘shatib qo‘yilgan.

Ulug‘bekning buyuk xizmatlaridan yana biri shundaki, u madrasadagi ta’lim-tarbiya ishlarini isloh qilgan: o‘qish muddatini 14-15 yildan 8 yilga qisqartirgan.

Talabalar uch guruhga bo‘lib o‘qitilgan:

- Anda (kichik) guruh – o‘qish muddati 2 yil;
- O‘rta guruh – (avsat) – o‘qish muddati 3 yil;
- Yuqori guruh – a’lo (oliy) – o‘qish muddati 3 yil.

O‘qishlar qat’iy kundalik dars, mustaqil o‘qish va dam olish muddatlari ko‘rsatilgan jadval asosida nazariya amaliyot bilan qo‘shilgan holda olib borilgan. Ulug‘bekning o‘zi astronomiyadan dars o‘tayotganda talabalarni rasadxonaga olib borib, turli asboblardan foydalanib, yulduzlar joylashishini aniqlashga o‘rgatgan. Shuningdek, ular ustozlari rahbarligida quyosh soatini kuzatganlar va h.k.

Mirzo Ulug‘bek tashkil etgan va yurtimizni jahonga tanitgan akademiya o‘sha davr ilm-u fanining o‘chog‘i hisoblangan. Unda turli mamlakatlardan kelib, ilm-fan bilan shug‘ullangan olimlar soni 1417-yildayoq 100 dan oshib ketgan. Kutubxonada qariyb 150 ming nusxa kitob saqlangan.

Rasadxonada Ulug‘bekning bevosita rahbarligida o‘tkazilgan ishlar uning matematika, geometriya va astronomiya sohasida chuqur bilimlar sohibi ekanligidan guvohlik berar hamda bir qancha amaliy vazifalar yechimi uchun katta ahamiyat kasb etardi. Ulug‘bekning nechog‘lik bilimdonligi va mahorati to‘g‘risida uning xodimi G‘iyosiddin Jamshid Koshiy 1417-yilda Samarqanddan otasiga yozgan quyidagi xati ta’riflaridan ham bilish mumkin: “Ollohga va ne’matlarga ko‘p shukrlar bo‘lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori islom podshohi donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki, avvalo u kishim Qur’oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar.

Arab tilining nahv va sarfini yaxshi biladilar va arabchadan g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishim fiqhdan ancha xabardor... mantiq, ma’nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar. U kishi riyoziyot (matematika) fanining barcha

tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kun otda ketayotib, 818 rajab oyining o‘ninchi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15-20-sentyabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni istadilar. Shunga ko‘ra, otda ketayotib, xayoliy hisob bilan quyoshning taqvimi (o‘sha kuni) bir daraja va ikki daqiqa ekanligini topdilar. Keyin otdan tushgach (hisob to‘g‘riligini) bu bandai bechoradan so‘rab oldilar

Inson bino bo‘lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi. Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishim bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar: “Tazkira” va “Tuhfa” dan shu qadar zo‘r dars o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shimcha qilishning hojati qolmaydi” (Ergashev Q., Hamidov H., 2015).

Temuriylar davri ta’lim-tarbiyasi haqida gap ketganda, davrning eng ilmli, ma’naviyatli mutafakkiri Alisher Navoiy haqida to‘xtab o‘tish o‘rinlidir.

Alisher Navoiy Hirotda ko‘pgina ilm va san’at ahlini to‘pladi, ularni har tomonlama himoya qildi. Abdurahmon Jomiy, Sayid Hasan Ardasher kabi so‘z ustalari Navoiyning yaqin do‘stlari va maslahatchilari edilar. Navoiy iste’dodli yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berdi. Tarixchi Xondamir, xattot Sulton Ali, rassom Behzod va boshqalar Navoiy homiyligida kamolga yetdilar. Navoiy ko‘plab madrasa, kutubxona, shifoxona, hammom va shunga o‘xshash binolar qurdirdi.

Navoiyning Hirotda qurdirgan “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xalosiya” xonaqohi, Marvda qurdirgan “Xisraviya” madrasasi ilm va san’at rivojida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xondamirning ta’kidlashicha, u “talabalar faqat o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lsin”, deb ularga nafaqalar tayin etgan.

Alisher katta yer va mulk egasi bo‘lgan. U yillik daromadining katta qismini xalq farovonligi uchun har xil qurilishlarga, ochlarni boqish, kambag‘allarni kiyintirish va ilm istovchilarga homiylik qilish kabi savob ishlarga sarflagan.

Amir Temur va temuriylar davrida hukmdorlarni o‘zlarining ilmliligi va tarbiyaliligi, ularning ilm, fan va madaniyatga intilishi, bu sohaga ularni o‘zlarini shaxsan homiylik qilishlari XIV-XV asrlarda yurtimizda fan va madaniyatning yuksalishiga, shu tariqa dunyoda ikkinchi marta ham O‘rta Osiyoda renessans (uyg‘onish) ro‘y berishiga olib keldi. Bu davrda Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Hirot kabi yirik shaharlarda qurilish, bunyodkorlik va me’morchilik ishlari olib borildi. Baland, yirik obidalar va ilm maskanlari qad ko‘tardi, go‘zal bog‘lar barpo etildi.

Temuriy shahzodalardan Shohrux Mirzo, Abu Said Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar ijodlari bu yurtni jahonga tanitdi. Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin Ahmad Xorazmiy, Mavlono Termiziy, Mansur ibn Muhammad Buxoriy, Shayx Zayniddin Xofiy, Said Sharif Jurjoniy, Sa’duddin Taftazoniy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali

Qushchi, Muhammad Havofiy va Qozizoda Rumiy kabi allomalar jahon sivilizatsiyasiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy ildizlarimizning bir bo‘lagi – Amir Temur va temuriylar ma’naviyatidir. Biz mustaqillik tufayli bu ma’naviyatning naqadar zarurligini va buyuk kelajak sari qadam tashlayotgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrli ekanligini angladik.

Amir Temur va ayrim temuriy shahzodalarning adolat, osoyishtalik uchun kurashlari nafaqat yurtning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga, balki xalqimizning ilm-u ma’rifatli, axloq-odobli, yuksak ma’naviyat egalari bo‘lishlariga ham imkon yaratdi.

Bu davrda diniy ta’lim va dunyoviy ilm bir-birini to‘ldirgan. Madrasalarda diniy bilimlar, Qur’on, hadis, fiqh o‘qitilgan, shu bilan birga, ilmiy va amaliy sohalarda ham bilimlar berilgan. Bu, ta’lim tizimining har tomonlama rivojlanishini ta’minlagan va ta’lim olgan shaxslar nafaqat diniy, balki dunyoviy dunyoqarashi keng bo‘lgan.

Temur, ta’limni nafaqat ilm-fan, balki axloqiy tarbiya bilan birlashtirishga alohida e’tibor qaratgan. U davlat boshqaruvi, axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlar haqida keng fikr yuritgan. “Temur tuzuklari”da adolat, sadoqat, halollik, vatanparvarlik kabi axloqiy tamoyillarni shakllantirishga urg‘u berilgan. Bu, ta’lim jarayonida shaxsiy fazilatlarning muhimligini ko‘rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Bobomurodova N. (2024). Temuriylar saltanatida ma’naviy-ma’rifiy hayot va ayollarning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni // Bukhara State University Journal of Social Sciences, № 3. – B. 25–32.
2. Bo‘riyev O. (2011). Sohibqiron Amir Temur. – Toshkent.
3. G. Tursunova, I. Ochilov. (2020). Amir Temur hayoti va ulkan saltanatning vujudga kelishi // Oriental Art and Culture, №. 4. – B. 45–51.
4. Keren L. (1999). Amir Temur saltanati. – Toshkent: Ma’naviyat.
5. M. Jo‘raqulova, A. Kamalova. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim-tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati // Science and Education, № 5. – B. 490–494.
6. Natanziy, Muiniddin. (2011). Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. – Toshkent.
7. Q. Ergashev, H. Hamidov. (2015). O‘zbekiston tarixi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom.
8. Sodiqov H. (2007). Amir Temur hayotidagi g‘aroyibotlar. – Toshkent.
9. Sh. O‘ljayeva, G. Tosheva. (2023). Amir Temur saltanatida sog‘lom avlod tarbiyasi masalalari // Central Asian Journal of Education and Innovation, № 2. – B. 112–118.

10. Xoliqova R. (2023). Temur va temuriylar davri manbalaridan “Temurnoma” asari haqida // Journal of Historical Studies, № 5. – B. 45–52.

**REFERENCES:**

1. Bobomurodova N. (2024). Temuriylar saltanatida ma’naviy-ma’rifiy hayot va ayollarning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni // Bukhara State University Journal of Social Sciences, № 3. – B. 25–32. (In Uzbek)
2. Bo‘riyev O. (2011). Sohibqiron Amir Temur. – Toshkent. (In Uzbek)
3. G. Tursunova, I. Ochilov. (2020). Amir Temur hayoti va ulkan saltanatning vujudga kelishi // Oriental Art and Culture, №. 4. – B. 45–51. (In Uzbek)
4. Keren L. (1999). Amir Temur saltanati. – Toshkent: Ma’naviyat. (In Uzbek)
5. M. Jo‘raqulova, A. Kamalova. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim-tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati // Science and Education, № 5. – B. 490–494. (In Uzbek)
6. Natanziy, Muiniddin. (2011). Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. – Toshkent. (In Uzbek)
7. Q. Ergashev, H. Hamidov. (2015). O‘zbekiston tarixi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. (In Uzbek)
8. Sodiqov H. (2007). Amir Temur hayotidagi g‘aroyibotlar. – Toshkent. (In Uzbek)
9. Sh. O‘ljayeva, G. Tosheva. (2023). Amir Temur saltanatida sog‘lom avlod tarbiyasi masalalari // Central Asian Journal of Education and Innovation, № 2. – B. 112–118. (In Uzbek)
10. Xoliqova R. (2023). Temur va temuriylar davri manbalaridan “Temurnoma” asari haqida // Journal of Historical Studies, № 5. – B. 45–52. (In Uzbek)

# OILAVIY KRIZISLAR VA UNING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI

# FAMILY CRISES AND THEIR IMPACT ON THE HUMAN PSYCHE

# СЕМЕЙНЫЕ КРИЗИСЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПСИХИКУ ЧЕЛОВЕКА

**Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li**
*Oriental universiteti o‘qituvchisi*
*Tel.: +998 99 803-84-85*
*E-mail: uyusupov80@gmail.com*

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada oilaviy krizislarning insonning ruhiyatiga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda oilaviy muammolar, ziddiyatlar va ajralishlarning o‘smirlar va kattalar ruhiy holatiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy krizislarni boshdan kechirgan o‘smirlarning psixologik holati o‘rganilib, ularning depressiya va xavotir darajalari tahlil qilindi. Empirik tadqiqot natijalari, oilaviy ziddiyatlar va ajralishlarning ruhiy salomatlikka salbiy ta’sirini ko‘rsatgan. Maqolada oilaviy krizislarni yengib o‘tish uchun psixologik yordamning ahamiyati va oilaning ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish zarurati ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari sifatida o‘smirlarning ruhiy salomatligini yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar beriladi. Tahlil natijalari oilaviy muammolarni bartaraf etishda psixologik barqarorlikni ta’minlashga yordam berishi nazarda tutilgan. Shuningdek, tadqiqot oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishi jamiyatdagi umumiy psixologik farovonlikka hissa qo‘shishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar**: *Oilaviy krizislar, ruhiy salomatlik, psixologik yordam, o‘smirlar, depressiya, xavotir, oilaviy ziddiyatlar, psixologik holat, empirik tadqiqot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.*

**Abstract**: This article examines the impact of family crises on an individual’s mental health. The study analyzes how family problems, conflicts, and divorces negatively affect the psychological state of adolescents and adults. The psychological condition of adolescents experiencing family crises was investigated, with a focus on their levels of depression and anxiety. Empirical research findings indicate the adverse effects of family conflicts and divorces on mental health. The article emphasizes the importance of psychological support in overcoming family crises and the need to develop social and psychological support systems for families. The research results provide practical recommendations for improving adolescents’ mental health. The analysis aims to contribute to ensuring psychological stability in addressing family issues. Furthermore, the study highlights that strengthening family relationships contributes to overall psychological well-being in society.

**Keywords**: *family crises, mental health, psychological support, adolescents, depression, anxiety, family conflicts, psychological state, empirical research, social support.*

**Аннотация**: В данной статье исследуется влияние семейных кризисов на психику человека. В исследовании анализируется, как семейные проблемы, конфликты и разводы негативно сказываются на психологическом состоянии подростков и взрослых. Было изучено психологическое состояние подростков, переживающих семейные кризисы, с акцентом на уровни депрессии и тревожности. Результаты эмпирического исследования подтверждают негативное воздействие семейных конфликтов и разводов на психическое здоровье. Статья подчеркивает важность психологической поддержки в преодолении семейных кризисов и необходимость развития систем социальной и психологической поддержки семей. Результаты исследования предлагают практические рекомендации по улучшению психического здоровья подростков. Анализ направлен на обеспечение психологической стабильности при решении семейных проблем. Кроме того, исследование показывает, что укрепление семейных отношений способствует общему психологическому благополучию в обществе.

**Ключевые слова**: *семейные кризисы, психическое здоровье, психологическая поддержка, подростки, депрессия, тревожность, семейные конфликты, психологическое состояние, эмпирическое исследование, социальная поддержка.*

## KIRISH

Oilaviy krizislar, oila a’zolari o‘rtasidagi nizolar, ajralishlar yoki boshqa muammolar natijasida yuzaga keladigan jiddiy ijtimoiy va ruhiy holatlardir. Bu holatlar oila ichidagi aloqalarni, shaxsiy munosabatlarni va umuman oilaviy barqarorlikni buzib, o‘smirlarning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oilaviy krizislar, o‘smirlar va kattalar orasida depressiya, xavotir, stress va boshqa psixologik muammolarni kuchaytiradi. Ushbu maqola oilaviy krizislarning inson ruhiyatiga ta’sirini o‘rganadi va o‘smirlar orasida yuzaga keladigan psixologik holatlar asosida empirik tadqiqotlar olib boradi.

Oilaviy krizislar inson ruhiyatiga turli yo‘llar orqali ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlar uchun oilaviy nizolar va ajralishlar, shaxsiy xavotir va tushkunlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Krizislar natijasida o‘smirlar o‘zlarini zaif his qilishi, o‘zaro munosabatlarga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishi mumkin. Oilaviy barqarorlikni saqlab qolish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash ruhiy holatni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy krizislarning ta’siri odamning ruhiy holatida bir necha shaklda

namoyon bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda, oila a’zolari o‘rtasidagi nizolar vaqtinchalik bo‘lib, o‘smirlar ularni tezda yengib o‘tadilar. Ammo uzoq muddatli va keskin krizislar o‘smirlar va kattalar orasida depressiya, stress va boshqa psixologik xastaliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. O‘smirlar o‘zaro munosabatlarni shakllantirishda oilaning muhim rolini his qilishadi, va agar bu muhit beqaror bo‘lsa, ular o‘zlarini izolyatsiya qilgan his qilishi mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

E. Cummings va P. Davies o‘zlarining “Marital Conflict and Children: An Emotional Security Perspective” maqolasida oilaviy ziddiyatlarning bolalar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganadilar. Mualliflar oiladagi nizolar bolalarning hissiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va ularning psixologik xavfsizlik hislarini zaiflashtirishini ta’kidlaydilar. Tadqiqotda oilaviy muhitdagi ziddiyatlarning bolalarda stress, xavotir va ijtimoiy moslashuv muammolariga olib kelishi empirik dalillar bilan ko‘rsatilgan. Ushbu ish oilaviy munosabatlarni mustahkamlash orqali bolalar ruhiy salomatligini yaxshilashning muhimligini ta’kidlaydi (Cummings E., Davies P., 2010).

P. Amato “Research on Divorce: Continuing Trends and New Developments” maqolasida ajralishlarning shaxslar va oila a’zolariga, xususan, bolalarga ta’sirini tahlil qiladi. Muallif ajralishning psixologik va ijtimoiy oqibatlari, shu jumladan, o‘smirlarning depressiya va o‘zini o‘zi hurmat qilish darajasiga ta’sirini ko‘rib chiqadi. Tadqiqot ajralish jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv dasturlarining ahamiyatini ta’kidlaydi, bu esa oilaviy krizislarning salbiy ta’sirini yumshatishga yordam beradi (Amato P., 2010).

R. Repetti, S. Taylor va T. Seeman “Risky Families: Family Social Environments and the Mental and Physical Health of Offspring” maqolasida oilaviy muhitning bolalarning ruhiy va jismoniy salomatligiga ta’sirini o‘rganadilar. Mualliflar “xavfli oilalar” deb ataladigan disfunksional oilaviy muhitlarning bolalarda stress-reaksiyalarni kuchaytirishi va uzoq muddatli psixologik muammolarga olib kelishini ta’kidlaydilar. Tadqiqot oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish orqali bolalarning psixologik barqarorligini ta’minlash uchun amaliy yondashuvlarni taklif etadi (Repetti R., Taylor S., Seeman T., 2002).

Ushbu adabiyotlar oilaviy krizislarning inson psixologiyasiga ta’sirini tushunishda muhim hissa qo‘shadi va psixologik yordam tizimlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot oilaviy krizislarning inson ruhiyatiga ta’sirini o‘rganishda kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda oilaviy ziddiyatlar va ajralishlarning

o‘smirlar va kattalardagi psixologik holatiga ta’sirini aniqlash uchun so‘rovnoma va psixologik testlardan foydalanildi.

Tadqiqotda oilaviy krizislarning o‘smirlar va kattalar ruhiyatiga qanday ta’sir qilishini o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda 100 nafar ishtirokchi, jumladan, turli oilaviy holatlar bo‘lgan o‘smirlar va ularning ota-onalari ishtirok etgan. Tadqiqot metodi sifatida so‘rovnoma va psixologik testlar ishlatilgan. Beck Depressiya Skali (BDI) – Aaron T. Beck tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu test depressiya darajasini o‘lchash uchun keng tarqalgan psixologik vosita bo‘lib, 21 savoldan iborat bo‘lib, depressiya alomatlarini baholashga yordam beradi.

Trevorka xavotir testi (STAI) – Charles D. Spielberger tomonidan ishlab chiqilgan. Bu test o‘smirlarning xavotir darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi va test ishtirokchilarining xavotir va bezovtalikni qanday his qilishlarini baholashga yordam beradi. Shuningdek, so‘rovnoma metodikasi asosida J. K. Strelkova va M. P. Shumakovaning oilaviy krizislar va ruhiy salomatlikni o‘lchashga oid metodik ishlari asosida tadqiqotning so‘rovnoma qismi tuzilgan. Bu metodika o‘smirlarning oilaviy muammolarni qabul qilish darajasini va ruhiy salomatlikka ta’sirini aniqlashda ishlatilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning natijalari, oilaviy krizislarni boshdan kechirgan o‘smirlarning ruhiy holati, oilaviy barqarorlikka ega bo‘lganlarga nisbatan pastroq bo‘lishini ko‘rsatdi. Oilaviy ziddiyatlar yoki ajralishlar vaqtida o‘smirlar orasida depressiya va xavotir darajasi yuqori bo‘ldi. Tadqiqotda oilaviy krizislarni boshdan kechirganlar, umumiy ravishda, o‘zlarini yanada stresslangan va ruhiy salomatliklari pastroq ekanligini bildirib o‘tdilar. Ularning ko‘pchiligi oilaviy muammolarni hal qilishda psixologik yordamga muhtojligini aytdilar.

**1-jadval**

| Ko‘rsatkich | Natijalar | Foiz (N = 100) |
|---|---|---|
| **Depressiya** | Depressiya darajasi yuqori | 60% (N = 60) |
| | Depressiya darajasi o‘rtacha | 30% (N = 30) |
| | Depressiya darajasi past | 10% (N = 10) |
| **Xavotir** | Xavotir darajasi yuqori | 70% (N = 70) |
| | Xavotir darajasi o‘rtacha | 20% (N = 20) |
| | Xavotir darajasi past | 10% (N = 10) |

**Beck Depressiya Skali (BDI)** natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy krizislarni boshdan kechirgan o‘smirlar orasida depressiya darajasi yuqori (60%), bu esa oilaviy muammolar va krizislarning o‘smirlarning ruhiy salomatligiga katta ta’sir ko‘rsatishini bildiradi.

**Trevorka Xavotir Testi (STAI)** natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 70% (N = 70) xavotir darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatdi, bu o‘smirlarning oilaviy nizolar va muammolarni boshdan kechirayotganliklarini va bu holatning ularning psixologik salomatligiga ta’sir qilayotganini anglatadi.

Bu natijalar o‘smirlarning ruhiy holatiga oilaviy krizislar ta’sirining katta ekanligini ko‘rsatadi. Depressiya va xavotir darajalarining yuqoriligi, oilaviy muammolar va krizislar oqibatida o‘smirlarning psixologik salomatligining pasayganligini tasdiqlaydi.

**2-jadval**

**Regressiya natijalari**

| Ko‘rsatkich | Qiymat |
|---|---|
| Determinatsiya koeffitsiyenti (R-squared) | 0.611 |
| F-statistikasi | 153.7 |
| F-statistikasi uchun p-qiymat | 8.63e-22 (juda ahamiyatli) |
| Intercept (const) | -0.1439 |
| BDI koeffitsiyenti (x1) | 0.8467 |
| BDI uchun p-qiymat | (juda ahamiyatli) |

R-squared = 0.611 → Bu depressiya darajasi (BDI) xavotir darajasi (STAI) ning 61.1% variatsiyasini tushuntiradi, ya’ni depressiya va xavotir o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor. p-qiymat (p = 0.000) → Juda kichik bo‘lib, bu model statistik jihatdan ishonchli ekanini bildiradi. BDI koeffitsiyenti = 0.8467 → Bu depressiya darajasi (BDI) bir birlikka oshsa, xavotir darajasi (STAI) 0.85 birlikka oshishini anglatadi. Oilaviy krizislar natijasida o‘smirlar depressiyaga tushganida, ularda xavotir darajasi ham sezilarli darajada oshadi. Shuning uchun, oilaviy muhitni barqarorlashtirish va o‘smirlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy krizisni boshdan kechirgan o‘smirlar va barqaror oilaviy muhitda o‘sgan o‘smirlarning psixologik ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy krizisni boshdan kechirgan o‘smirlar depressiya va xavotir darajasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Shuningdek, ularning o‘z-o‘zini

baholash darajasi barqaror oilaviy muhitda o‘sgan o‘smirlarga nisbatan ancha past ekanligi kuzatildi.

**3-jadval**

| Ko‘rsatkich | Oilaviy krizisga uchragan o‘smirlar (n=50) | Barqaror oilaviy muhitdagi o‘smirlar (n=50) |
|---|---|---|
| BDI (Depressiya indeksi) | 21.4 | 12.6 |
| STAI (Xavotir darajasi) | 48.7 | 30.2 |
| O‘z-o‘zini baholash shkalasi (Rosenberg) | 16.3 | 24.8 |

Pearson korrelatsiya tahlili natijalari:

- Depressiya va xavotir o‘rtasidagi bog‘liqlik ($r = 0.61$, $p < 0.001$) – bu depressiya darajasi oshgan sari xavotir darajasi ham ortishini bildiradi.
- Oilaviy qo‘llab-quvvatlash va o‘ziga bo‘lgan ishonch o‘rtasidagi bog‘liqlik ($r = 0.57$, $p < 0.01$) – bu esa oilaviy barqarorlik yuqori bo‘lsa, o‘z-o‘zini baholash ham yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi.

Oilaviy krizislarni bartaraf etish uchun oila ichida psixologik yordam muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar o‘rtasidagi muloqot, bir-biriga bo‘lgan hurmat va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash psixologik ta’sirni yengillashtiradi. O‘smirlar o‘zlarini xavfsiz his qilishlari va oila ichidagi qo‘llab-quvvatlashni sezishlari zarur. O‘smirlarga va ularning ota-onalariga oilaviy psixoterapiya yoki individual konsultatsiyalarni taklif qilish, ruhiy holatni yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘smirlarning emotsional barqarorligini ta’minlash uchun jismoniy faoliyat va ijtimoiy muhitni yaxshilash zarur. Tadqiqotda ishtirok etganlar, psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyojni aniq bildirdilar va ularni bu yo‘nalishda qo‘llab-quvvatlash zarur. Oilaviy krizislar inson ruhiyatiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin (McLanahan S., Tach L., Schneider D., 2013).

O‘smirlik davridagi psixologik holat, oilaviy muammolar natijasida jiddiy o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Tadqiqot natijalari oilaviy muhitning ruhiy salomatlikka qanday ta’sir qilishini va bu jarayonda psixologik yordamning ahamiyatini ko‘rsatdi. O‘smirlar va oilalar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, oilaviy krizislarni yengib o‘tish uchun muhimdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotda oilaviy ziddiyatlar, ajralishlar va boshqa muammolar depressiya, xavotir va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kabi psixologik oqibatlarga olib kelishi aniqlandi. So‘rovnoma va psixologik testlar yordamida olingan empirik ma’lumotlar oilaviy krizislarning ruhiy salomatlikka salbiy ta’sirini tasdiqladi, ayniqsa o‘smirlar guruhida bu ta’sir yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida oilaviy muhitning barqarorligi shaxsning psixologik farovonligida hal qiluvchi rol

o‘ynashi isbotlandi. Shu bilan birga, oilaviy krizislarning ta’sirini yumshatishda psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining muhimligi ta’kidlandi.

Tadqiqot natijalari oilaviy krizislarning psixologik oqibatlarini bartaraf etish uchun amaliy choralar ko‘rish zarurligini ko‘rsatdi. Birinchi navbatda, oilaviy nizolarni boshqarish va ularni hal qilish bo‘yicha psixologik treninglar va maslahat xizmatlarini kengaytirish tavsiya etiladi, chunki bu yondashuv shaxslarning psixologik barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Ikkinchidan, maktablar va ijtimoiy muassasalarda o‘smirlar uchun maxsus psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlari joriy etilishi lozim, sababi o‘smirlar oilaviy krizislarga nisbatan ko‘proq zaifdir. Uchinchidan, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslar va davlat dasturlari ishlab chiqilishi kerak, chunki bu jamiyatda umumiy psixologik savodxonlikni oshiradi.

Bundan tashqari, kelgusida ushbu sohada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur. Masalan, oilaviy krizislarning turli yosh guruhlariga o‘ziga xos ta’sirini o‘rganish va madaniy omillarning bu jarayondagi rolini tahlil qilish muhimdir. Bunday tadqiqotlar oilaviy muammolarni bartaraf etishda yanada samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot oilaviy krizislarning psixologik oqibatlarini yumshatish va shaxslarning ruhiy salomatligini himoya qilishda psixologik va ijtimoiy yondashuvlarning integratsiyalashuvi muhimligini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv nafaqat individual, balki jamiyat darajasida ham ijobiy natijalarga olib keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES:

1. Amato P. (2010). Research on divorce: Continuing trends and new developments // Journal of Marriage and Family, № 72. – P. 650-666.
2. E. Cummings, P. Davies. (2010). Marital conflict and children: An emotional security perspective. – New York: Guilford Press.
3. E. Hetherington, J. Kelly. (2002). For better or for worse: Divorce reconsidered. – New York: W. W. Norton & Company.
4. Luthar S. (2006). Resilience in development: A synthesis of research across five decades // Developmental Psychopathology, № 3. – P. 739-795.
5. Masten A. (2014). Global perspectives on resilience in children and youth // Child Development, № 85. – P. 6-20.
6. R. Baumeister, K. Vohs. (2004). Handbook of self-regulation: Research, theory, and applications. – New York: Guilford Press.
7. R. Conger, K. Conger, M. Martin. (2010). Socioeconomic status, family processes, and individual development // Journal of Marriage and Family, № 72. – P. 685-704.

8. R. Repetti, S. Taylor, T. Seeman. (2002). Risky families: Family social environments and the mental and physical health of offspring // Psychological Bulletin, № 128. – P. 330–366.

9. S. McLanahan, L. Tach, D. Schneider. (2013). The causal effects of father absence // Annual Review of Sociology, № 39. – P. 399-427.

10. Walper S. (2015). Family transitions and mental health in adolescence and emerging adulthood // Journal of Adolescence, № 45. – P. 242-245.

Oriental universitetining
“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

# INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Bosh muharrir: **Nishanova Z. T.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Egamberdiyeva F. O.**

Mas’ul muharrir: **Umarov B. M.**

Musahhih: **Yunusov K. A.**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.

Telefon: +998 93 004-57-77. Murojaat uchun: https://t.me/Innovative_Pedagogy_Psychology

“Innovatsion pedagogika va psixologiya” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 061546 raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 28-may, 7-sonli
yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.